

65
A 19

O.M. Azizov

XORIJIY DAVLATLAR SOLIQ TIZIMI



68
A 19

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI


TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

O.M.AZIZOV

XORIJIY DAVLATLAR SOLIQ TIZIMI

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi
oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini
muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan oliy o'quv yurtlarining iqtisodiy
ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya
etilgan*

O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi
Adabiyot jamg'armasi nashriyoti
Toshkent — 2005



Azizov O.M. Xorijiy davlatlar soliq tizimi. O'quv qo'llanma. -T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005, 136 b.

Ushbu o'quv qo'llanmada dunyoning ayrim rivojlangan davlatlari hamda mustaqil davlatlar hamdo'stligiga a'zo davlatlarning soliq tizimi, ulardagi mavjud soliqlar va yig'imglar, soliqqa tortish mexanizmining tartibi, shuningdek, olib borilayotgan soliq islohotlarini o'rganishga e'tibor berilgan. O'quv qo'llanma 5340800 - "Soliqlar va soliqqa tortish" ta'lim yo'nalishi talabalari va iqtisodiy ta'lim yo'nalishidagi oily o'quv yurtlarining bakalavrlari, magistrarlari, professor-o'qituvchilar va ilmiy tadqiqotchilarga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir: **O'. T. Eshboyev,**
"Buxgalteriya hisobi va audit"
fakulteti dekani, i.f.n., dotsent.

Taqrizchilar: **A.S. Jo'raev,**
TMI "Soliqlar va soliqqa tortish" kafedrası mudiri,
i.f.d., professor
S. Xudoyqulov,
TDIU "Moliya va soliqlar" kafedrası dotsenti,
i.f.n., dotsent.

Ekspertlar: **O. Abduvahobov,**
TDIU Ichki nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i,
i.f.n., dotsent.
O.A. Yusupov,
TDIU "Moliya va soliqlar" kafedrası katta
o'qituvchisi

Азизов О.М. “Налоговая система зарубежных стран” (учебное пособие) - Т.: Т. Издательство Литературного фонда Союза писателей Узбекистана, 2005, 136 с.

В настоящем учебном пособии представлена налоговая система, порядок и механизм налогообложения, а также проводимые налоговые реформы некоторых развитых государств и стран - членов СНГ. Настоящее пособие предназначено для студентов экономических вузов 5340800 по направлению “Налоги и налогообложение”, изучающих данный курс, а также магистрантов, профессорско-преподавательскому составу и научным исследователям в области налогообложения.

Ответственный

редактор:

У. Т. Эшбоев,
Декан факультета “Бухгалтерского учета и аудит” к.э.н., доцент.

Рецензенты:

А.С.Джураев,
Зав. кафедрой “Налоги и налогообложение” ТФИ,
д.э.н., проф.;
С. К. Худойкулов,
Доцент кафедры “Финансы и налоги”
ТГЭУ, к.э.н., доц.

Эксперты:

О. Абдувахобов,
Начальник отдела внутреннего
контроля и мониторинга Ташкентского
Государственного Экономического университета,
кандидат экономических наук, доцент;
О.А. Юсупов,
старший преподаватель Ташкентского
Государственного Экономического
университета кафедры “Финансы и налоги”.

Azizov O.M. "Tax system of foreign countries" (manual). T.: pub. LFUWU 2005, 136 p.

This manual is presented the tax system, order and mechanism taxation, as well as conducted tax reform in some developed state and countries - members C.I.S. Present an allowance is intended for students of economic high schools, studying course 5340800 "Taxes and taxation", as well as for more broad readership and researchers in the field of taxations.

- Responsible editors:** **U. T. Eshboev**,
Decan of faculty "Accounting and audit", senior lecture
- Reviewers:** **A.S. Juraev**,
chief of department "Taxes and taxation" TFI, professor;
S.K. Xudoykulov,
senior lecture of Tashkent State Economic University Chair of "Finance and Tax";
- Experts:** **O. Abduvahabov**,
The director chief of department of domestic control and monitoring of Tashkent State Economic University, candidate of economic scionel, lecturer;
O. A. Yusupov,
senior teacher of Tashkent State Economic University Chair of "Finance and Tax".

KIRISH

Fanni o'rganishning dolzarbligi. Davlatning bozor iqtisodiyotiga ta'sir ko'rsatuvchi ko'pgina iqtisodiy tayanchlari o'rtasida soliqlar muhim o'rin tutadi. Bozor munosabatlari sharoitida, ayniqsa, bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida soliq tizimi - bu davlatning siyosiy-iqtisodiy tomondan tartibga soluvchilaridan biri hamda moliya-kredit mexanizmining asosidir. Davlat soliq siyosatidan bozorning salbiy ko'rinishlariga aniq ta'sir etish vositasi sifatida keng foydalaniladi. Har bir soliq butun soliq tizimidek, bozor sharoitida iqtisodiyotni boshqarishda kuchli ta'sir etuvchi vositadir. Butun xalq xo'jaligining samarali faoliyat ko'rsatishi soliq solish tizimining qanchalik to'g'ri tuzilganligiga bog'liqdir.

Mustaqilligimizning dastlabki yillarida nashr etilgan Davlatimiz rahbarining "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida" (1995 y.) nomli asarida soliq tizimida islohotlar o'tkazish muhimligi ta'kidlab o'tildi. Bozor islohotlarini amalga oshirish dasturining birinchi bosqichida soliq siyosati sohasida g'oyat muhim va birinchi darajali chora-tadbirlar hamda ustuvor yo'nalishlar sifatida quyidagilar ilgari surildi: "- soliq tizimini takomillashtirish, byudjet daromadlarining barqaror suratda to'ldirib turilishini ta'minlaydigan, kichik va xususiy korxonalarining, chet el kapitali ishtirokidagi, qishloq xo'jaligi mahsulotini qayta ishlaydigan va xalq iste'moli mollari ishlab chiqaradigan qo'shma korxonalarining rivojlanishini rag'batlantiradigan pishiq-puxta soliq siyosatini olib borish".

2005 yil yanvar oyida bo'lib o'tgan Oliy Majlis qonunchilik palatasi va senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov, respublikamizda soliqqa tortish tizimini isloh qilishda "boshqa rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribasidan foydalanish" lozimligi haqida yana bir karra ta'kidlab o'tdi.

G'arbda soliq masalalari allaqachon korxonalarining moliyaviy rejalashtirilishida faxrli o'rin egallagan. Yuqori soliq stavkalari sharoitlarida noto'g'ri yoki yetarlicha bo'lmagan soliq omillari noxush asoratlarga va hatto korxonaning sinishiga ham olib kelishi mumkin. Boshqa tomondan, soliq qonuniyatida ko'zda tutilgan imtiyozlar va chegirmalardan to'g'ri foydalanish nafaqat yig'ilgan moddiy mablag'larning saqlanib qolinishini, balki faoliyatning rivojlanishini moddiy ta'minlash imkoniyatlarini, soliqlar orqali tejalgan yangi investitsiyalarni va hatto g'aznadan to'langan soliq to'lovlarining qaytarilishini ham ta'minlashi mumkin.

Fan bo'yicha o'quv adabiyotlarning qiyosiy tahlili. Ushbu qo'llanma rivojlangan xorijiy davlatlar hamda mustaqil davlatlar hamdo'stligiga a'zo davlatlarning soliq tizimi va ularda olib borilayotgan islohotlarni o'rganish

asosida yaratildi. Qo'llanmada xorijiy hamda MDHga a'zo davlatlarning soliq tizimida amal qilayotgan soliq stavkalari, foizlar va ko'rsatkichlarining hozirgi holati keltirilgan. Ushbu qo'llanmani o'rganib chiqish bilan kitobxon rivojlangan xorijiy davlatlarning soliq tizimi to'g'risidagi tushunchaga ega bo'ladi. Soliqlar va soliqqa tortish yo'nalishida o'qiyotgan talaba yoki bu sohada ishlayotgan mutaxassislar uchun Respublikamiz soliq tizimi bilan rivojlangan xorijiy davlatlarning soliq tizimini solishtirish orqali mavjud muammolarni bartaraf qilish borasida imkoniyat yaratiladi.

Har bir davlat o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan soliq siyosati va soliq tizimiga ega. Ushbu qo'llanmada xorijiy davlatlarning soliq siyosati va soliq tizimidagi o'ziga xoslik o'rganib chiqilgan. Qo'llanmada xorijiy davlatlarning soliq tizimi to'rt guruhga bo'lib o'rganildi, ya'ni: rivojlangan Yevropa davlatlarining soliq tizimi; Shimoliy Amerikaning rivojlangan davlatlari soliq tizimi; rivojlangan Osiyo davlatlarining soliq tizimi va Mustaqil davlatlar hamdo'stligiga a'zo ayrim davlatlarning soliq tizimi.

Ushbu qo'llanmani boshqa adabiyotlar, masalan, Rossiya Federatsiyasida chop etilgan N.N. Tyutyuryukovning TDIU kutubxonasida mavjud bo'lgan kitob bilan "Налоговые системы зарубежных стран: Европа и США"-M., Dashkov va K, 2002 y. qiyosiy tahlil o'tkazganimizda ma'lum bo'ldiki, bu kitobda asosan Yevropa va AQSh davlatlarining soliq tizimi yoritib berilgan bo'lib, dunyoning rivojlangan mamlakatlaridan, masalan, Yaponiya, Xitoy, ya'ni Osiyo qit'asiga qarashli davlatlar va MDHga a'zo davlatlarning soliq tizimi qamrab olinmagan. Shu sababli biz yaratgan bu qo'llanmada har bir qit'adan rivojlangan davlatlarning soliq tizimi o'rganib chiqildi va yoritildi. Mazkur qo'llanmaning ikkinchi qismida boshqa rivojlangan yoki rivojlanayotgan davlatlarning soliq tizimini o'rganib chiqishni oldimizga maqsad qilib qo'ydik.

O'quv qo'llanmada yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar yuzasidan siz kitobxonlarning fikrini bilish biz uchun juda muhimdir.

I BOB

«XORIJIY DAVLATLAR SOLIQ TIZIMI» FANINING PREDMETI, VAZIFALARI VA MANBALARI

1.1. «Xorijiy davlatlar soliq tizimi» fanining predmeti va vazifalari

O‘zbekiston istiqloлга erishib, mustaqil iqtisodiy islohotlar yo‘lini tanlaganidan so‘ng, hukumat oldida mamlakat iqtisodiyotining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, mohiyatan yangi soliq tizimini vujudga keltirish vazifasi turar edi. Zero, iqtisodiyotni boshqarish borasida sovet ma‘muriy-buyruqbozlik tizimidan meros qolgan byudjetni shakllantirish mexanizmi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar talablariga mos kelmas, mamlakatimiz talablariga javob bermas edi.

Soliq islohotlarini amalga oshirishda mamlakatimiz rahbariyati tomonidan quyidagi masalalarni hal qilish ustivor vazifa sifatida qo‘yildi:

Birinchidan, korxonalarга nisbatan soliq yukini imkon qadar kamaytirish. Bundan maqsad korxonaning o‘z mablag‘larini mustaqil ravishda tasarruf eta olish salohiyatiga ega bo‘lishidir. Eng avvalo bevosita soliqlarni kamaytirish va bilvosita soliqlarni hamda resurs to‘lovlarini, ayniqsa qayta tiklanmaydigan tabiiy boyliklar, yer va suv zahiralari dan samarali va tejamkorlik bilan foydalanishni optimallashtirishga alohida ahamiyat berish lozim.

Ikkinchidan, ishlab chiqaruvchilardan byudjet va byudjetdan tashqari fondlar uchun undiriladigan soliqlar summasi yalpi ichki mahsulot (YIM) va iqtisodiy rivojlanishning belgilangan sur‘atlarida optimal ravishda muvofiqlashtirilishi kerak.

Uchinchidan, soliq siyosatini shakllantirish paytidagi byudjetlararo nisbatlarga qat‘iy rioya qilish, ya‘ni, daromadlarning qaysi qismi ishlab chiqaruvchilarda qolishi kerakligi, qaysi qismi mahalliy va respublika byudjetiga kelib tushishi lozimligining optimal nisbatlarini ta‘minlash kerak.

To‘rtinchidan, soliqlarni birxillashtirish, sonini qisqartirish hamda ular bo‘yicha hisob-kitob qilish va to‘lash mexanizmlarini soddalashtirish bo‘yicha doimiy ish olib borish.

Beshinchidan, yillik soliq siyosatini shakllantirishda davlat xarajatlarining mumkin qadar qisqartirilishi va optimallashtirilishini eng muhim ustivorlik sifatida inobatga olish.

Bozor munosabatlari, xo‘jalik yuritishning yangi shakllari rivojlanishi bilan, soliq qonunchiligi, zikr etilgan tamoyillardan kelib chiqadigan hamda islohotlarning tegishli bosqichi sharoitiga mos keladigan jiddiy o‘zgarishlarga uchradi. Shu tarzda yangilanish va islohotlar tufayli respublikada byudjetning daromad qismining barqaror shakllanishini taminlovchi va iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantiruvchi rejali, xalqaro tamoiylar va me‘yorlarga mos keladigan soliq tizimi yaratildi¹.

¹ Жураев Т. Солиқ сёсатини такомиллаштириш йўлида. «Халқ сўзи» газетаси, 2003 йил 20 сентябрь.

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning soliq tizimi har xil iqtisodiy-siyosiy va ijtimoiy sharoitlardan kelib chiqqan holda shakllanadi. Soliqlarning turlari, tuzilmasi, undirish usuli, stavkasi, ayrim hokimiyat organlarining fiskal darajasi, soliq bazasi soliqlarning amal qilishi, soliq yengilligiga qarab soliq tuzilmasi bir-biridan ajralib turadi.

Oliygozlarda «Xorijiy davlatlar soliq tizimi» fanini o'qitishdan maqsad – talabalarda xorijiy davlatlar, xususan, iqtisodiy rivojlangan unitar va federativ davlat tuzilishiga ega bo'lgan chet davlatlar soliq tizimini o'rgatish, ushbu soliq tizimlaridagi xususiyatlar, o'xshashlik va farqlarni tahlil qilish va uning nazariy hamda amaliy tomonlarini o'rganishdan iboratdir.

Fanni o'qitishning asosiy vazifasi — bozor iqtisodiyoti sharoitida chet davlatlarning soliq tizimi tajribalaridan foydalangan holda soliqlarni hisoblash va byudjetga undirishning yangi yo'l-yo'riqlarini o'rganish bilan birga ulardan foydalana olishni shakllantirishdan iborat.

1.2. «Xorijiy davlatlar soliq tizimi» fanini o'qitish zaruriyati va uning boshqa fanlar bilan munosabati

Soliq tizimini qurish tamoyillari umuman olganda bir xil emas va bu hukumatning u yoki bu iqtisodiy nazariyani qo'llab-quvvatlashiga bog'liq.

Qanday soliq siyosati yuritilayotgani va soliqqa tortish sohasidagi chora-tadbirlar qanchalik samarali ekanligi ko'p jihatdan iqtisodiy islohotlarning xarakteri va dinamikasini belgilaydi. Oqilona tashkil etilgan, yaxshi muvozanatlangan soliq tizimi, bozor iqtisodiyoti taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning hamda shu asosda barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishishning asosiy vositalaridan biridir. Soliq tizimini takomillashtirish va undagi islohotlarni amalga oshirishda tarixiy manbalardan, ilmiy yangiliklardan, shuningdek, rivojlangan davlatlar tajribasidan foydalanish katta ahamiyatga ega.

Soliq — bozorlarda mahsulot sotishdan yoki ishlab chiqarish jarayonidan, tovar sotuvchilardan yoki sotib oluvchilardan, kompaniyalardan, daromad manbalaridan yoki xarajatlardan undirilishi mumkin.

Soliq xo'jalik yoki ular a'zolarining daromadlari, iste'molchilarning xarajatlari, chakana savdo daromadlari, ishbilarmonlik faoliyatining yalpi daromadlari, tadbirkorlikning ammortizatsiya ajratmasi, ish haqi fondi, foyda, ish haqi jamg'armalari, dividendlar chiqarib tashlangandan keyin qoladigan daromadlaridan undiriladi.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda soliqlarning quyidagi asosiy shakllari mavjud.

1. Jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'i.
2. Korporatsiyalar daromad solig'i.
3. Oborot (aylanma) solig'i.
4. Ijtimoiy sug'urta fondlarining badallari.
5. Iste'mol soliqlari.
6. Yig'ilgan boylıklardan soliq (mol-mulk solig'i, meros va hadya solig'i).

Soliqlar shaxsiy va aniq turlarga ajratiladi.

Shaxsiy soliqlar soliq to'lovchining to'lov qobiliyatiga bo'lgan moliyaviy holatini hisobga oladi, aniq soliqlar esa faoliyat yoki tovarlar sotish, mulkka egalik qilish, sotib olish uchun soliqlarga tortiladi va bunda soliq to'lovchining moliyaviy holati hisobga olinmaydi. Jismoniy va yuridik shaxslar aniq soliqni to'lovchilar bo'lishi mumkin. Shaxsiy soliqlarni faqatgina aholining daromadlari hisbidan undiriladi.

Amaliyotda to'g'ri va egri soliqlar bir-birdan farq qiladi. To'g'ri soliqlar jismoniy shaxslar va xo'jalik yurituvchi subyektning daromadlaridan egri soliqlar esa soliq tizimining boshqa a'zolaridan undiriladi. Shu sababli shaxsiy soliqlar to'g'ri soliq hisoblansa, ko'pgina aniq soliqlar egri soliqlar hisoblanadi.

Soliq tizimining asosiy tamoyillari soliqlarning asosiy tizimini ko'rsatadi, jumladan, u soliq subyektlari, obyektlari, manbalari, stavkalari, yengilliklari va soliq yuklarini o'z ichiga olgan holda tashkil topadi.

Soliq solishning obyekti yoki manbasi bo'lib daromadlarning ayrim turlari, tovarlar va xizmatlar hamda orttirilgan boylik yoki mulklar hisoblanadi.

Soliq manbasi milliy daromad bilan o'zaro bog'lanib ketadi.

Bir paytning o'zida daromadlarning ayrim shakllari (ish haqi, foyda, foiz, renta) o'zining alohida xususiyatiga ega, shu sababli, soliq bazasi va soliq manbasi har doim bir-biriga to'g'ri kelmaydi. Soliq birligi soliq obyektiga bog'liq bo'lib, u pul yoki natura shaklida ifodalanadi va soliq obyektining bir bo'lami deb tushuniladi.

Soliq stavkasi qat'iy yoki foizlarda bo'lishi mumkin. Foiz stavkalari proporsional teng yoki o'sib boruvchi tartibda bo'ladi.

Proporsional soliq stavkasi usulida foyda yoki oborotga ega bo'lgan huquqiy va jismoniy shaxslar bir xil proporsiyada soliq to'laydilar. Bu yerda soliq stavkasi qat'iy o'rnatilgan bo'lib, proporsional ravishda olinadi.

Daromad yoki foyda ortib borishi bilan soliq stavkasi ham ortib borishi ko'zda tutilgan bo'lsa, bunday stavkalar progressiv soliq stavkalari deyiladi.

Soliq imtiyozlari tizimi o'zining har xil shakllariga ega bo'lib, milliy fiskal siyosatni e'tiborga olgan holda har bir soliq uchun alohida imtiyoz turlari mavjud bo'ladi.

Soliq okladi, soliq summasi uch xil usulda undiriladi.

1. Manbalardan (daromadni olgunga qadar soliq undirish);
2. Deklaratsiya asosida (soliq daromadini olgandan keyin undiriladi);
3. Kadastr asosida (obyektning daromadlilik darajasiga qarab undiriladi).

Manbadan soliq undirish shaxslarning mehnati yuzasidan va boshqa kam yoki ko'p qat'iy daromadlariga asoslangan.

Deklaratsiya asosida soliq undirish amaliyotda qat'iy bo'lmagan daromadlar yoki manbalarning ko'pligiga asoslangan.

Kadastr asosida soliq undirish yer, hunarmandchilik daromadlariga asoslangan tartibda amalga oshiriladi.

Ayrim turdagi soliqlarning tashkil etilishi, har xil boshqaruv apparatining

darajasiga qarab ikki yoqlama soliqqa tortishning oldini olish maqsadida joriy qilingan.

Rivojlangan mamlakatlarda soliq solish tarkibi quyidagilarga asoslangan.

Ayrim mamlakatlardagi har xil daromadlardan olinadigan soliqlar, ularning iqtisodiyot bilan bog'liqligi jihatidan bir xil emas. Ular o'zgarib turish xususiyatiga ega. Ko'pgina mamlakatlarda daromad solig'i va ijtimoiy sug'urta fondning badallari o'sishi darajasi aniqlangan, lekin shu bilan birga iste'mol solig'ining ulushi o'zgarmagan. 1970 yillarning ikkinchi yarmida is'temol solig'i ulushining o'sishi tendensiyasi paydo bo'ldi.

Iste'mol solig'i va aksiz solig'ining ulushi ko'pgina mamlakatlarda bir xil. Iste'mol solig'ining ahamiyati o'sib borgan, aksiz solig'i esa 1980-yillarda kamaygan. Barcha rivojlangan mamlakatlarda daromad solig'i va ijtimoiy sug'urta badallarining ko'payishi roy berdi. Soliqlarning umum qabul qilingan to'g'ri va egri soliqlarga bo'linishi bir tomondan daromadlarning, ikkinchi tomondan esa xarajatlarning soliqqa tortilishini nazarda tutadi.

To'g'ri soliqlar (daromad solig'i, kompaniyalarning foydasidan soliq, ishchilarning ijtimoiy sug'urta fondlari badallari) va egri soliqlarning (iste'mol solig'i, aksizlar, tadbirkorlikning ijtimoiy sug'urta fondlari badallari) umumiy ko'rinishi quyidagicha aks ettirilgan: to'g'ri soliqlar Germaniya, Kanada, AQSh, Yaponiyada rivojlangan bo'lsa, egri soliqlar Fransiya va Italiyada rivojlangan; Italiya va Germaniyada bu soliqlarning tarkibi bir xil me'yorda; Kanada, Germaniya, Yaponiya va AQShda to'g'ri soliqlarning o'sishi sodir bo'ldi. Italiyada esa egri soliqlarning ulushi ortib borishi namoyon bo'lgan.

Soliqlarning tarkibidagi o'zgarishlar shunga asoslangan-ki, soliqqa tortishda iqtisodning o'sishi va inflyatsiya darajasi to'g'ri daromadlardan soliq undirishga kuchli ta'sir etadi.

Soliqlar muammosining asosi davlat tomonidan milliy daromadning o'sishini ta'minlash maqsadida yangi dasturlarni amalga oshirishdir.

Bu jarayonlarning asosiy yo'nalishlari quyidagicha:

1. Korporatsiya solig'i va kompaniyalarning foydasidan boshqa soliqlar;
2. Ijtimoiy sug'urta fondlariga ishbilarmonlar badallari;
3. Deklaratsiya asosida daromad solig'i;
4. Daromad solig'i va ijtimoiy sug'urta fondlariga badallar.

Kompaniya foydasida soliqlarning rolini, undirish jarayonida quyidagicha xarakterlanadi:

Ularning ulushi bu jarayonda unchalik ko'p emas: AQShda 8-10 foiz, Germaniyada 5 foiz atrofida bo'lib, ularning pasayish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Deklaratsiya asosidagi daromad solig'ining ulushi bu umum jarayonda AQSh va Germaniyada 10-14 foizga to'g'ri keladi.

Mamlakatlar bo'yicha farqlanishiga qarab AQShda bu soliqlar Shtatlar soligi va mahalliy soliqlar jumlasiga kiradi, Germaniyada esa davlat darajasida, shu bilan birga asosiy egri soliq bu aylanma mablag'dan olinadigan soliq hisoblanadi. AQShda bu savdo solig'i shaklida, Germaniyada esa QQS sifatida

shakllangan. Yana shuni ta'kidlab o'tish lozimki, bu tovarlar va xizmatlarni keng doirada qamrab oladi va yuqori stavkalarda undiriladi.

Talabalar soliq sohasida chuqur bilimga ega bo'lmagan turib, Xorijiy davlatlarning soliq tizimini o'rganishi qiyin. Shu sababdan ushbu fanni o'rganishdan oldin talabalar «Soliq nazariyasi», «Iqtisodiy nazariya», «Soliqlar va soliqqa tortish», «Davlat byudjeti», «Soliqlarni bashorat qilish», «Chet el mamlakatlari moliya tizimi», «Moliya» va boshqa fanlar bo'yicha tegishli bilimlarga ega bo'lishlari lozim.

1.3. «Xorijiy davlatlar soliq tizimi» fanining asosi va manbalari

O'tkazilgan tadqiqot ishlariga asosan soliq tizimining ayrim xususiyatlarini aniqlash mumkin: davlatning soliq daromadlarini ko'paytirish yo'llarini izlash; soliq tuzilmasini umumiy iqtisodiy nazariyalarga asoslangan holda tenglik, adolat va soliq solish afzalligidan kelib chiqqan holda tuzish.

Rivojlangan mamlakatlarda daromad solig'i to'lovchilar rezidentlar va norezidentlarga bo'linadi. Daromad solig'i hisoblash bazasi bo'lib soliq to'lovchining yalpi daromadi hisoblanadi (ish haqi, yordam puli, natura shaklida olingan daromad). Daromad solig'ini hisoblashda soliqqa tortiladigan daromad yalpi daromad bilan to'g'ri kelmaydi, shu sababli amal qilayotgan soliq stavkasidagi shkala qo'llaniladi.

Rivojlangan mamlakatlarda yalpi daromaddan soliq chegirmasi soliq yengilligining bir shaklini tashkil qiladi. Davlat tomonidan bolalarga to'lanadigan to'lovlar bo'yicha yengilliklar daromad solig'ining kamayishiga olib keladi. Daromad solig'ining stavkasi o'sib boruvchi tartibda amalga oshiriladi. Oxirgi yillarda soliq stavkalari sezilarli darajada kamaydi.

Masalan: AQShda ikki stavka 15-28 foizgacha, Italiyada yuqori qismi 56 va minimal qismi 11 foizga, Yaponiyada yuqori stavka 60 foizgacha kamaytirilgan.

Rivojlangan mamlakatlarda soliq tizimining yangilanishi ijobiy omillar orqali belgilanadi, bu ishlab chiqarish munosabatlarini shakllantirish va chegaralangan ijtimoiy-iqtisodiy soliqqa tortish jarayonida davlatning aralashuvi zarurligidan kelib chiqadi. Soliq, daromadlarga bo'lgan talab va uni undirish sharoitlari o'rtasida shuningdek, barcha soliq tizimini tashkil etishda o'zaro bog'liqlik mavjud.

Rivojlangan mamlakatlarda doimo bir tamondan davlat xarajatlarini kamaytirib, natijada soliq daromadlariga bo'lgan talabni saqlab qolish, ikkinchi tomondan soliq tizimi afzalligini oshirish yo'llari izlanmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarda davlatning rivojlanishi umumiy soliq muammolari bilan to'qnashadi:

— hozirgi soliq tizimini soliq to'lovchilar va soliq undiruvchilarning tushunishlari qiyin va bu soliqni to'lashdan bosh tortishga olib keladi;

— shaxsiy daromad solig'i to'lashda bir darajada daromad olayotganlarga bir xil darajada soliq solinmasligi adolatsizlik bilan xarakterlanadi;

— kompaniyalarning soliqqa tortilishi ularning investitsiya va qayta qurilish iqtisodiga bog'liq bo'lmay, balki soliqlarga bog'liqdir.

Islohotlar soliqqa tortish bazasini kengaytirishga xizmat qiladi. Bu, masalan soliqqa tortish bazasiga yangi daromad manbalarini qo'shish va soliqqa tortish yengilliklarini bekor qilishda aks etadi. Qator mamlakatlarda, jumladan AQShda ham soliqdan qochish yoki daromadni yashirishga qarshi kurashish maqsadida murakkab qonun ishlab chiqilgan. Natijada shaxsiy daromad solig'i islohotida stavkalarining qayta tashkil etilishi vujudga keladi. Deyarli hamma islohotlar quyi stavkalarni kamaytirishni ko'zda tutadi.

Barcha turdagi manbalarni soliqqa tortishi bo'yicha yagona tartibli rejim kuchga kirgan. Ko'pchilik mamlakatlarda soliq daromad manbasining bog'liqligiga qaratilgan, soliq stavkalari va yengilliklarining turlari daromadning turiga qarab qo'llaniladi.

Kapitalning o'sish daromadlari boshqa daromadlar manbalariga qaraganda imtiyozli ravishda soliqqa tortiladi.

Federal soliqlar AQShdagi umumiy tushumlarning ko'proq qismini ta'minlaydi. Federal soliqlar tizimida daromad solig'i muhim rol o'ynaydi, uning darajasi milliy daromadning kattaligi bilan chambarchas bog'liqdir. Ikkinchi jahon urushigacha korporatsiya foydasidan soliq to'lash byudjet daromadlarining katta qismini tashkil etgan, urush yillarida va urushdan keyingi davrda daromadlarining muhim manbasi aholidan olinadigan daromad solig'i bo'lib qoldi.

Daromad solig'ining katta ulushga ega bo'lishi to'g'ri soliqlarning yuqoriligiga sabab bo'lib, bu hozirgi zamonaviy federal soliq tizimining asosiy bir qismi bo'lib hisoblanadi.

AQShda ushbu to'g'ri soliqlar federal byudjet daromadlarining katta qismini tashkil etadi. Soliq tushumlarida uning ulushi: 1970 yilda — 48,2%, 1980 yilda — 48,7%, 1985 yilda — 46,2%, 1986 yilda — 46,6%, 1987 yilda — 44,2%, 1990 yilda — 45%, 2000 yilda esa — 42%dan oshig'i tashkil qilgan.

Aholidan olinadigan daromad solig'ining soliqqa tortish obyekti mavjud bo'lib, tadbirkorlikdan shaxsiy daromadlar hisoblanadi. Soliq qonunchiligida daromad summalarini hisoblashda aholining daromad solig'iga tortiladigan daromadlarining 3 ta asosiy turi belgilangan: yalpi daromad, sof daromad va soliq solinadigan daromad.

Yalpi daromad — barcha manbalardan olingan umumiy yillik daromad summasi, sof daromad esa yalpi daromaddan ishbilarmonlik xarakteridagi xarajatlar va chegirmalar chiqarib tashlanganidan so'ng qolgan qismidir. Soliq solinadigan daromad esa soliq solinmaydigan minimum va xarajatlar chiqarib tashlanganidan keyingi daromaddir.

Sof daromadlarni aniqlash soliqqa tortiladigan daromadni hisoblash bosqichlari orqali hisoblanadi. Sof daromaddan kelib chiqqan holda soliq bazasining qonunchilikda belgilangan chegirmalari me'yori o'rnatiladi.

AQSh soliq qonunchiligi bo'yicha sof daromad umumiy iqtisodiy kategoriya

sifatida qabul qilingan shaxsiy daromaddan farqlanadi. Tadbirkorlik faoliyati xarajatlariga maxsus kiyim xarajatlari, transport xarajatlari va boshqalar kiradi. Ba'zi daromadlar turi ham to'liq yoki qisman chegiriladi.

Rivojlangan mamlakatlar oldiga qo'yilgan maqsadlardan biri soliqqa tortish darajasini ko'tarish hisoblanadi. Shu bilan birga ayrim mamlakatlarda vaqtincha to'xtatib turish yoki soliqqa tortish darajasini qisqartirish holatlari ham mavjud.

O'zbekistonda ham davlatning iqtisodiyotga aralashuvini kamaytirishga doir izchil siyosat olib borish natijasida har yili soliq yukini kamaytirish choralari amalga oshirilmoqda. Eng avvalo, ular ishlab chiqarishni, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga, aholining real daromadlarini va iste'mol talablarini oshirishga qaratilgan. Shu bilan birga, soliqlar va to'lovlarni bixillastirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu esa soliqqa tortish mexanizmlarining oshkoraligiga, soliqlarni hisoblash va to'lashga oid korxonalar faoliyatini soddalashtirishga, shuningdek, soliq majburiyatlarining bajarilishini samarali nazorat qilishga yordam beradi. Ayni paytda bu hol respublikamizda qo'llaniladigan soliq tizimini xalqaro me'yorlar va andozalarga muvofiqlashtirish zarurati bilan izohlanadi.

Agar dunyo mamlakatlarida qo'llaniladigan soliq yuklarini izohlovchi statistika ma'lumotlariga murojaat etsak shuni ko'rish mumkinki, YIMga nisbatan soliq to'lovlari darajasi turli davlatlarda turlichadir. Bu esa iqtisodiy tartibga solish darajasidagi farqlar, yuritiladigan ijtimoiy-iqtisodiy siyosat yo'nalishi, muayyan mamlakatlarning geopolitik joylashuvi va boshqa omillar bilan izohlanadi. Umuman soliq yuki darajasi bo'yicha dunyo mamlakatlarini 3 guruhga ajratish mumkin:

1. Soliqqa tortishning yuqori darajasi — soliqlar salmog'i YIMning 40 foizidan ortiq (Lyuksemburg, Fransiya);

2. Soliqqa tortishning o'rtacha darajasi — soliqlar salmog'i YIMning 30 foizidan 40 foizigacha (Daniya, Shvetsiya, Avstriya, Germaniya, Buyuk Britaniya);

3. Soliqqa tortishning o'rtachadan pastroq darajasi — soliqlar salmog'i YIMning 30 foizigacha (Xitoy, Hindiston, Misr, Malayziya, Janubiy Koreya);

O'zbekistonda soliq yuki darajasi yildan-yilga muntazam ravishda pasayib bormoqda. Agar 1999 yilda ushbu ko'rsatkich YIMning 38,7 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2002 yilga kelib 33,6 foizga tushdi, 2004 yilda esa YIMning 31,4 foizini tashkil etdi. 2006 yilda soliqqa tortish darajasini YIMga nisbatan 2,5-2,8 foizgacha qisqartirish yoki 28,6 foiziga etkazish rejalashtirilgan.

Qisqacha xulosalar

«Xorijiy davlatlar soliq tizimi» fani rivojlangan xorijiy davlatlar hamda Mustaqil davlatlar hamdo'stligiga a'zo davlatlarning soliq tizimi va ularda olib borilayotgan islohotlarni o'rganish asosida yaratildi. Bunda xorijiy hamda MDHga a'zo davlatlarning soliq tizimida amal qilayotgan soliq stavkalari, foizlar va ko'rsatkichlarning hozirgi holati keltirilgan. Ushbu fanni o'rganish jarayonida rivojlangan xorijiy davlatlarning soliq tizimi to'g'risida tasavvurga ega bo'linadi.

Soliqlar va soliqqa tortish yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalar uchun Respublikamiz soliq tizimi bilan rivojlangan xorijiy davlatlarning soliq tizimini solishtirish imkoniyati yaratiladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. «Xorijiy davlatlar soliq tizimi» fanining maqsadi nimalardan iborat?
2. «Xorijiy davlatlar soliq tizimi» fanining vazifalari nimalardan iborat?
3. «Xorijiy davlatlar soliq tizimi» fanining asosi va manbalari.
4. Hozirgi sharoitda rivojlangan xorijiy davlatlar soliq tajribasining O'zbekistonda qo'llanilishi qay darajada?
5. Rivojlangan xorijiy davlatlar soliq tizimining mohiyati va ahamiyatini tushuntiring?
6. Rivojlangan xorijiy davlatlarda soliqqa tortish tizimining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
7. Respublikamizda soliq islohotlarini amalga oshirishning ustivor vazifalari nimalardan iborat?
8. «Xorijiy davlatlar soliq tizimi» fanini o'qitishning zaruriyati nimada?
9. Soliq islohotlarini amalga oshirishda mamlakatimiz rahbariyati tomonidan qanday ustivor vazifalar qo'yildi?
10. «Xorijiy davlatlar soliq tizimi» fani qanday fanlar bilan bevosita bog'liq?

Asosiy adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Солиқ Кодекси, "Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси нашриёт уйи", -Тошкент, 2005.
2. Ўзбекистон Республикасининг "Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ хизмати тўғрисида"ги қонуни. "Халқ сўзи", 1997 йил, 29 август.
3. Каримов И.А. "Ўзбекистон иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида", Ўзбекистон, 1995.
4. Каримов.И.А. "Ўзбекистон ХХI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Тошкент, "Ўзбекистон", 1997.
5. Azizov O., Sobirova D. "Perfection of tax system of Republic of Uzbekistan in conditions of liberalization of economics" Tashkent State University of Economics, Department of finance and taxes. Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида бюджет-солиқ тизимининг долзарб масалалари. Республика илмий амалий анжумани материаллари. - Т.: 2005. TDIU.
6. <http://www.soliq.uz> . - O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo'mitasi sayti;
7. <http://www.edu.uz>. - O'zbekiston Respublikasi

II BOB FRANSIYA SOLIQ TIZIMI

2.1. Fransiya soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlari

Yevropada sanoati rivojlangan yirik davlatlardan biri Fransiya hisoblanadi. Ushbu davlatdagi mavjud soliqlarni shartli ravishda 3 ta yirik qismga ajratish mumkin: tovar narxiga kiritilgan egri soliqlar yoki iste'mol soliqlari, daromad (foyda) solig'i va shaxsiy mulk solig'i. Fransiya Respublikasi byudjetining asosiy daromad manbai egri soliqlar bo'lib, ularning eng muhimi qo'shilgan qiymat solig'idir. QQS Fransiyada 1954 yildan beri mavjud. Hozirgi kunda 20,6 va 5,5 foizga teng bo'lgan qat'iy va pasaytirilgan QQS stavkalari qo'llaniladi².

Pasaytirilgan soliq stavkalari qishloq xo'jalik mahsulotlari, oziq-ovqat, dori-darmon, tibbiy jihozlar, kitob, yuk va passajir tashish, korxonalar ishchilari ovqatlanishi, madaniy tadbirlar, turizm va mehmonxona xizmatlariga nisbatan qo'llaniladi. QQSga nisbatan Fransiya qonunchiligi bir qator imtiyozlar ham beradi. Asosan soliqqa tortishdan quyidagilar ozod qilinadilar:

- moliyaviy yilda tovar aylanmasi (oboroti) 70000 fransuz frankidan oshmagan kichik korxonalar. Bu holda ushbu korxonalar imtiyozdan keyingi yildan boshlab foydalanish huquqiga ega bo'ladilar;

- eksport bilan bog'liq barcha jarayonlar, eksport bitimlarini amalga oshirayotgan ishlab chiqarish subyektlari;

- bank va moliya faoliyati;

- o'qituvchi va vrachlarning shaxsiy xizmatlari;

- qishloq xo'jaligi va baliqchilik bilan shug'ullanuvchi korxonalar;

- boshqaruv, ijtimoiy, madaniy va sport faoliyatini bajaruvchi davlat korxonalari.

Byudjetning keyingi asosiy daromad manbai bo'lib aksiz soliqlari xizmat qiladi. Fransiyada aksiz osti tovarlar ro'yxati ancha keng. Aksiz soliqlari neft mahsulotlari, elektr energiyasi, kuchli spirtli ichimliklar, pivo, mineral suvlar, tamaki mahsulotlari, yog', don, shakar, gugurt, konditer mahsulotlari, qimmatbaho metallar va zargarlik buyumlari, san'at asarlari, antikvariat, sug'urta va birja operatsiyalari, qimor biznesi, tomoshali tadbirlar, televizion reklamalardan undiriladi.

Iste'mol soliqlariga byudjetning daromad manbai bo'lgan, davlat iqtisodiy siyosatining muhim quroli sanalalgan bojxona boji ham kiradi³.

² «Налоги и налогообложение». 3-е издание под ред. М.Романовского и О.Врублёвской. М. 2002.

³ Алле М. За реформу налоговой системы. Переосмысливая общепризнанные истины /Перевод с французского. Под ред. И.А. Егорова. - М.: ТЕИС, 2001.

2.2. Korporatsiyaning foyda solig'i va jismoniy shaxslar daromadining soliqlarga tortish tartibi

Bevosita soliqlar ichida korporatsiya va jismoniy shaxslarning foyda solig'i asosiy rol o'ynaydi. Korporatsiyaning foyda solig'i tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan va ushbu soliqdan ozod bo'lmagan xususiy va davlat kompaniyalari, assotsiasiyalar va boshqalardan undiriladi. Ushbu soliqni rezidentlardan tashqari norezidentlar ham Fransiyada faoliyat ko'rsatish natijasida olgan foydasi hisobidan to'laydilar. Korporatsiyaning yillik foydasi soliqlarga tortish bazasining asosi bo'lib, hisoblanadi. Bu haqdagi deklaratsiyani har bir korxonaga soliq organlariga hisobot yilidan keyingi yilning birinchi apreliyigacha taqdim etadi. Byudjet bilan to'liq hisob-kitob qilingunga qadar korporatsiya har chorakda bo'nak (avans) to'lovlarini to'lab boradi. Soliqning qat'iy stavkasi 33,33 foizga teng, ammo yer joylari daromadi, qishloq xo'jalik fermalari va qimmatli qog'ozlar uchun qo'llaniladigan pasaytirilgan stavkalar mavjud bo'lib, 10-24 foizgacha oraliqda bo'ladi. Bir qator shartlarga bo'ysungan holda qishloq xo'jalik kooperativlari va investitsion kompaniyalar ushbu soliqdan ozod bo'lishlari mumkin. Bundan tashqari, Fransuz qonunchiligi keyingi 5 yil davomida kompaniya zararini hisobga olgan holda soliqlardan imtiyozlar beradi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i yil davomida jismoniy shaxs tomonidan olingan ish haqi, nafaqa, renta, barcha turdagi tijorat va notijorat faoliyatidan olingan daromadlardan hisoblanadi. Daromad solig'i Fransiyaning nafaqat ichki, balki chet davlatlardagi manbalaridan ham olinadi. Bundan tashqari, qimmatli qog'ozlar, ko'chmas mulk va boshqa mulklarni sotishdan olingan bir martalik daromadlar ham soliqlarga tortiladi. Daromad solig'i stavkasi progressiv xususiyatga ega. Eng yuqori stavka 58 foiz — 246770 fransuz frankidan yuqori daromadlar uchun belgilangan. Fransiya qonunchiligi soliqlarga tortilmaydigan minimal miqdorni (18140 frank), soliqlarga tortiladigan bazadan tegishli chegirmalar hamda nafaqaxo'r nogironlar kabi ijtimoiy jihatdan kam himoyalangan aholi qatlami uchun maxsus chegirmalarni ko'zda tutadi. 1990 yillar boshidan daromad solig'iga qo'shimcha maxsus ijtimoiy ajratmalar kiritilgan. Jismoniy shaxslar-rezidentlar uchun uning belgilangan stavkasi 2,4 foizni tashkil qiladi.

2.3. Fransiyada xususiy mulk solig'i

Fransiyada xususiy mulk (ko'chmas mulk, mol-mulk, qimmatli qog'ozlar) jarayonlaridan olingan daromadni soliqlarga tortish uchun quyidagi maxsus tartiblar qabul qilingan:

- ko'chmas mulk sotuvidan olingan foyda joriy yilning soliqlarga tortiladigan daromadiga qo'shiladi. Soliq stavkasi ko'chmas mulkning sotuvchi ixtiyorida bo'lgan muddatiga bog'liq bo'ladi. Nolinchi stavka egalik muddati 32 yildan oshgan ko'chmas mulklar uchun qo'llaniladi;

- harakatdagi mulk jarayonidan olingan foyda bo'yicha tuzilgan bitim 20 ming frankdan yuqori narxda bo'lgandagina mulklardan soliq olinadi. Ushbu shartga bo'ysungan holda mulk turiga ko'ra 4 va 5 foizli stavkalar qo'llaniladi, 7 foizli stavka turli kategoriyadagi san'at asarlari uchun belgilangan, 7,5 foiz maxsus stavka esa qimmatbaho metallar bitimi uchun belgilangan;

- 1990 yillar boshida belgilangan 307,6 ming frankdan oshadigan qimmatli qog'ozlar jarayonidan olingan foyda 16 foizlik stavka bo'yicha soliqqa tortiladi.

Ish beruvchi tomonidan to'lanadigan ishchilarning mehnat haqi miqdoriga daromad solig'idan tashqari qator yig'imlar ham ta'sir qiladi. Bunda ishchilarning ish haqi fondi soliqqa tortish obyekti bo'ladi. Bu yig'imlarning asosiylariga quyidagilar kiradi:

- ish haqidan olinadigan ijtimoiy soliq. Soliqqa tortish obyekti – ishchilarning majburiy yig'imlarni qo'shgan holda pul va natura ko'rinishidagi yillik ish haqi fondi (IHF). Bu yerda soliq stavkasi progressiv ahamiyatga ega: ishchilarning yillik IHF 35900 frankacha bo'lganda, 4,5 foiz 35901 dan 71700 frankgacha bo'lganda, 8,5 foiz 71700 frankdan yuqori bo'lganda, 13,5 foiz

- kasbga yo'naltirilgan ta'limni rivojlantirish uchun olinadigan soliq. Soliqqa tortish obyekti ishchilarning majburiy yig'imlarni qo'shgan holda pul va natura ko'rinishidagi yillik ish haqi fondi olinadi. Soliq stavkasi 0,5 foiz, ustama 0,1 foiz;

- kasbga tayyorlash uchun yig'iladigan yig'im. Korxonada 10 kishidan ortiq ishchi bo'lganda, mulk egasi ishchilarning uzoq muddatdagi kasbga tayyorgarligini ta'minlashi kerak. Ushbu maqsadlar uchun ishchilarning yillik IHFdan 1,2 foiz miqdorida maxsus soliq olinadi. Agar korxonada vaqtinchalik ishchi kuchidan foydalansa, stavka miqdori ishchilar yillik IHFning 2 foizigacha oshadi. Bundan tashqari, yoshlarni kasbga tayyorlash uchun yillik ish haqi fondidan olinadigan 0,3 foizlik qo'shimcha yig'imlar mavjud;

- uy-joy qurilishi uchun yig'iladigan yig'im. Soliqqa tortish obyekti ishchilarning majburiy yig'imlarni qo'shgan holda pul va natura ko'rinishidagi yillik ish haqi fondi hisoblanadi. Soliq stavkasi 0,65 foiz. Bundan tashqari, korxonada 10-kishidan ortiq ishchi bo'lsa, u ishchilarga uy-joy qurilishini moliyalashtirishda ssuda yoki to'g'ridan-to'g'ri sarmoya kiritish ko'rinishida qatnashishi lozim.

Fransiya davlati byudjetining uchinchi yirik daromad manbai xususiy va mol-mulk (binolar, sanoat va qishloq xo'jalik korxonalari, harakatdagi mulk, fond aktivlari) solig'i hisoblanadi. Xususiy mulk solig'i Fransiyada progressiv xususiyatga ega, ammo chegaraviy miqdor mavjud bo'lib, unga asosan daromad solig'i va xususiy mulk solig'i umumiy daromadning 85 foizidan oshmasligi kerak.

Shuni ta'kidlash kerakki, Fransuz soliq tizimida chet el kompaniyalariga

tegishli binolar uchun diskriminatsion xususiyatga ega bo'lgan soliq qabul qilingan. Bu soliqqa (stavkasi 3 foiz) bosh ofisi Fransiyadan tashqarida joylashgan barcha chet el kompaniyalarining ko'chmas mulklari ham tortiladi. Fransuz kompaniyalari uchun ko'chmas mulkka qo'yilgan eng yuqori soliq stavkasi — 1,5 foiz .

Bundan tashqari, xususiy mulk uchun quyidagi soliqlar mavjud:

- ijaraga berilgan ko'chmas mulkning yillik ijara haqi 12000 frankdan oshganda, ijarachidan ijara uchun 2,5 foiz qat'iy stavka bo'yicha soliq olinadi;

- transport vositalaridan olinadigan soliq — korporatsiyalar foydalanadigan yoki unga tegishli avtomobillardan olinadi (bunga ishlab chiqarilganiga 10 yildan oshgan yoki kompaniyaning faoliyat obyekti bo'lgan avtomobillar kirmaydi). Stavkalar dvigatel quvvatiga qarab belgilanadi;

- avtotransport vositalarining alohida turidan olinadigan soliq — umumiy og'irligi 16 tonnadan oshadigan avtomobillardan olinadi. Stavkalar avtomobil turi va og'irligiga bog'liq bo'lib, har chorakda — 50 frankdan 3600 frankkacha va har kunlik chorak solig'ining 1/25 miqdorida bo'ladi. Chet elda ro'yxatga olingan xalqaro yuk tashuvchi avtomobillardan bu soliq bojxonada olinadi (xalqaro shartnomaga asosan bu soliqdan ozod bo'lganlar bundan istisno);

- ro'yxatga olish solig'i, — tuzilgan bitimlarga asosan hujjatlarni qayd etishda olinadi. Soliq stavkalari bitim turiga ko'ra darajalanadi. Masalan: mulkka egalik huquqi berilganda u 13,4 dan 15,4 foizgacha; kompaniya tashkil etishda — 1 foizni; ishtirok etish hissasi berilganda — 1 foizdan 4,8 foizgacha. Ayrim hollar uchun 500 frank miqdorida qat'iy belgilangan ro'yxatga olish solig'i qo'llaniladi.

2.4. Fransiyadagi mahalliy soliqlar va yig'imlar turlari

Mahalliy soliqqa tortish tizimi ham Fransiyada ancha rivojlangan. Mahalliy byudjetning umumiy hajmi mamalakat byudjetining 60 foizini tashkil etadi. Mahalliy hokimiyat tashkilotlari o'z hududlarida quyidagi qo'shimcha soliq va yig'imlarni kiritishlari mumkin:

- hududlarni tozalash solig'i;
- qurilgan joylar uchun yer solig'i;
- qurilmagan uchastkalar uchun yer soligi;
- uy-joy solig'i;
- kasb solig'i;
- qishloq xo'jalik palatasini ta'minlash boji;
- savdo-sotiq va tovar ishlab chiqaruvchilar palatasini ta'minlash boji;
- hunarmandlar palatasini ta'minlash boji;
- konlarni o'zlashtirish uchun mahalliy yig'imlar;
- elektr yorug'ligini o'rnatish uchun yig'imlar;
- binoni sotish uchun olinadigan soliq;

- avtotransport vositalari boji;
- maydonning solishtirma bandlik chegarasidan oshishidan olinadigan soliq;
- ko'kalamzorlashtirish solig'i.

Mahalliy hokimiyat tashkilotlari byudjet daromadlarini rejalashtirayotganda ularga tegishli bo'lgan soliqlar bo'yicha mustaqil ravishda soliq stavkalarini belgilaydilar, ammo ularning yuqori miqdori markaziy hokimiyat tashkilotlari tomonidan belgilangan yuqori darajadan oshmasligi lozim. Amaliyotda mahalliy byudjetlarning asosiy daromad manbai bo'lib quyidagilar hisoblanadi: qurilgan joylar uchun yer solig'i; qurilmagan joylar uchun yer solig'i; uy-joy solig'i va kasb solig'i. qurilgan joylar uchun yer solig'i tijorat yoki sanoatda foydalanish uchun mo'ljallangan ko'chmas mulk va joylarning qiymatidan olinadi. Soliqqa tortiladigan qismi joy kadastr ijara qiymatining yarmiga teng bo'ladi. Soliq bo'yicha quyidagi imtiyozlar mavjud:

- davlat mulklari;
- shahar atrofida joylashgan va qishloq xo'jaligida foydalanish uchun mo'ljallangan binolar;
- 75 yoshdan oshgan jismoniy shaxslar hamda jamoat jamg'armalaridan olinadigan yoki nogironlik nafaqalari oladigan shaxslarning uy-joylari.

Qurilmagan imorat joylari uchun yer solig'ining soliqqa tortish bazasi qurilmagan imorat joylari kadastr ijara qiymatining 80 foizi hisoblanadi. Davlat mulki bo'lgan joylar ushbu soliq to'lovidan ozod etiladi. Bundan tashqari, qishloq xo'jalik sanoatini rivojlantirish uchun mo'ljallangan joylar va sun'iy o'rmon hududlari bu soliqdan vaqtinchalik ozod etilishi mumkin.

Uy-joy solig'i uy-joy egasi yoki uning ijarachisi tomonidan to'lanadi. Kam ta'minlangan shaxslar asosiy yashash joyi bo'yicha to'liq yoki qisman ozod bo'lishi mumkin.

Kasb solig'i ish haqi bilan taminlanmagan doimiy faoliyat bilan shug'ulanadigan kishilar tomonidan to'lanadi. Ushbu soliq hisobi quyidagi ko'rsatkichlar qiymatiga asosan hisoblanadi:

- soliq to'lovchi tomonidan kasbiy faoliyatini amalga oshirishi uchun ishlatiladigan ko'chmas mulkning ijara qiymati;
- soliq to'lovchining o'z ishchilariga to'laydigan ish haqi foizi (odatda 18 foiz), hamda u olgan daromad (odatda 10 foiz). Bu summalar mahalliy hokimiyat tashkilotlari tomonidan belgilangan soliq stavkasiga ko'paytiriladi.

Bunda qonunchilik ushbu soliqning yuqori chegaraviy miqdorini ko'zda tutadi. Uning hisoblangan summasi ishlab chiqarilgan mahsulotga qo'shilgan qiymatning 3,5 foizidan oshmasligi kerak.

Qisqacha xulosalar

Hozirgi kunda dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlaridagi asosiy soliq turlari va ularni hisoblash mexanizmi Fransiyaning yetakchi iqtisodchi

olimlari tomonidan birinchi marta joriy etilgan. Bunga misol qilib qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i kabi ko‘pchilik davlatlar uchun asosiy byudjet manbai bo‘lgan soliq turlarini ko‘rsatib o‘tish joizdir.

Nazorat va muhukama uchun savollar

1. Fransiya soliq tizimining qanday o‘ziga xos xususiyatlari bor?
2. Fransiyadagi uchta asosiy soliq turiga nimalar kiradi?
3. Fransiyada asosiy soliq manbai sifatida qaysi soliq turi hisoblanadi?
4. Korporatsiyaning foyda solig‘i to‘g‘risida tushuncha bering?
5. Jismoniy shaxslar daromadining soliqqa tortish tartibi qanday amalga oshiriladi?
6. Xususiy mulk solig‘i to‘g‘risida tushuncha bering.
7. Fransiyadagi mahalliy soliqlar va yig‘imlarga qaysi soliq turlari kiradi?
8. Kasb solig‘i hisobi qanday ko‘rsatkichlar qiymatiga asosan hisoblanadi?
9. Soliq imtiyozlari haqida tushuncha bering.
10. Uy-joy solig‘i bo‘yicha qanday imkoniyatlar berilgan?

Asosiy adabiyotlar

1. Алле М. За реформу налоговой системы. Переосмысливая общепризнанные истины /Перевод с французского. Под ред. И.А. Егорова.- М.:ТЕИС, 2001.
2. Тютюрюков Н.Н. Налоговые системы зарубежных стран: Европа и США: Учеб.пос./:М.Дашков и К, 2002.
3. Юткина.Г.Ф. «Налоги и налогообложения».Учебник-М:ИНФРА-М, 2001.
4. «Налоги и налогообложение» 3-е издание под ред. М.Романовского и О.Врублёвской. М.: 2002.
5. <http://www.soliq.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo‘mitasi sayti.

III BOB BELGIYA SOLIQLIQ TIZIMI

3.1. Belgiya soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlari

Egri soliqlar Belgiya davlati uchun ham katta ahamiyatga egadir. Qo'shilgan qiymat solig'ining qat'iy stavkasi 21 foizga teng. Bundan tashqari bu soliqqa uy-joy qurilishi, qishloq xo'jaligi xomashyosi, dori-darmonlar, kitoblar, gazetalar, kommunal xizmatlari, yo'lovchi transporti xizmatlari, mehmonxona biznesi uchun kamaytirilgan stavka belgilangan. Banklar, sug'urta kompaniyalari, yuristlar, o'qituvchilar, vrachlar va kasalxonalar xizmati hamda xalqaro tashish ishlari, samolyot va kemalarning yetkazib berish ishlari QQS dan ozod qilingan⁴.

Aksiz solig'i Belgiyada neft mahsulotlari, elektr energiya, tamaki mahsulotlari, spirtli ichimliklar, vino, piva, alkogolsiz ichimliklar, qahva hamda tashqi reklamadan va qimor o'yinlaridan olinadi.

Xususiy mulkdan (transport vositalari va ko'chmas mulk) olinadigan bir guruh soliqlar ham mavjud. Bulardan biri xususiy mulkning bir egasidan ikkinchisiga o'tganda olinadi. Masalan, meros va hadya solig'i, ro'yxatga olish solig'i kabilar va boshqalar. Avtotransport vositasiga ega bo'lgan barcha fuqarolardan mahalliy avtotransport vositalari solig'i olinadi.

Meros va hadya solig'i to'g'ridan-to'g'ri merosxo'rlar uchun 3 foizdan 30 foizgacha, boshqa merosxo'r toifalari uchun 20 foizdan 80 foiz oralig'ida stavkalari bo'ladi.

Ro'yxatga olish solig'i yer va imoratlarni ijaraga olish yoki sotish hujjatlarni rasmiylashtirishda olinadi. Soliqning qat'iy stavkasi 12,5 foizga teng. Uncha katta bo'lmagan yer-joylar va imoratlar uchun imtiyozlar ko'zda tutilgan (sotish vaqtidagi yig'im stavkasi 6 foiz, ijara vaqtida esa 1000 belgiya franki yoki bitim qiymatining 0,2 foizi).

Transport vositalarini ro'yxatga olish solig'i avtomobillar, yaxtalar, samolyotlar va boshqa transport vositalari davlat ro'yxatiga olinayotgan paytda undiriladi; soliq stavkasi transport vositasi turiga va ishlab chiqarilgan sanasiga bog'liq bo'ladi. Masalan, avtomobillar uchun soliq summasi 2,5 mingdan 100 minggacha frankni tashkil etadi.

Avtotransport vositalaridan olinadigan mahalliy soliq barcha avtomobil egalaridan olinadi. Undan tushadigan tushum umumiy magistral yo'llarni ta'mirlashga sarflanadi. Soliqni hisoblash dvigatel quvvatiga (avtomobillar uchun) yoki yuk ko'tarish quvvatiga (yuk transportlari) asosan amalga oshiriladi. Belgiya qonunchiligiga asosan dvigatel quvvati 20 ot kuchidan yuqori bo'lgan yengil avtomobillar uchun soliq summasi 48100 frank bo'lib, keyingi har bir ot kuchiga 2600 frank qo'shilgan holda hisoblanadi; yuk avtomobillari uchun turiga qarab

⁴ «Налоги и налогообложение» 3-е издание под ред. М.Романовского и О.Врублёвской. М.: 2002.

har bir 100 kilogramm yuk ko'tarish qobiliyatidan 150 dan 346 frankkacha (eng kam stavka 854 frank) hisoblanadi.

3.2. Daromad soliqlari. Korporatsiya foyda solig'ining o'ziga xos tomonlari

Soliqlarning keyingi guruhi daromad soliqlaridir. Jismoniy shaxslardan olinadigan davlat daromad solig'i rezidentlardan (Belgiyada va chet elda olingan daromaddan) tashqari nerezidentlardan (Belgiyada olingan daromaddan) ham olinadi.

Soliqlar mulkdan, qimmatli qog'ozlardan va boshqa manbalardan tushgan tushumdan hamda ish haqidan (ijtimoiy xususiyatga ega bo'lgan imtiyoz va xarajatlar summasi chegirilgan holda) undiriladi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i progressiv xususiyatga ega bo'lib, daromad hajmiga bog'liq holda o'zgaradi. 25 foizlik minimal stavka 253 ming frank yillik daromad summasiga 55 foizlik maksimal stavka esa 2420 ming frankdan oshgan daromadga nisbatan qo'llaniladi. Davlat daromad solig'idan tashqari ushbu soliq bazasidan mintaqaviy daromad solig'i ham undiriladi. Uning soliq stavkasi umummilliy soliq stavkasining 6-10 foizni tashkil qiladi xususan, 3 foizga teng bo'lgan krizis badali undiriladi⁴.

Belgiya daromad soliq tizimi amaliyotida oila daromadlarini soliqqa tortish usuli qo'llanilmoqda, bunda er va xotin daromadlari jami qo'shilgan holda soliqqa tortiladi. Bu soliq bo'yicha qonunchilikda ikkita imtiyoz ko'zda tutilgan:

- oilaning ikkala a'zosi ham kasbiy faoliyatdan daromad olsa (kam daromad olgan oila a'zosining daromadi alohida soliqqa tortiladi);
- oila a'zolarining faqat bittasi kasbiy daromad olsa, uning daromadining 30 foizi soliqqa tortiladi, xolos (297000 frank atrofida).

1-jadval

Korporatsiyalarning foyda solig'i stavkalari

№	Kompaniyalarning foyda miqdorlari, BEF (Belgiya franki)	Stavka, %
1	1 mln. BEF gacha	28
2	1 mln. BEF dan 3,6 mln. BEF	36
3	3,6 mln. BEF dan 13 mln. BEF	41
4	13 mln. BEF dan yuqori	39

Korporatsiyalarning foyda solig'i Belgiya qonunchiligiga asosan barcha yuridik shaxslardan, boshqaruv tashkilotlariga ega bo'lgan, mamlakat hududida joylashgan kompaniya va tashkilotlardan olinadi. Kompaniyalar ishlab chiqarish va ishlab chiqarilgan mahsulotni sotish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni soliqqa tortiladigan daromaddan chegirish huquqiga egadirlar. Uning qat'iy soliq stavkasi 39 foizga teng bo'lib, bir qator boshqa stavkalar ham ko'zda tutilgan.

⁴ «Налоги и налогообложение» 3-е издание под ред. М.Романовского и О.Врублёвской. -М.:2002.

Qisqacha xulosalar

Belgiyadagi korporatsiya va jismoniy shaxslar foydasini soliqqa tortishning ayrim asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat ekan:

- agarda foyda chet eldan kiritilgan va foyda olingan mamlakatda soliqqa tortilgan bo'lsa, korporatsiya foyda solig'i 25 foizga kamayadi;

- norezidentlardan olinadigan soliq norezident jismoniy shaxslarning daromadidan undiriladi (daromad solig'i stavkasiga nisbatan 6 foiz qo'shimcha ustama bilan);

- Belgiyada doimiy vakilligi bo'lmagan yuridik shaxslar, chet el hukumatlarining tashkilotlari va boshqa toifadagi norezidentlarning foydasi 43 foiz soliq stavkasi bilan soliqqa tortiladi;

- kompaniya tomonidan to'langan vositachilik haqi, mukofot va gonorarlar (agar ularning oluvchilari aniqlik bo'lsa) soliqqa tortish maqsadida tannarxga qo'shiladi. Pul mablag'larini oluvchilarining nomi sir tutilgan takdirda ushbu xarajatlar chiqimga qo'shib, maxsus 200 foizlik soliq stavkasi bilan soliqqa tortiladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Belgiya soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Meros va hadya solig'i to'g'risida tushuncha bering.
3. Ro'yxatga olish solig'i qaysi holatlarda olinadi?
4. Avtotransport vositalari egalari olinadigan soliq qanday parametrlarga asosan hisoblanadi?
5. Belgiyada aksiz solig'i qaysi mahsulot turlarida mavjud?
6. Xususiy mulkdan qanday soliq turlari undiriladi?
7. Daromad solig'i qanday undiriladi?
8. Korporatsiya foyda solig'ining qanday stavkalari mavjud?
9. Belgiyada norezident shaxslarning foydasi qanday stavkada soliqqa tortiladi?
10. Fransiya va Belgiya soliq tizimidagi o'xshashlik va farqlar nimalardan iborat?

Asosiy adabiyotlar

1. «Налоговые системы зарубежных стран»: Учебник для вузов под ред. проф. В.Г.Нязова, проф. Д.Г.Черника – 2-е издание. Переработан.- М: «Закон и право», ЮНИТИ, 1997.

2. «Налоги и налогообложение» 3-е издание под ред. М.Романовского и О.Врублёвской. М. 2002.

3. www.трасеса.орг

4. <http://www.google.ru> . - Rossiya Federatsiyasi qidiruv sayti;

5. <http://www.finansiy.ru> – «Финансы» jurnalining sayti;

IV BOB YAPONIYA SOLIQ TIZIMI

4.1. Yaponiya soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlari

Chet el soliq qonunchiligini o'rganuvchilar uchun Yaponiya soliq tizimi alohida qiziqish kasb etadi. Yaponiyada barcha soliq daromadlarining 64% dan ortig'ini hukumatning moliyaviy qudratini ifodalovchi federal soliqlar tashkil etadi. Yevropa mamlakatlaridan farqli o'laroq, Yaponiya davlatida daromadning ko'proq qismini daromad soliqlari – korporatsiyalarning foyda solig'i va jismoniy shaxslarning daromad soliqlari tashkil qiladi⁶.

Korporatsiyalarning foyda solig'i Yaponiyada milliy, prefektura va munitsipalitet byudjetlar hisobiga kelib tushadi. Soliqning milliy stavkasi 33,48%ini, prefektura solig'i milliy soliqning 5% ini, munitsipalitet solig'i esa - milliy soliq stavkasining 12,3%ini tashkil etadi. Shunday qilib, ushbu soliq bo'yicha olingan soliqlarning umumiy hajmi korporatsiya foydasining qariyb 40%ini tashkil qiladi. Yaponiyada kichik biznes uchun ushbu soliqning imtiyozli stavkalari ham ko'zda tutilgan. Bu soliq bo'yicha soliqqa tortiladigan baza bo'lib, xalqaro buxgalteriya hisobi qoidalariga asosan aniqlanadigan korporatsiya foydasi hisoblanadi. Oxirgi yillar davomida korporatsiyalar foydasi solig'idan tushadigan tushum hajmi, milliy byudjet umumiy daromad hajmining, ya'ni barcha tushumlarining chorak qismini tashkil etadi.

Turli yillar davomida byudjet daromad hajmining 35 foizdan 42 foizgacha bo'lgan ulushini jismoniy shaxslardan olinadigan soliq tashkil etgan. Jismoniy shaxslarning daromad solig'i Yaponiya davlat byudjeti uchun katta ahamiyatga ega.

1-jadval

Yaponiyada qabul qilingan jismoniy shaxslar daromad solig'i stavkalari.

Soliqqa tortiladigan daromad, mln. iyen	Soliq stavkasi, %			
	Milliy	Prefektura	Munitsipalitet	Jami
1,6 dan kam	10	2	3	15
1,6-3,0	10	2	8	20
3,0-5,5	20	2	8	30
5,5-6,0	20	4	11	35
6,0-10,0	30	4	11	45
10,0-20,0	40	4	11	55
20,0 dan yuqori	50	4	12	76

⁶ «Налоги и налогообложение» 3-е издание под ред. М.Романовского и О.Врублёвской. М.:2002.

Izoh: Soliqqa tortiladigan summalardan olinadigan chegirma darajalari, turli soliq imtiyozlari tufayli, barcha guruhlar uchun ko'plab belgilari bilan farqlanadi. Shu sababli guruhlar bo'yicha soliq stavkasi va soliqqa tortiladigan daromad jadvalda ko'rsatilganiga to'g'ri kelishi shart emas.

Daromad solig'i ish haqi, dehqonlar va erkin kasb egalari daromadlari, ko'chmas mulkdan kelgan daromad (ijaraga berish) hamda dividendlar, foizlar, nafaqa va boshqalardan olinadi. Soliqqa tortiladigan daromadlar Yaponiyada 10 toifaga bo'linadi:

1. Pul omonatlari bo'yicha foizlar.
2. Dividendlar.
3. Ko'chmas mulkdan olingan daromad.
4. Tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromad.
5. Ish haqi.
6. Pensiya va nafaqalar.
7. Bir martalik daromadlar.
8. Har tomonlama kelgan aralash daromadlar.
9. Kapitaldan olinadigan daromad.
10. Bonuslar.

Bularning ko'pchiligi (foiz va dividendlardan tashqari) soliq to'lashdan ozod etilgan yoki ularga soliq imtiyozlari belgilangan. Bundan tashqari, daromadining kam- ko'pligiga qaramasdan, har bir Yaponiya fuqarosi yashash solig'ini (bir yilda 3200 ien) to'lashi shart. Yaponiya amaliyotiga ko'ra oddiy yapon soliq to'lovchisi me'yoridan ortiq soliq yukini ko'tarmayaptimi, degan savol tugiladi. Ammo shuni ham inobatga olish kerakki, jismoniy shaxslarni soliqqa tortishda katta imtiyozlar ko'zda tutiladi.

4.2. Jismoniy shaxslarning daromad solig'idagi imtiyozlar

O'rta darajadagi soliq to'lovchi foydalanadigan asosiy soliq imtiyozlari «bazaviy imtiyoz»lar (soliq to'lovchi daromadining soliqqa tortilmaydigan minimal qiymati 350000 iyenga teng) va xotin yoki er yoki ularning qaramog'ida bo'lgan barcha oila a'zolari uchun beriladigan xuddi shunday imtiyozlardan iborat. Bundan tashqari, quyidagi daromad turlari: ish haqi, nafaqa, ijtimoiy sug'urta kabi daromad turlari ham maxsus soliq ozodliklariga ega. Yaponiya Moliya vazirligi har bir soliq to'lovchi uchun soliqqa tortiladigan bazani hisoblashda 5 ta imtiyoz va ozodliklarni taqdim etadi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining eng kam miqdorini hisoblash tizimi 2-jadvalda berilgan.

Daromad solig'ini hisoblash uchun, soliq to'lovchining turli manbalardan olgan daromadlari qo'shiladi va so'ngra daromadning umumiy summasidan turli chegirmalar (ijtimoiy sug'urta badallari, hayotni sug'urta qilish va nafaqa fondi, tibbiy xizmatga ketadigan xarajatlar hamda nogironlar, qariyalar, bevalar uchun maxsus chegirmalar) inobatga olingan holda soliqqa tortilmaydigan eng

kam miqdor chegirib qolinadi. Buning natijasida Yaponiyada 4 kishidan iborat bo'lgan oila uchun soliqa tortilmaydigan eng kam miqdor qiymati AQSh, Germaniya, Angliya, Fransiya kabi mamlakatlarga nisbatan ancha yuqoridir⁷.

2-jadval

Yaponiyada jismoniy shaxslardan daromad solig'i olishning eng kam miqdorini hisoblash tartibi

Soliq to'lovchi	Milliy byudjet	Mahalliy byudjet
Bitta odam uchun	1075 ming iyen	1032 ming iyen
Er-xotin	1928 ming iyen	1738 ming iyen
3 ta a'zosi bo'lgan oila uchun	2484 ming iyen	2230 ming iyen
4 ta a'zosi bo'lgan oila uchun	3198 ming iyen	2801 ming iyen

Aniq va xususiy soliqlardan ozod etishdan tashqari, ayrim muhim sabablarga ko'ra, turli manbalardan olingan va soliqa tortiladigan daromadlarga nisbatan ham bir qator maxsus imtiyozlar mavjud:

- aholining turli qatlamlari daromadlarini to'g'ri soliqa tortish maqsadida soliq to'lovchining soliqa tortiladigan daromadlarini kamaytiradigan maxsus chegirma kiritilgan. Bu chegirma o'z mehnatini sotish yo'li bilan daromad oladigan yollangan ishchi uchungina qo'llaniladi. Chegirma miqdori maxsus aniqlanadigan shaxsiy xarajatlari (personal expenses) miqdoriga teng. Bu chegirmani kiritishdan maqsad, bir tomondan, yollanma mehnat kishilarini, ikkinchi tomondan esa tadbirkorlarni teng soliqa tortishga erishishdir. Tadbirkorlar o'zlarining shaxsiy xarajatlarining bir qismini «biznes xarajatlari hisobiga», boshqacha aytganda, tannarxga yozib qo'yadi va natijada undan soliq olinmaydi. Ushbu chegirma kiritilgunga qadar yollanma mehnat shaxslari bundan mahrum edilar (bu esa Yaponiya soliq boshqarmasi nuqtai-nazaridan soliqa tortishning adolat mezonlariga to'g'ri kelmaydi). Shu sababli Yaponiya hukumati va soliq boshqarmasi tadqiqotlar o'tkazib, «adolatsizlik»ga barham berish uchun yollanma mehnatdan daromad oladigan shaxslarning soliq manbai 28,6 %ga kamaytirilishi kerakligini aniqladi. Bu foiz Yaponiyada qonuniylashtirilgan.

- Bir qator maxsus yo'riqnomalar soliqa tortish maqsadlari uchun tijoratdan kelgan daromadlarni ham taqsimlashga imkon berdi. Tushgan foydadan barcha zarur xarajatlar olib tashlangach, qolgan daromad soliqa tortish obyekti bo'lib hisoblanadi. Soliq deklaratsiyasini to'ldirayotgan soliq to'lovchilariga soliqa tortiladigan daromaddan soliq deklaratsiyasini tayyorlash uchun ketgan 100.000 iyen miqdoridan katta bo'lmagan qiymatni olib tashlashga ruxsat berilgan. Hozirda bu miqdor 350.000 iyenni tashkil qiladi.

⁷ Тихотская И.С. «Налоговая система Японии»/М.:РАН, Институт Востоковедения, 1995 г.

- Yaponiyada bir xil yillik daromadga ega bo'lgan oila a'zolari (er-xotin), bir yoki ikki kishi ishlashidan qat'iy nazar, turli xil daromad solig'i to'laydilar. Zamonaviy Yaponiya soliq tizimi er-xotinning har ikkalasi bir xil daromad olib ishlaydigan oilalarni qo'llab-quvvatlaydi. Shuning uchun faqat bir kishi ishlaydigan oilalar og'ir soliq yukini to'lashga majburdirlar. Jadvalda bir kishi ishlaydigan va ikki kishi ishlaydigan oilalar to'laydigan soliq miqdori ko'rsatilgan.

3-jadval


Oilada bir va ikki kishi ishlaydiganlar tomonidan to'lanadigan soliq miqdorlari

Daromad shkalasi, mln. iyen	Bir kishi ishlaydigan oila		Ikki kishi ishlab, bir xil daromad oladigan oila	
	Soliq summasi, iyen	Soliq yuki darajasi,%	Soliq summasi, iyen	Soliq yuki darajasi,%
3	0	0	0	0
4	57500	1,4	57500	1,4
5	130500	2,6	130500	2,6
8	469000	5,9	384500	4,8
10	821000	8,2	560500	5,6
20	4282000	21,4	2836500	14,2
30	5577500	28,6	6182000	20,6
50	18077500	36,2	14177500	28,4

4.3.Yuridik va jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i. Meros va hadya soliqlari.

Yuridik va jismoniy shaxslar mol-mulk solig'ini mulk qiymatining 1,4%ini tashkil qiladigan yagona stavka bo'yicha to'laydilar. Yaponiyada mulkka egalik huquqining bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o'tish jarayonini soliqqa tortishga katta e'tibor beriladi. Mulkn boshqa shaxsga egalikka berish, meros, sovg'alar hamma vaqt soliqqa tortiluvchi obyektlar bo'lib kelgan. Topshiriladigan xususiy mulkni soliqqa tortishning ikki asosiy shakli mavjud: sovg'a va vasiyatnoma. Bunga mos ravishda meros solig'i va sovg'a solig'i mavjud. Quyidagi chizmada merosdan soliq olish ketma-ketligi ko'rsatilgan.

Farzand, ota-ona, aka-uka yoki opa-singil bo'lmagan merosxo'rlar uchun meros solig'i stavkasi qo'shimcha 20%ga oshadi, umumiy soliq stavkasi esa ushbu qo'shimchalar qo'shilgan holda merosxo'rning 75 % haqiqiy ulushidan oshmasligi kerak.



I-rasm. Meros bo'yicha soliqqa tortish tartibi.

Qisqacha xulosalar

Yaponiya davlat byudjeti daromadlarining 55 foizini soliqlar va yig'imglar tashkil etadi, xolos. Byudjetning qolgan qismi esa asosan davlat tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni korxon va aholiga sotishdan tushum evaziga to'ldiriladi. E"tiborga loyiq tomoni shuki, Yaponiyada jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan daromad

solig'ini hisoblashda jami oila daromadi inobatga olingan holda soliqqa tortiladi va bunda salmoqli imtiyozlar beriladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Yaponiya soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Yaponiyadagi soliqqa tortiladigan daromad kategoriyalari to'g'risida nimalarni bilasiz?
3. Yapon fuqarosi qancha miqdorda yashash solig'ini to'laydi?
4. Jismoniy shaxslarning daromad solig'ini hisoblashda qanday imtiyozlar berilgan?
5. Oila daromadidan olinadigan soliq miqdori qanday?
6. Meros va hadya soliqlari to'g'risida tushuncha bering.
7. Soliqqa tortiladigan daromadlar necha toifaga bo'linadi?
8. Yuridik va jismoniy shaxslar qanday stavkada mol-mulk solig'i to'laydilar?
9. Meros va hadya soliqlari haqida tushuncha bering.
10. Soliqlar va yig'imglar Yaponiya davlat byudjeti daromadlarining necha foizini tashkil etadi?

Asosiy adabiyotlar

1. «Налоги и налогообложение» 3-е издание под ред. М. Романовского и О. Врублёвской. Москва. 2002.
2. Мингбоева Х. «Солиқ тизимини такомиллаштиришнинг баъзи масалалари (Япония тажрибаси мисолида)», «Япония ривожланиш тажрибаси —Узбекистонда қўллаш истиқболлари» семинар материаллари.Т., Жайка, 2005.
3. Тихотская И.С. «Налоговая система Японии»/М.:РАН, Институт Востоковедения, 1995.
4. Тютюрюков Н.Н. Налоговые системы зарубежных стран: Европа и США: учеб. пос./-М. Дашков и К, 2002.
5. Ходов Л.Г., Попов В.И. Подходящее налогообложение физических лиц (зарубежный опыт, российские проблемы): учебное пособие - М.: ТЕИС, 2004.
6. Ходов П.Г. Налоги и налогообложение экономики: Учебное пособие. - М.: ТЕИС, 2003.
7. <http://www.edu.uz> - O'zbekiston Respublikasi
8. <http://www.finansiy.ru> - «Финансы» jurnalining sayti.

V BOB XITOIY XALQ RESPUBLIKASI SOLIQ TIZIMI

5.1. Xitoy Xalq Respublikasida soliqqa tortish sohasidagi tashkilotning vakolati va uning vazifalari

Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) davlat soliq ma'muriyati butun Xitoy hududida soliqqa tortish sohasi boshqaruvining vakolatli tashkiloti hisoblanadi. U soliqqa oid qonun loyihalarini ishlab chiqadi va viloyatlar darajasida soliqlarni yig'ish rejalarini belgilaydi. XXR moliya vazirligi ham vaqti-vaqti bilan soliqqa tortish masalalari bo'yicha farmoyishlar chiqaradi. Biroq mahalliy darajada soliqlarni yig'ish soliq ma'muriyatining vakolatiga kiradi. Ayni paytda davlat soliq ma'muriyati va moliya vazirligi stavkani kamaytirish, boshqa soliq imtiyozlari va istisnolar taqdim etish kabi masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilish huquqiga ega⁸.

1994 yilda Xitoy soliq tizimida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Hozir XXR dagi barcha soliqlar uch guruhga bo'linadi: markaziy soliqlar, qo'shma soliqlar, mahalliy soliqlar:

- markaziy soliqlar bojxona bojlari, iste'mol solig'i, bojxona undiradigan QQS, shuningdek, banklar, moliyaviy tashkilotlar, davlat korxonalari va xorijiy savdo korporatsiyalaridan xo'jalik faoliyati uchun undiriladigan biznes soliqlarini o'z ichiga oladi;

- qo'shma soliqlar QQS, tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun soliq, qimmatli qog'ozlarga solinadigan soliq hamda boshqa bank va tashkilotlardan undiriladigan biznes soliqlari birlashtiradi;

- mahalliy soliqlar korxonalar foydasiga solinadigan soliq, boshqa manbalardan undiriladigan biznes solig'i, ko'chmas mulkka solinadigan soliq, jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'i, tamg'a yigimi, meros uchun soliq, yer qiymatini oshirganlik uchun soliq va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Davlat soliq boshqarmalari Davlat soliq ma'muriyati nazorati ostida. Mahalliy soliq boshqarmalari esa mahalliy hokimiyat tashkilotlari hisoblanadi. Ushbu tuzilmalar xo'jalik faoliyatini yuritishga litsenziya olgan kundan boshlab 30 kun ichida soliq tashkilotlarida ro'yxatdan o'tishi kerak bo'lgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar to'laydigan barcha soliqlar bilan shug'ullanadi. Ro'yxatdan o'tkazish chog'ida muddatni keyinchalik uzaytirish huquqi bilan 12 oy muddatga ro'yxatdan o'tkazganlik to'g'risida guvohnoma beriladi.

Xo'jalik faoliyati uchun soliq (biznes solig'i) quyidagi hollarda qo'llanadi:

- soliq solinadigan xizmatlar ko'rsatish;
- nomoddiy aktivlar sotish;
- ko'chmas mulkni sotish.

U tovar aylanmasiga asosanib hisoblanadi. Unga doir hisobotlarni topshirish va to'lash davriyligi har oyda amalga oshiriladi. Faoliyat turlariga ko'ra soliqning quyidagi stavkalari belgilangan:

- transport xizmati - 3%;
- qurilish, muhandislik ishlari - 3%;

⁸ Колесов В.П. и Осмова М.Н. «Мировая экономика. Экономика зарубежных стран». Учебник М-Флинта 2000.

- moliyaviy faoliyat - 8%;
- pochta va telekamunikatsiyalar - 3%;
- madaniyat va sport - 3%;
- hordiq chiqarish sanoati - 5-20% (barlar, restoranlar - 5%);
- nomoddiy aktivlar xarid qilish - 5%;
- ko'chmas mulkni sotish - 5%.

5.2. Jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'i. QQS.

Jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'i stavkasi ish haqining hajmiga bog'liq holda progressiv sanaladi. Mazkur soliqlikni hisoblab chiqarish, unga doir hisobot topshirish va to'lov har oyda amalga oshiriladi. Ayrim mintaqaviy tafovutlar, ba'zi hollarda esa hatto soliq tashkilotlari bilan munozaraga kelish ehtimoli mavjud. Biroq umuman olganda Xitoyda ishlovchi xorijliklar uchun quyidagi stavkalar qo'llaniladi:

- 4000 XXR yuani miqdoridagi oylik daromad soliqqa tortilmaydi;
- 4000 yuandan 4500 yuangacha - 5%;
- 4501 yuandan - 6000 yuangacha - 10%;
- 6001 yuandan - 9000 yuangacha - 15%;
- 9001 yuandan - 24000 yuangacha - 20%;
- 24001 yuandan - 44000 yuangacha - 25%;
- 44001 yuandan - 64000 yuangacha - 30%;
- 64001 yuandan - 84000 yuangacha - 35%;
- 84001 yuandan - 104000 yuangacha - 40%;
- 104001 yuan va undan yuqori - 45%.

Qo'shilgan qiymat solig'i 17 foiz miqdorida hisoblanadi va tovarlar sotilganda hamda ayrim xizmatlar ko'rsatilganda undiriladi. Oqibatda soliq yakuniy iste'molchi tomonidan to'lansa ham, u ishlab chiqarish va sotishning barcha bosqichlarida undiriladi. QQS to'lash bo'yicha majburiyat yuk xati taqdim etilishi bilan darhol vujudga keladi (u to'langandan keyin emas). Bu ehtimoliy umidsiz qarzga ham qaramay QQS undirilish lozimligini anglatadi.

Ayrim erkin savdo zonalarida ulardan tashqarida sotiladigan tovarlar uchun QQSning bir qismini qoplaydi. Biroq bunday amaliyot markaziy hukumat tomonidan ijobiy qarshi olinmaydi. Shu sababli yaqin orada mazkur imtiyozni bekor qilish ehtimoli mavjud.

QQSga qo'shimcha ravishda ayrim maxsus iste'mol tovarlari: sigaretalar, alkogolli ichimliklar, kosmetika, zargarlik buyumlari, benzin, avtomobillar va boshqalar iste'mol solig'iga tortiladi. U barcha korxonalar va huquqiy shaxslar tomonidan yuqorida ko'rsatilgan tovarlar import qilinayotganida, ishlab chiqarilayotganida va qayta ishlov berilayotganida to'lanishi lozim. Ushbu soliq biznes jarayonida faqat bir marta undiriladi va yakuniy iste'molchi tomonidan to'lanadi. Soliq stavkasi iste'mol toifalariga qarab 3 foizdan 50 foizgacha bo'lishi mumkin.

5.3. Xorijiy kompaniyalar vakolatxonalarini soliqqa tortish mexanizmi

Korxonalar foydasiga solinadigan soliq Xitoyda daromad oluvchi barcha xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar va xorijiy kompaniyalarga nisbatan qo'llaniladi. Uning miqdori har yili yil tugashidan keyin besh oy ichida belgilanadi. Choraklik

to'lovlar choraklik hisobotlar taqdim etilishi chog'ida amalga oshiriladi. Belgilangan soliq miqdorida ortiq to'langan har qanday summa qaytariladi yoki kelgusi davrlar hisobiga o'tkaziladi. Soliq tannarx, xarajat va zararlar ayirilgan holda yil davomida olingan yalpi foydaga asoslanib yuanelarda hisob-kitob qilinadi. Xitoyda ro'yxatdan o'tkazilgan korxonalar uchun soliq stavkasi 20 foizni, ro'yxatdan o'tmaganlar uchun 30 foizni tashkil etadi (bu soliqlarni ko'pincha «ushlab qolinadigan soliq» deb ataydilar), buxgalteriya hisoboti Xitoyda mavjud bo'lmaganda esa u shartnomaning umumiy summasisiga asoslanib hisob-kitob qilinadi. Xitoyning ayrim tumanlarida ta'sis etilgan va muayyan faoliyat bilan shug'ullanadigan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalariga nisbatan qo'llaniladigan 15 foiz va 24 foizlik stavkalar ham mavjud. Mazkur soliq bo'yicha 5 yilgacha muddatga soliq ta'tillari berilishi mumkin. Xitoy qonunchiligi bo'yicha faoliyat yuritmayotgan, biroq bu yerda, masalan, sarmoya uchun foizlar, ijara to'lovlari, mualliflik gonorarlari va boshqalarni oluvchi xorijiy korxonalardan ushbu daromadlarning 20 foizi miqdorida soliqlar undiriladi (ayrim mintaqaviy tafovutlar va faoliyat turlari bo'yicha farqlar mavjud). Bu hol Xitoy korxonasisiga taqdim etiladigan to'lovnomada hisobga olinishi va belgilanishi shart (xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar ham shular qatoriga kiradi). U yoki bu soliqni ushlab qolish va uni hukumatga topshirish uchun shunday qilinadi. Ya'ni, Xitoy korxonasi bu holatda hukumatning soliqlarni yig'ish bo'yicha vakili sifatida maydonga chiqadi. Bunday xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar ehtiyotkor bo'lmog'i lozim: masalan, siz o'z tovarlaringiz (ishlar, xizmatlar) qiymatiga tegishli shartnoma yoki kelishuvga ko'ra xorijiy korxonaga to'lanishi kerak bo'lgan foizlar, ijara yoki mualliflik to'lovlarini qo'shsangiz, unda siz o'sha soliq undirilishi lozim bo'lgan xorijiy qabul qilib oluvchiga mablag' to'lovchi sifatida qaralasis. Naatijada, bu mablag'lar xorijiy korxonaga amalda to'langan yoki to'lanmaganidan qat'iy nazar, muayyan vaqt davomida ushlangan soliqni to'lash majburiyati yuzuga keladi⁹.

Xorijiy kompaniyalar vakolatxonalarini tomonidan yo'l qo'yiladigan va eng ko'p uchraydigan ikki xato — bu barcha zarur hujjatlar ro'yxatdan o'tish guvoynomasi qo'lga olingan kundan boshlab rasmiylashtirilgan hisoblanadi, deya o'ylash va ungacha savdo hamda boshqa xo'jalik faoliyati bilan shug'ullana olmasligi sababli soliqlarni to'lashi ham shart emas, deya etiborsizlik qilish bilan bog'liq.

Vakolatxona ro'yxatdan o'tish sertifikatini olgach, soliq boshqarmasidan soliq ro'yxatida hisobga olinganligi to'g'risida ham guvoynoma olishi kerak. Bunda vakolatxonaning Xitoydagi o'z xarajatlarni qoplash uchun o'ziga berilgan mablag'lar ko'rinishida soliqqa tortiladigan daromad olishi manbai tushuniladi. Mazkur holatda biznes solig'i va xorijiy korxonalar foydasiga solinadigan soliq qo'llaniladi. Vakolatxona ularga doir har oylik yoki choraklik hisobotni (ayrim mintaqaviy tafovutlar mavjud) hatto soliqlar to'lashdan ozod qilingan taqdirda ham taqdim etishi kerak. Aks holda vakolatxonani yopishgacha bo'lgan jiddiy jazo choralari qo'llaniladi. Umuman olganda, vakolatxonadan undiriladigan soliqlar summasi u amalga oshirgan xarajatlarning qariyb 10 foizini tashkil etadi.

⁹ «Налоговая политика в индустриальных странах» Под. Ред. В.С. Акаевой.-М.: РАН ИНИОН, 1996 г.

Qisqacha xulosalar

Hech bir hukumat soliqlarni to'lashdan bosh tortishni oqlamaydi. Xitoy ham bundan mustasno emas. Soliqlarni to'lash muddatini o'tkazib yuborganlik, to'lamasdan yoki boshqa qonunbuzarliklar uchun jarima choralarini mavjud bo'lib, qattiq nazoratga olingan. Xitoyda qarzni undirish asosiy majburiyat summasining besh barobarigacha yetishi mumkin. Qonun yaqqol buzilgan holatda esa litsenziyalar olib qo'yilishi va mablag'lar musodara qilinishi ham ko'zda tutiladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

- 1.XXRda soliqqa tortish sohasidagi vakolat qaysi tashkilotlarga berilgan?
- 2.XXRda soliqlar nechta guruhga bo'lingan?
- 3.Qo'shilgan qiymat solig'i qachon va necha foiz miqdorida undiriladi?
4. Iste'mol soliqlari bo'yicha tushuncha bering.
- 5.Xorijiy kompaniyalar vakolatxonalarini soliqqa tortish qanday amalga oshiriladi?
- 6.Soliqqa oid qonun hujjatlarini buzganlik uchun qanday choralar qo'llaniladi?
7. Korxonada foydasiga solinadigan soliq kimlarga nisbatan qo'llaniladi?
8. Vakolatxonalardan soliq undirish tartibi qanday?
9. Soliq ta'tillari deganda nimani tushunasiz?
- 10.XXR soliq tizimidagi o'ziga xoslik nimada?

Asosiy adabiyotlar

1. Тюторюков Н.Н. Налоговые системы зарубежных стран: Европа и США: учеб.пос./-М.Дашков и К, 2002.
2. Ходов Л.Г., Попов В.И. Подходящее налогообложение физических лиц (зарубежный опыт, российские проблемы): учебное пособие - М.: ТЕИС, 2004.
3. Ходов П.Г. Налоги и налогообложение экономики: учебное пособие. - М.: ТЕИС, 2003.
4. <http://www.google.ru> - Rossiya Federatsiyasi qidiruv sayti.

VI BOB

FEDERATIV VA KONFEDERATIV DAVLATLAR SOLIQ TIZIMI XUSUSIYATLARI

6.1. Federatsiya va konfederatsiya tushunchasi va ulardagi soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlari. Iqtisodiy rivojlangan federativ va konfederativ davlatlarda soliq tizimlari shakllanishining asosiy yo'nalishlari

Federatsiya – bir qator davlatlarning birikishi shakli bo'lib, bunda aniq huquqiy davlat mustaqilligini saqlagan holda birikuvchi a'zo-davlatlar yangi yagona davlat tuzumini vujudga keltiradilar. Federatsiya shakli yagona: ittifoq fuqarolikni, armiyani, ittifoqdosh davlat organlarini ko'zda tutadi. Konfederatsiya esa mustaqil yashash huquqiga ega bo'lgan alohida davlatlar ittifoqi bo'lib, ular bitta yoki bir nechta yagona boshqaruv organlari bilan birlashganlar. Jahon amaliyotida federativ davlatlar qatoriga AQSh, GFR, Kanada, Rossiya; konfederativ davlatga esa Shveysariya kiradi¹⁰.

Soliq federalizmi ahvolini tahlil qilishdan oldin, zamonaviy federalizmning hokimiyat tizimi sifatidagi asosiy o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash lozim. Zamonaviy federalizmni rakobatli federalizm sifatida baholash qabul qilingan. Uning asosini «subsidiarnost tamoyili» tashkil qiladi. Bu tamoyilning ma'nosi shuki, uncha katta bo'lmagan jamoalarning aniq vazifalari hokimiyatning imkon qadar past pog'onalarida hal qilinishi lozim. Faqat shunday munosabatgina yuqori darajadagi mustaqillikni ta'minlay oladi va shuning bilan birga boshqaruvning haqiqiy demokratizatsiyasiga erishiladi. O'z navbatida hokimiyatning «anonimlashuvi» kuchayganda, markazlashtirishga tomon yo'nalgan har qanday harakat aholining fuqarolik va ovoz berish huquqlarini chegaralashga olib keladi. «Subsidiarnost» tushunchasi bir qator tamoyillarda namoyon bo'ladi. Bulardan birinchisi «kelib chiqish» tamoyilidir. U tovarlar va xizmatlarning erkin savdosiga tegishli bo'lib, mamlakatning o'ziga tumanlarida litsenziya olgan ta'minlovchilarning mahalliy hokimiyat tomonidan tekshirilishi mumkin emasligini bildiradi. Shunda mahalliy hokimiyatlarda «begona» tadbirkorlarni jalb qilish yo'li bilan soliqqa tortish manbasini kengaytirish imkoniyati paydo bo'ladi. Keyingi tamoyil – «yagonalik», ya'ni, hokimiyatning ushbu pog'onasida uyushgan harakatlar uchun eksklyuziv, aniq, muayyan javobgarlikning qo'yilishi. Raqobatdosh federalizmning samarali ish yuritishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan uchinchi tamoyil, «xazina ekvivalentligi» hisoblanadi. Buning ma'nosi shuki, har bir ma'muriy hudud, unga topshirilgan yoki o'zi bo'yniga olgan hokimlik funksiyalarini, o'zi javobgar bo'lgan soliqlar, yig'imlar, o'zlashtirgan mablag'lar hisobidan ta'minlashi lozim. Davlat xarajatlari soliq yig'ish yoki qarz olish tufayli tartibga solinadi. O'zaro kelishuvlarning natijasizligi, parazitizm va ko'plab siyosiy kelishmovchiliklardan saqlanish uchun hukumat tashkilotlari orasidagi transfertlarni tugatish lozim. Va faqat xazina ekvivalentligi bilan birga markazlashmagan xazina (barcha davlat xizmatlarining pulliligi) mahalliy hukumat organlarga daromad manbalarini kengaytirishga turtki bo'ladi. Shu bilan birga bu tamoyil hukumatning barcha pog'onalarda o'z soliq tizimlarini yaratish va rivojlantirish huquqi bo'lishini bildiradi. Yuqorida aytib o'tilgan raqobatdosh federalizm xususiyatlarini birgalikda belgilaydigan

¹⁰ Артёмов Ю. «Некоторые особенности бюджетной и налоговой системы Швейцарии». Финансы.1995.№11

barcha tamoyillar bir-birovini kuchaytirish tendensiyasiga ega. Ularning bittasi buzilgan taqdirda ham hududlar orasidagi raqobat zavol topadi. Masalan, markazning barcha soliq stavkalarini belgilashi mahalliy hukumatlarning mustaqilligi va javobgarligiga jiddiy zarar yetkazadi va hokazo.

6.2. Konfederativ davlatlarda pog'onali soliqqa tortishuing o'ziga xos xususiyatlari

Unitar davlatlarda siyosiy erkinlik yagona markazga qaratilgan. Mahalliy o'z-o'zini boshqarish korporatsiyalari esa davlat suvereniteti statusiga ega emaslar. Federativ davlatda kamida ikkita haqiqiy davlat suverenitetiga ega bo'lgan pog'ona mavjud — markaziy va regional. Ammo davlatning bir butunligini saqlash uchun ikki tarmoqli tizimli yagona soliq qonunchiligini ta'minlash zarur. Ushbu holatlarni ko'rib chiqish uchun birlashgan federativ davlatlarning aniq soliq tizimi bilan tanishish lozim.

Qisqacha xulosalar

Shunday qilib, haqiqiy raqobatdosh federalizmni o'zaro bog'langan bir butun deb tushunish kerak. Federativ davlat tuzumida soliq tizimi aytib o'tilgan tamoyillardan kelib chiqqan holda tuzilishi kerak. Shu sababli u unitar davlat soliq tizimidan tubdan farq qiladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Federatsiya va konfederatsiya deganda nimani tushunasiz?
2. Federativ davlatlarga misollar keltiring.
3. Federativ davlatlardagi soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
4. "Subsidiarnost" tushunchasini izohlang.
5. "Subsidiarnost" tushunchasi qanday tamoyillarda namoyon bo'ladi?
6. Iqtisodiy rivojlangan federativ va konfederativ davlatlarda soliq tizimlari shakllanishining asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?
7. Konfederativ davlatlarda pog'onali soliqqa tortishning qanday o'ziga xos xususiyatlari mavjud?
8. Federativ davlat soliq tizimining unitar davlat soliq tizimidan farqi nimada?
9. Oilali soliq to'lovchi shaxslarga nisbatan qanday imtiyozlar berilgan?
10. Korporatsiya foydasi necha foiz miqdorida soliqqa tortiladi?

Asosiy adabiyotlar

1. Артёмов Ю. «Некоторые особенности бюджетной и налоговой системы Швейцарии». Финансы.1995. №11
2. «Финансы» Учебник под. ред. проф. Дробозиной Л.А. — М: «Финансы», ЮНИТИ, 2002.
3. «Налоги и налогообложение» 3-е издание под ред. М.Романовского и О.Врублёвской. Москва. 2003.
4. <http://www.byudget.ru> — Rossiya Federatsiyasi byudjet tizimi;
5. <http://www.edu.uz> - O'zbekiston Respublikasi
6. <http://www.google.ru> . - Rossiya Federatsiyasi qidiruv sayti;
7. <http://www.finansiy.ru> — «Финансы» jurnalining sayti.

VII BOB
AMERIKA QO'SHMA SHTATLARI SOLIQ TIZIMI

7.1. AQSh soliq tizimi tarkibi va tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari

AQSh soliq tizimining tarkibi va tuzilishining o'ziga xos xususiyati to'g'ri soliqqa tortishning barcha turlari qo'llanilishi bilan aniqlanadi. AQSh soliqqa tortish tizimida soliqlarning asosiy turlari hokimlik vakolatlarining barcha pog'onalari bo'yicha bir xilda qo'llaniladi, ya'ni, aholi 3 ta daromad solig'i, korporatsiyalar 3 ta foyda solig'i, 2 ta mol-mulkdan olinadigan soliq va hokazo tartibda soliq to'laydilar¹¹.

1-jadval

AQSh soliq tizimining tarkibi va tuzilishi

№	Federal soliqlar	Shtatlar solig'i	Mahalliy soliqlar
1	Daromad solig'i	Daromad solig'i	Daromad solig'i
2	Korporatsiya foydasidan olinadigan soliq	Korporatsiya foydasidan olinadigan soliq	Korporatsiya foydasidan olinadigan soliq
3	Ijtimoiy sug'urta solig'i		
4	Aksizlar	Aksizlar	Aksizlar
5	Bojxona boji		
6	Meros va hadya solig'i	Meros va hadya solig'i	Meros va hadya solig'i
7		Sotuvdan olinadigan soliq	Sotuvdan olinadigan soliq
8		Mol-mulk solig'i	Mol-mulk solig'i
9		Avtotransport egalaridan olinadigan soliq	
10			Ekologiya solig'i

Federal byudjet daromadlarining asosiy qismini aholidan olinadigan daromad solig'i tashkil qiladi. Uning subekti jismoniy shaxslar, yuridik shaxs statusiga ega bo'lmagan yakka tartibdagi korxonalar va sheriklikka asoslangan korxonalar hisoblanadilar.

Shartli ravishda daromadlar hisobi uch bosqichda amalga oshiriladi:

1. Ish haqi, pensiyalar, alimentlar, qimmatli qog'ozlardan olinadigan daromadlar, mukofotlar, rentalar va royalti, fermer daromadi, ijtimoiy nafaqalar va ishsizlarga to'lanadigan nafaqalar, stipendiyalar, ko'chmas mulk daromadlari kabilar yalpi daromadni tashkil etadi.

2. Yalpi daromad ruxsat etilgan xarajatlar va imtiyozlar olib tashlanishi

¹¹ «Налоги и налогообложение» 3-е издание под ред. М.Романовского и О.Врублёвской. М.:2002.

hisobidan qayta ko'rib chiqiladi. Bularga: savdo yoki ishlab chiqarish xarajatlari, sotuvdan yoki qimmatli qog'ozlar almashuvi jarayonlaridan ko'rilgan zararlar, shaxslarning nafaqa badallari, to'langan alimentlar, avans soliq to'lovlari va boshqalar kiradi.

3. Qayta ko'rib chiqilgan yalpi daromad summasidan tasnif qilingan yoki qat'iy chegirmalar chiqarib tashlanadi. Qolgan summa soliqa tortiladigan daromad hisoblanadi. Asosiy chegirmalarga quyidagilar kiradi: to'lovchiga qaramog'idagi har bir odam uchun soliqa tortilmaydigan minimum, qat'iy chegirmalar, 65 yoshdan katta yoshli shaxslar va nogironlar uchun qo'shimcha chegirmalar, malakasini oshirish bilan bog'liq, yangi yashash joyiga ko'chgandagi xarajatlar, xayriya badallari va boshqalar. Ko'rsatilgan chegirmalar qayta ko'rib chiqilgan yalpi daromadning 50 foizdan ko'p bo'lmagan hajmida amalga oshirilishi mumkin, qolgan 50 foiz esa daromatlardan 5 yil davomida olib tashlanadi¹².

7.2. AQShda jismoniy shaxslardan olinadigan soliqning stavkalari

Sobiq AQSh Prezidenti B. Klinton rejasiga asosan kiritilgan jismoniy shaxslar daromad solig'i stavkalari quyidagi jadvalda keltirilgan.

2-jadval

AQShda yillik daromad solig'i stavkalari

Soliqa tortiladigan daromad (ming \$)	Soliq summasi (ming \$)
1. Yakka soliq to'lovchilar	
0-22,1	Daromaddan 15%
22,1-53,5	3,315+28%>22,1
53,5-115	12,107+31%>53,5
115-250	31,172+36%>115
250 dan ortiq	79,772+39,6%>25
2. Qo'shma deklaratsiyani to'ldiradigan oilaviy soliq to'lovchilar	
0-36,9	Daromaddan 15%
36,9-89,15	5,535+28%>36,9
89,15-140	20,16+31%>89,15
140-250	5,9+36%>140
250 dan ortiq	75,5+39,6%>250
3. Oila boshliqlari	
0-29,6	Daromaddan 15%
29,6-76,4	4,44+28%>29,6
76,4-127,5	17,544+31%>76,4
127,5-250	33,385+36%>127,5
250 dan ortiq	77,485+39,6%>25

¹² Михайлов Е. «Система местного налогообложения в США» - США: ЭПИ, 1994.

Daromadni soliqqa tortish tizimidagi yana bir muhim bosqich 1980-1990 yillardagi soliq islohotlari natijasida korporatsiya foydasidan olinadigan soliqning kiritilishi bo'ldi. AQShda korporatsiyalarning soliqqa tortishning asosiy tamoyili — soliqqa tortishning yakuniy obyekti bo'lgan sof foydadan soliq olish hisoblanadi. Ushbu soliqni to'lovchilar eng avvalo aksionerlik kompaniyalaridir. Soliqning taxminan 85 foizi federal darajada, 15 foizi esa shtatlar va mahalliy hukumat organlari darajasida undiriladi. Soliqqa tortish obyektlari bir nechta bosqichlarda aniqlanadi:

1. Yalpi sotuvdan keladigan va boshqa barcha (sotuvdan tashqari) daromadlar hamda xarajatlardan tashkil topgan yalpi daromad aniqlanadi.

2. Yalpi daromaddan ishchilarning ish haqlari, remont xarajatlari, to'lash imkoni bo'lmagan qarzarlar, renta to'lovlari, to'langan mahalliy shtatli soliqlar, amortizatsiya, kredit foizlari, reklama xarajatlari, nafaqa fondi badallari, tabiiy ofatlardan ko'rilgan zararlari xayriya badallari, kapital ta'mirlash xarajatlari va boshqalar chiqarib tashlanadi. Soliq qonunchiligiga ko'ra korporatsiya soliqni aniqlashda ishlab chiqarish xarajatlariga kiritish mumkin bo'lgan barcha xarajatlar puxta ko'rib chiqiladi. Ushbu qonunlar asosida yaratilgan xalqaro standartlar liberal xususiyatga egadir. Qoidaga ko'ra kompaniyaning kundalik ishlab chiqarish — tijorat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlarni inobatga olishga ruxsat beriladi. Cheklashlar uncha katta emas, asosan «haddan tashqari» vakolatli xarajatlarni chiqimga kiritish man etiladi.

3. Yalpi daromaddan chiqimlar, qo'shimcha xarajatlar, to'langan soliqlar olib tashlangach, soliqqa tortiladigan undan foyda miqdorini bevosita kamaytirishga yo'naltirilgan imtiyozlar ham chegiriladi.

Yakuniy bosqich foydadan dividendlarni to'lashga sarflanadigan qismi bilan bog'liq. Soliq imtiyozlariga ko'proq fermerlar egadirlar. Ular tufayli bir qator hollarda (asosan qurg'oqchilik yillarida) ayrim kompaniyalar soliq manbasini yo'qqa chiqaradilar. «Fermer» imtiyozlaridan so'ng kichik innovatsion biznesga sarmoyalarni kiritadigan yakka tartibdagi sarmoyachilarni imtiyozli soliqqa tortish masalasiga katta e'tibor qaratiladi. Davlatning ularni qo'llab-quvvatlashdagi manfaatdorligi aniq, chunki daromad solig'i stavkalari 28, 31, 36 va 39,6 foiz bo'lgan shaxslar uchun kapital o'sishning haqiqiy soliqqa tortiladigan stavkasi 14 foiz darajasida bo'ladi. Odatdagi stavkasi 15 foizga teng bo'lgan investorlar uchun esa haqiqatda stavka faqatgina 7,5 foizdan iborat bo'ladi. Korporatsiyaning asosiy soliq stavkasi 34 foiz miqdorida va ular quyidagi ko'rinish bo'yicha soliq to'laydi: korporatsiya birinchi soliqqa tortiladigan 50 ming dollar daromaddan 15 foiz to'laydi, keyingi 25 ming dollari uchun - 25 foiz, 75 ming dollardan yuqori uchun esa 34 foiz to'laydi. Bundan tashqari, 100 ming dollardan 35 ming dollargacha oraliqdagi daromadlarga 5 foiz miqdorida qo'shimcha yig'im o'rnatilgan. Bunday pog'onali soliqqa tortish o'rta va kichik korxonalar uchun juda muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy sug'urta badallari tushumini ta'minlovchi daromadlar esa o'sish tendensiyasiga ega. Yollanma ishchilar va ish bilan

taminlovchilar uchun aralash stavka 15,3 va 25-foizni tashkil qiladi. Jismoniy shaxslar meros va hadyadan 18 dan 55 foizgacha (agar mulk qiymati 600 ming dollardan oshsa) stavkada soliq to'laydilar. Jami federal soliqlar tushumi hajmida ularning ulushi 1-2 foizni tashkil qiladi va mahalliy darajada ushbu soliq ahamiyatining oshishi hisobidan bu ulush pasayish tendensiyasiga ega.

7.3. Shtatlar solig'i va mahalliy soliqlar, daromad solig'i va uning stavkalari, korporatsiya foyda solig'i

Umumiy hajmda sotuvdan olinadigan soliq tushumlari ulushi 30-40 foizga yetadi. Uning soliqqa tortish obyekti tovar va xizmatlarning qiymatidir. Soliq stavkalari shtatlar tomonidan belgilanadi va 4-8 foiz oraliqda bo'ladi. Aholidan olinadigan daromad solig'i 44 shtatda olinadi, qolganlarida u mahalliy o'z-o'zini boshqarish tashkilotlariga o'tadi. Soliq stavkasi 2-10 foizgacha oraliqda bo'ladi; ushbu soliqning soliqqa tortish obyektlari farqlanadi. Ammo foydalanishning bir xil va qulay bo'lishi uchun ko'pchilik shtatlar o'z stavkalari manbai sifatida federal soliqning ma'lum foizini asos qilib oladilar. Bunda shtatlarda soliq deklaratsiyasining o'z shakli bo'lib, ularda to'langan soliq summasi sub'yektlarning federal soliq bo'yicha soliqqa tortish majburiyatlari aniqlanganda chegirib tashlanadi.

Foyda solig'i ham barcha shtatlarda undiriladi va faqat xazinani to'ldirish maqsadida emas, balki iqtisodiy sharoitga ta'sir qilish usuli sifatida ham qo'llaniladi. Qariyb barcha shtatlarda jismoniy shaxslar qatorida yuridik shaxslardan ham mol-mulk solig'i undiriladi. Soliq stavkalari farqlanadi va 0,5 dan 5 foizgacha oraliqda bo'ladi. Bundan tashqari, shtatlar tomonidan meros solig'i, turli xil aksizlar, kapital solig'i va maxsus ruxsatnomalar olish uchun undiriladigan yig'imlar olinadi, ish beruvchilar esa ihsizlik bo'yicha nafaqa to'lovlari uchun majburiy ajratmalarni amalga oshiradilar. Shtatlar qatorida AQSh ma'muriy tuzilmalari sifatida mahalliy hukumat qaramog'i ostida bo'lgan qariyb 85000 tumanni o'z ichiga oladi. Qariyb barcha shtatlar grafliklarga bo'lingan va ularda taxminan 20 ming munitsipalitetlar mavjud. Grafliklar, munitsipalitetlar, taunshiplar (xususiy hududiy tuzilmalar) o'z boshqaruv bo'linmalariga ega va o'z xizmatlarini tegishli hududlarda olib boradilar. Har bir o'z-o'zini boshqarish bo'linmasi o'z byudjetini tuzishi, yangi soliqlar joriy qilishi va undagi tushumlarni ta'minlash uchun turli faoliyatlarni amalga oshirishi mumkin. Mahalliy o'z-o'zini boshqarish bo'linmasi o'z ixtiyorida shtatlar soliqlari bilan ko'p tomondan o'xshash bo'lgan, uncha ko'p bo'lmagan soliq manbalariga ega. Mahalliy soliqlar ichida mol-mulkdan olinadigan soliq muhim ahamiyat kasb etadi. Bu soliq mulk egasi bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslardan yiliga bir marta olinadi. Ushbu soliqni aniqlash manbasi sifatida mulkning narx qiymati hisobga olinadi. Qariyb shtatlarning yarmida sotuvdan olinadigan mahalliy soliq undiriladi. Bu nomdosh shtat solig'iga qo'shimcha bo'lib

hisoblanadi. Bu soliq daromadlari shtatda yig'iladi, so'ng qaysi hududda yig'ilgan bo'lsa, shu mahalliy o'z-o'zini boshqarish bo'linmasiga qaytariladi.

Qisqacha xulosalar

AQShning 51 shtatidagi soliq daromadlari tuzilmasi federaldan jiddiy farq qiladi. To'lig'icha xususiy tushumlar umumiy daromadlarning taxminan 80 foizini tashkil qiladi, qolgan 20 foizi federal subsidiyalardir. AQShda QQS joriy etilmagan bo'lib, uning o'rniga esa sotuvdan olinadigan soliq 30 foiz miqdorida joriy etilgan.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. AQSh soliq tizimining qanday o'ziga xos xususiyatlari mavjud?
2. Federal soliqlarga qanday soliqlar kiradi?
3. Shtatlar soliqlariga qanday soliqlar kiradi?
4. Mahalliy soliqlarga qanday soliqlar kiradi?
5. AQSh korporatsiyalarini soliqqa tortishning asosiy tamoyillari nimalardan iborat?
6. Aksizlar, bojxona boji, me'ros va hadya solig'i to'g'risida tushuncha bering.
7. AQShda aholidan olinadigan daromad solig'i va mulk soliqlari O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi bilan taqqoslanganda qanday farqlar mavjud?
8. Meros solig'i qanday undiriladi?
9. Korporatsiya foydasi necha foiz miqdorida soliqqa tortiladi?

Asosiy adabiyotlar

1. Михайлов Е. «Система местного налогообложения в США» - США: ЭПИ, 1994 г. №8-9.
2. «Налоги и налогообложение» 3-е издание под ред. М.Романовского и О.Врублёвской. М. 2002.
3. Пискунов Н. Организация работы налоговых органов США Финансы 1995.
4. Тютюрюков Н.Н. Налоговые системы зарубежных стран: Европа и США: учеб.пос./-М.Дашков и К, 2002.
5. Ходов Л.Г., Попов В.И. Подходящее налогообложение физических лиц (зарубежный опыт, российские проблемы): Учебное пособие - М.: ТЕИС, 2004.
6. <http://www.edu.uz> - O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo'mitasi sayti;
7. <http://www.byudjet.ru> — Rossiya Federatsiyasi byudjet tizimi;
8. <http://www.edu.uz> - O'zbekiston Respublikasi
9. <http://www.google.ru> . - Rossiya Federatsiyasi qidiruv sayti;
10. <http://www.finansiy.ru> — «Финансы» jurnalining sayti;

VIII BOB KANADA SOLIQ TIZIMI

8.1. Kanada soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlari

Boshqa federativ davlatlardan Kanada detsentralizatsiyasi ancha yuqori darajasi bilan farq qiladi. Federal hukumat bo'linmalarining ahamiyatli ta'siri ostida provinsiyalar milliy iqtisod strategiyasi shakllanishida jiddiy rol o'ynaydi. Kanada hukumati xarajatlarining yarmidan ko'proq qismi va ta'lim, sog'liqni saqlash hamda ijtimoiy sug'urtani ta'minlash funksiyalari provinsiyalar ulushiga to'g'ri keladi. Shuni ham hisobga olish kerakki, provinsiyalar rolini oshirish tendensiyasi oxirgi yillarda ham davom etmoqda. Kanada soliq tizimi quyidagi uchta asosiy darajani tashkil etadi:

- federal (davlat daromadlarining qariyb 50 foizi);
- provinsiya (qariyb 40 foizi);
- mahalliy (10 foizi).

Federal byudjet asosini quyidagilar tashkil qiladi: aholidan olinadigan daromad solig'i, korporatsiya solig'i, tovar va xizmatlar solig'i, aksizlar, bojxona boji va ijtimoiy sug'urta jamg'armasi badallari. Provinsiya daromadlari: aholidan olinadigan daromad solig'i, korporatsiya foydasidan olinadigan soliq, sotuvdan olinadigan soliq, aksizlar, ijtimoiy sug'urta jamg'armasi badallari, hadya solig'i, renta to'lovlari, turli ro'yxatga olish yig'imlaridan iborat. Tushumlarning asosiy qismi daromad solig'i va egri soliqlarga to'g'ri keladi. Mahalliy byudjetlar soliq tushumlari ko'chmas mulk solig'i va tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan soliqlardan iborat¹³.

1-jadval

8.2. Kanadada asosiy soliq stavkalari

Provinsiya, hudud	Asosiy stavka		Federal-provinsial stavka	
	Daromad solig'i	Foyda solig'i	Daromad solig'i	Foyda solig'i
Nyufaundlend	21,0	14,0	52,3	43,12
Yangi Shotlandiya	19,0	16,0	50,3	45,12
Prins Eduard oroli	19,0	15,0	50,3	44,12
Nyu-Bransuik	20,1	17,0	51,4	46,12
Kvebek	21,6	8,9-16,2	52,9	38,0-45,0
Ontario	21,6	15,5	52,9	44,6
Manitoba	19,1	17,0	50,4	46,1
Saskachevan	20,6	17,0	51,9	46,1
Alberta	14,8	15,5	46,1	44,6
Britanskaya Kolumbiya	22,9	16,5	54,2	45,6
Yukon	15,3	15,0	46,6	44,1
Shimoliy-G'arbiy hududlar	13,0	14,0	44,4	43,1

¹³ «Налоги и налогообложение» 3-е издание под ред. М.Романовского и О.Врублёвской. М.:2002.

Kanada soliq tizimi 1987 yilda o'tkazilgan soliq islohoti tufayli zamonaviylasha boshladi. Uning qoidalariga asosan Kanadada federal darajada daromad solig'ining o'nta stavkasi o'rni uchta stavka, har bir regionda esa o'zlarining mahalliy stavkalari qo'llanila boshlandi.

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar federal va provinsial stavkalardan tashkil topgan integrallashgan stavka hisob-kitob usulini ko'rsatadi. Kanadada kichik biznes faoliyatini rag'batlantirishga katta e'tibor qaratiladi. Bunday kichik firmalar (100 kishidan kam yollanma mehnat ishchilari bo'lgan firmalar) ulushi barcha kompaniyalar (xizmatlar, chakana savdo, qurilish) hisobining 97 foiziga yetadi va ularning daromadlariga yagona stavka — 12 foiz qo'llaniladi. Umuman Kanadaning soliq tizimida to'g'ri soliqlar yuqori turadi. Egri soliqlarga - yagona 7 foiz stavka bo'yicha tovar va xizmatlarga qo'yiladigan federal soliq hamda sotuvdan olinadigan mahalliy soliqlar kiradi. Ba'zan provinsiyalarda ushbu ikki soliq qo'shma stavkada birlashib 15 foizni hosil qiladi. Birlashgan soliq chakana narxlarga qo'shiladi.

Qisqacha xulosalar

Soliq yig'ishda keng vakolatga ega bo'lishiga qaramasdan provinsiyalar federal hukumatdan barcha daromadining 28 foizini tashkil qiladigan transfertlar ko'rinishida moliyaviy yordam oladilar. Provinsiyalarga beriladigan federal transfertlar uchta turli xil maqsadlarga va tuzilishga ega bo'lgan dasturlarga asoslanadi: «Tenglashtirish», «Dasturlarni rasmiy moliyalashtirish», «Yordam rejasi».

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Kanada soliq tizimining qanday o'ziga xos xususiyatlari mavjud?
2. Kanada soliq tizimi tashkiliy tuzilishining huquqiy asoslari nimadan iborat?
3. Kanada soliq tizimi nechta asosiy darajani tashkil etadi?
4. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i qaysi tartibda undiriladi?
5. Federal foyda solig'i to'g'risida tushuncha bering. U qanday undiriladi?
6. Kapitaldan olinadigan soliqlar to'g'risida tushuncha bering va ular qanday soliqqa tortiladi?
7. Kanadada kichik biznes faoliyatini rag'batlantirish qanday tashkil etilgan?
8. Kichik firmalardan qanday stavkada soliq undiriladi?
9. Oilali soliq to'lovchi shaxslarga nisbatan qanday imtiyozlar berilgan?
10. Korporatsiya foydasi necha foiz miqdorida soliqqa tortiladi?

Asosiy adabiyotlar

1. «Налоги и налогообложение» 3-е издание под ред. М.Романовского и О.Врублёвской. М. 2002.
2. Тютюрюков Н.Н. Налоговые системы зарубежных стран: Европа и США: учеб.пос./-М.Дашков и К, 2002.
3. Ходов Л.Г., Попов В.И. Подходящее налогообложение физических

лиц (зарубежный опыт, российские проблемы): учебное пособие - М.: ТЕИС, 2004.

4. «Финансы» учебник под. ред. проф. Дробозиной Л.А. – М: «Финансы», ЮНИТИ, 2003.

5. <http://www.edu.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo‘mitasi sayti;

6. <http://www.byudjet.ru> – Rossiya Federatsiyasi byudjet tizimi;

7. <http://www.edu.uz> - O‘zbekiston Respublikasi

8. <http://www.google.ru> . - Rossiya Federatsiyasi qidiruv sayti;

9. <http://www.finansiy.ru> – «Финансы» jurnalining sayti;

IX BOB SHVEYTSARIYA SOLIQA TIZIMI

9.1. Shveysariya konfederativ davlati soliq tizimining tuzilishi. Soliqqa tortishning uch pog'onasi

Shveysariya-- konfederatsiya(markaziy shtat) va 3000 munitsi palitetlardan (tumanlardan) iborat 26 ta kantonlardan (viloyatlardan) tuzilgan konfederativ davlatdir. Shveysar federalizmi tamotilga asosan mamlakatda uch pog'onali soliqqa tortish joriy qilingan¹⁴.

1-jadval

Shveysariya soliq tizimida soliqlarning taqsimlanishi

Daromad va mulk solig'i	Iste'mol va mulkka egalik qilishni soliqqa tortish
Konfederatsiya	
Daromad solig'i Kapital va foyda solig'i To'lov manbaidan olinadigan soliq Tamg'a yig'imi	Qo'shilgan qiymat solig'i Tamaki solig'i Pivo solig'i Bojxona boji
Kantonlar	
Daromad solig'i Jon boshi solig'i Kapital va foyda solig'i Meros solig'i Ko'chmas mulk solig'i	Transport vositalari solig'i It egalaridan olinadigan soliq Tomoshadan olinadigan soliq Tamg'a yig'imi
Munitsipalitetlar	
Daromad solig'i Jon boshi solig'i Kapital va foyda solig'i Meros solig'i Ko'chmas mulk solig'i	Transport vositalari solig'i It egalaridan olinadigan soliq Tomoshadan olinadigan soliq Tamg'a yig'imi

Soliq huquqini aniqlash konstitutsiya orqali boshqariladi. Uning qoidalariga asosan uchala organ ham bir-biroviga xalaqit bermasdan faoliyat yuritadi, soliq to'lovchilar bo'ynidagi yuk esa soliqqa tortishning iqtisodiy chegaralaridan o'tmaydi. Konfederatsiyaning har tomonlama huquqiy hisoblangan yigimlarni joriy qilishidan tashqari kantonlarga ham har qanday soliq turlari bo'yicha soliq solishga ruxsat berilgan. Ular o'zlarining soliq qonunchiligini yaratish huquqiga egalar. Munitsi palitetlarga esa o'z soliqlarini yig'ib olish huquqi kantonlarning konstitutsida belgilanadi.

1990 yillarning ikkinchi yarmida konfederatsiyaning soliq daromadlari tarkibi quyidagicha edi:

¹⁴ «Налоги и налогообложение» 3-е издание под ред. М.Романовского и О.Врублёвской. М.:2002.

- qo'shilgan qiymat solig'i — 29,1 foiz;
- to'g'ri soliqlar — 23,6 foiz;
- bojxona bojlari — 14,9 foiz;
- hisob-kitob solig'i — 10,1 foiz;
- tamg'a yigimi — 4,5 foiz;
- boshqalar — 5,5 foiz;
- soliqlardan tashqari yig'img'lar — 12,3 foiz.

9.2. Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi va uni undirish tartibi

Qo'shilgan qiymat solig'i Shveysariyada faqatgina 1995 yil 1 yanvarda, Yevropa ittifoqi mamlakatlari soliq tizimi bilan bir xil bo'lish maqsadida, oborot solig'ining o'rniga kiritildi. Shveysariyada QQS — umumiy foydalanish va iste'mol uchun soliq bo'lib, tovar importi taqsimoti va ishlab chiqarishning barcha bosqichlaridan olinadi. Bu soliq bo'yicha uchta stavka mavjud: qat'iy — 6,5 foiz, mehmonxona tarmog'idagi xizmatlar uchun maxsus stavka — 3 foiz va oziq — ovqat, spirtsiz ichimliklar, qushlar, baliq, don, tibbiyot tovarlari, poligrafiya mahsulotlari uchun pasaytirilgan stavka — 2 foiz. Bojxona bojlari import tovarlar kabi eksport operatsiyalaridan ham qat'iy stavkalar bo'yicha olinadi¹⁵.

9.3. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining hisoblanishi

To'g'ri soliqlar ichida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i hamda yuridik shaxslardan olinadigan foyda va kapital solig'i muhim ahamiyatga ega. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini Shveysariyada foydali faoliyatni amalga oshiradigan barcha shaxslar to'laydilar. Maksimal stavka 11,5 foizni tashkil qiladi.

9.4. Federal foyda solig'i. Kapitaldan olinadigan soliq. Sof aktivlar va daromad solig'i

Foydadan olinadigan federal soliq esa progressiv soliq bo'lib, uch darajali shkala bo'yicha undiriladi. Manba solig'i 3,63 foiz stavka bo'yicha undiriladi. Maksimal stavka jami foydaning 9,8 foizidan oshmasligi kerak. Kapital soliq proporsional soliq hisoblanadi. U olingan kapitaldan hamda balansda ko'rsatilgan va ko'rsatilmagan zahiralardan olinadi. Soliq stavkasi soliqqa tortiladigan kapital summasining 0,08 foiziga teng.

Ta'kidlanganidek, kantonlar o'z qonunlarini o'zlari tuzadilar. Ammo 2001 yil boshlariga kelib, soliqqa tortishni uyg'unlashtirish qonuniga asosan ular bu qonunlarni tenglashtirishlari lozim edi. Daromaddan olinadigan soliq va sof aktivlar

¹⁵ Артёмов Ю. «Некоторые особенности бюджетной и налоговой системы Швейцарии». Финансы. 1995. №11

davriy soliqlardir. Shuning uchun ular ma'lum bir aniq vaqtda yig'ilishi kerak. Kantonlardafederal bazastavkasi bo'yichavakantonlar hamdamunitsi palitetlarning qo'shimcha stavkalari bo'yicha hisoblangan soliq summasidan ham jismoniy shaxslarning daromad solig'i to'lanadi.

Qisqacha xulosalar

Barcha kantonlar vaqtinchalik Shveysariyada «manba»da ishlayotgan chet el fuqarolari daromadlaridan soliq undiradilar. Jismoniy shaxslar qatori yuridik shaxslar ham ko'chmas mulk o'sishidan olinadigan daromaddan soliq to'lashlari kerak. Jismoniy shaxslar lotareya solig'ini to'laydilar. Shu bilan birga barcha kantonlar meros va hadya solig'i hamda transport vositalaridan olinadigan soliqni undiradilar.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. *Konfederatsiya, munitsipalitet, kantonlar tushunchalarini izohlang.*
2. *Shveysariya konfederativ davlatining soliq tizimi qanday tuzilgan?*
3. *Soliqqa tortishning uch darajasi haqida nimani bilasiz?*
4. *Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi va uni undirish tartibi Shveysariyada qanday tashkil qilingan?*
5. *Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i qaysi tartibda undiriladi?*
6. *Federal foyda solig'i, kapitaldan olinadigan soliq, sof aktivlar haqida tushuncha bering?*
7. *Daromad solig'i haqida tushuncha bering?*
8. *Tamg'a yig'imi deganda nimani tushunasiz?*
9. *Oilali soliq to'lovchi shaxslarga nisbatan qanday imtiyozlar berilgan?*
10. *Korporatsiya foydasi necha foiz miqdorida soliqqa tortiladi?*

Asosiy adabiyotlar

1. Артёмов Ю. «Некоторые особенности бюджетной и налоговой системы Швейцарии». Финансы.1995. № 11
2. «Налоги и налогообложение» 3-е издание под ред. М.Романовского и О.Врублёвской. М. 2002.
3. Тютюрюков Н.Н. Налоговые системы зарубежных стран: Европа и США: учеб.пос./-М.Дашков и К, 2002.
4. Ходов Л.Г., Попов В.И. Подходящее налогообложение физических лиц (зарубежный опыт, российские проблемы): учебное пособие - М.: ТЕИС, 2004.
5. <http://www.byudget.ru> — Rossiya Federatsiyasi byudjet tizimi;
6. <http://www.edu.uz> - O'zbekiston Respublikasi
7. <http://www.google.ru> . - Rossiya Federatsiyasi qidiruv sayti.

X BOB BUYUK BRITANIYA SOLIQ TIZIMI

10.1. 1990-yillarda Buyuk Britaniya soliq tizimi va undagi o'zgarishlar

Yevropa davlatlarining soliq tizimlari bir-biridan tubdan farq qiladi. O'tgan asrning 80-yillariga kelib soliq islohotlari o'tkazilib, ularni bir-biriga yaqinlashtirishga harakat qilindi. Misol uchun Italiya umumiy bozorga kirish uchun o'zining soliq tizimini keskin o'zgartirdi, ya'ni boshqa Yevropa davlatlari soliq tizimiga yaqinlashtirdi. Iqtisodiy birlashish an'anasi va xalqaro xo'jalik aloqalarining kengayishi ularning ikkiyoqlama soliq solish siyosatidan voz kechishlariga olib keldi. Yevropa davlatlarining iqtisodiyoti va aholisining yashash tarzidan kelib chiqib, ularning umumiy xususiyatlari o'rganildi. Ularda o'ziga xos turdagi soliqlardan to'g'ri va egri soliqlar, ya'ni, bevosita yoki bilvosita soliqlar, shuningdek, qo'shilgan qiymat solig'i hamda fuqarolardan undiriladigan daromad soliqlari mavjud¹⁶.

Amaliyotda barcha davlatlarda soliqlar uch darajali ko'rinishga ega bo'lib, ular umumdavlat soliqlari, federal soliqlar, shuningdek, hududiy soliqlarga bo'linadi. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish kerakki, har bir davlatning soliq tizimi o'ziga xos xususiyatlarga egadir.

Buyuk Britaniyada soliq tizimi 19-asrdayoq shakllangan edi. Biroq u ham tanaffuslarni boshidan kechirdi. Soliq islohotlari 1965 hamda 1973 yillarda amalga oshirilgan bo'lib, 90-yillarda soliqqa tortishda jiddiy o'zgarishlar qilindi. Buyuk Britaniya soliq tizimi ikki pog'onali bo'lib, ular umumdavlat va mahalliy soliqlarni tashkil etadi. Umumdavlat soliqlarining asosini jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'i, korporatsiyalar foydasidan olinadigan soliqlar, kapital o'sishidan olinadigan soliqlar, neftdan olinadigan daromad soliqlari, meroslardan olinadigan soliqlar, qo'shilgan qiymat solig'i, boj, aksiz solig'i, tamg'a yig'implari tashkil etadi. Ular soliqlar orqali undiriladigan tushumlarning 90% ini tashkil etadi. Mahalliy soliqlar hissasiga asosan mol-mulk solig'i to'g'ri kelib, ushbu soliq turi umumiy undiriladigan soliqlar miqdorining 10% ini tashkil etadi.

10.2. Buyuk Britaniyada daromad solig'ini to'lash shakli

Buyuk Britaniyada aholidan undiriladigan daromad solig'i davlat byudjetining 3/2 qismini tashkil etadi va ular to'g'ri soliqlar ko'rinishida bo'ladi. Yuqori soliq turi 1799 yilda Napoleonga qarshi olib borilgan urushni moliyalashtirish maqsadida vaqtinchalik joriy etilgan bo'lib, 1842 yildan boshlab esa ingliz soliq amaliyotida uzil-kesil tasdiqlandi.

Buyuk Britaniyada daromad solig'ini qismlarga bo'lib to'lash qabul qilingan,

¹⁶ «Налого и налогообложение» 3-е издание под ред. М.Романовского и О.Врублёвской. М.:2002.

daromad solig'i manbalariga qarab to'rt qismga bo'linadi va har bir qism alohida tartibda undiriladi (dividendlar, renta, ish haqi va boshqalar). Daromadlardan undiriladigan soliqlarni taqsimlashdan asosiy maqsad daromadlar manbaini aniq hisobga olish ko'zda tutiladi. To'rt qismli daromad quyidagi tartibda belgilanadi:

A-qism. Mulkdan olinadigan daromad, ayniqsa yer, qurilish va inshootlar, kvartira to'lovlari, yashash joylarini ijaraga olish kabilarni o'z ichiga oladi.

B-qism. O'rmon xo'jaligidan tijorat maqsadlarida foydalanishdan olinadigan daromadlar.

S-qism. Davlat qimmatbaho qog'ozlaridan olinadigan daromadlar.

D-qism. Ishlab chiqarish tijorat faoliyatidan olinadigan daromadlar.

10.3. Buyuk Britaniyada soliq turlari

Yuqorida ko'rsatilgan daromadlardan olinadigan soliqlar sakkiz qismga bo'linib, quyidagi tur soliqlari undiriladi:

- savdo va tijoratdan olinadigan daromad solig'i (misol uchun, magazin xo'jayinining foydasidan olinadigan soliq);

- o'z kasbiy xizmatini ko'rsatish orqali topilgan daromaddan olinadigan soliq (misol uchun, advokat yoki vrachning daromadlari);

- olinadigan foizlar yoki aliment to'lovlarini qabul qilinishini soliqqa tortish;

- xorijiy davlatlarda mavjud bo'lgan qimmatbaho qog'ozlardan olinadigan daromadlarni soliqqa tortish;

- xorijiy davlatlarda mavjud bo'lgan mulkdan olinadigan daromadlarni soliqqa tortish;

- yuqorida ko'zda tutilmagan daromadlarning boshqa turlaridan olinadigan soliq.

- ish xaqi, nafaqa va boshqa mehnat daromadlaridan olinadigan soliqlar.

- Buyuk Britaniya kompaniyalaridan olinadigan dividendlar va boshqa to'lovlardan undiriladigan soliqlar.

Qisqacha xulosalar

Daromad solig'i yalpi yillik daromaddan qonun bilan belgilangan imtiyoz va chegirmalarni olib tashlagandan so'ng undiriladi. Shu sababli ular ishlab topilgan va investitsion (ishlab topilmagan) turlarga bo'linadi.

Daromad solig'ining undirilishi ish haqi ko'rinishida bo'lsa, oylik maosh bunga manba bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli soliq deklaratsiyasi to'ldiriladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1.90-yillarda Buyuk Britaniya soliq tizimidagi o'zgarishlar nimalardan iborat bo'ldi?

2. Buyuk Britaniyada soliq islohotlarini o'tkazishdan maqsad nima edi?
3. Buyuk Britaniya soliq tizimi necha pog'onaga bo'linadi?
4. Umumdavlat soliqlariga qanday soliqlar kiradi?
5. Mahalliy soliqlar hissasiga asosan qaysi soliq turi to'g'ri keladi?
6. Buyuk Britaniyadagi daromad solig'ini to'lash shakli qanday?
7. Daromad solig'i qaysi turlarga bo'linadi?
8. Buyuk Britaniyada soliq turlari to'g'risida nimanlarnii bilasiz?
9. Oilali soliq to'lovchi shaxslarga nisbatan qanday imtiyozlar berilgan?
10. Korporatsiya foydasi necha foiz miqdorida soliqqa tortiladi?

Asosiy adabiyotlar

1. «Налоги» под . ред. Д.Г.Черника – М: «Финансы и статистика», 2003.
2. Юткина.Г.Ф.«Налоги и налогообложения».Учебник-М:ИНФРА-М, 2003
3. «Налоги и налогообложение» 3-е издание под ред. М.Романовского и О.Врублёвской. М. 2002.
4. Тютюрюков Н.Н. Налоговые системы зарубежных стран: Европа и США: учеб.пос./-М.Дашков и К, 2002.
5. Ходов Л.Г., Попов В.И. Подходное налогообложение физических лиц (зарубежный опыт, российские проблемы): учебное пособие - М.: ТЕИС, 2004.
6. <http://www.byudget.ru> – Rossiya Federatsiyasi byudjet tizimi;
7. <http://www.edu.uz> - O'zbekiston Respublikasi
8. <http://www.google.ru> . - Rossiya Federatsiyasi qidiruv sayti.

XI BOB
GERMANIYA SOLIQ TIZIMI VA ISLOHOTI

11.1. Germaniyadagi soliq islohotlari yo'nalishlari

Soliq tizimlarini takomillashtirish har qanday rivojlangan mamlakatlarning birinchi darajadagi ahamiyatga ega bo'lgan vazifalari sifatida oldinga suriladi. Germaniya ham bundan istisno emas. 1998 yilda o'tkazilgan saylovlar natijasida Germaniya hukumatining almashinuvidan so'ng, allaqachon aytilgan «Korxonalar va tadbirkorlar faoliyatini soliqqa tortish islohoti» boshlandi. Ushbu islohotni o'tkazish bo'yicha tayanch nuqta va ayni vaqtda tashabbus negizi — kuchayib borayotgan nemis soliq huquqi ahvolining tanqidi bo'ldi. Bu tanqidga, birinchi navbatda, soliq stavkalarining xalqaro miqyosga nisbatan juda ham yuqoriligi, tadbirkorlik faoliyatining har xil tashkiliy-huquqiy shaklini soliqqa tortishning turli-tumanligi hamda soliq tartibotidagi o'zgartirishlarni amalga oshirish zaruriyati: alohida me'yor va aloqalarning murakkabligi sabab bo'ldi va soliq huquqi tartibsiz ravishda va soliqni rejalashtirishga qiyinchilik bilan bo'ysunadigan ahvolda qabul qilinadigan bo'ldi¹⁷.

1-jadval

Rivojlangan mamlakatlardagi korporatsiyalarning taqsimlanmagan foydasi bo'yicha soliq stavkalari (foizda)

	Markaziy federal darajada	Federatsiya subyektlari darajasida (mahalliy darajada)	Jami
1. Irlandiya	20	-	20
2. Shvetsiya	28	-	28
3. Norvegiya	28	-	28
4. Finlyandiya	29	-	29
5. Daniya	30	-	30
6. Buyuk Britaniya	30	-	30
7. Avstriya	34	-	34
8. Gretsiya	35	-	35
9. Niderlandiya	35	-	35
10. Ispaniya	35	-	35
11. Portugaliya	32	3,2	35,2
12. Italiya	36	-	36
13. Fransiya	36,43	-	36,43
14. Germaniya (2001)	26,38	16,67	38,65
15. Belgiya	40,17	-	40,17
16. AQSh	35	9	40,8
17. Yaponiya	30	15,81	42,93
18. Germaniya (2002)	42,20	16,67	58,57

¹⁷ Черник.Д.Т. «Налоги Германии» М.: - Финансы. 2004.

1998 yilning kuzidagi nemis hukumatining almashinuviga qadar ham siyosatda, ham iqtisodiyotda Germaniya boshqa mamlakatlarga nisbatan katta soliq yuki; jismoniy shaxslar uchun maksimal soliq stavkalari; korporatsiyalarning taqsimlanmagan foydasi uchun soliq stavkalari bilan ajralib turardi.

Tegishli soliq stavkalarini u yoki bu mamlakatdagi iqtisodiy ahvolni baholashning yagona ko'rsatkichi sifatida qabul qilib bo'lmasa-da, ularning darajasi imkoniyatli sarmoyachilar xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadi. Murakkab va tartibga solinmagan soliq tizimi bilan o'zaro ta'sirda bo'lgan yuqori soliq stavkalari, nafaqat nemis sarmoyachilarini, balki chet el sarmoyachilarining ham qiziqishini pasaytiradi¹⁸.

Ko'p miqdordagi maxsus va alohida qabul qilingan qonunlar doirasidagi tartib- qoidalar, ko'p tarmoqli va murakkab nemis soliq huquqi chet el sarmoyachilari uchun kutilayotgan soliq yukining tez va ayniqsa aniq hisob-kitobini (chetdan mutaxassislarning yordamisiz) o'tkazishda qiyinchilik tug'diradi, hattoki, bu ishni amalga oshirish mumkin bo'lmay qoladi.

11.2. Tadbirkorlik faoliyatini soliqqa tortish islohoti va erishilgan natijalar

Korxonalar va tadbirkorlik faoliyatini soliqqa tortishning fundamental asosiy islohoti, mamlakat jamoatchiligi (ayniqsa siyosiy doiralarda va tadbirkorlar orasida) iqtisodning davomli, jadallashgan rivoji uchun zaruriy chora sifatida qaraldi. Korxonalar va tadbirkorlik faoliyatini soliqqa tortish islohoti qatorida Germaniya soliq islohoti quyidagi asosiy yo'nalishlarga ega:

- oilani qo'llab-quvvatlash choralari (bolalarni ta'minlash va ularni parvarishlash uchun doimiy chegirmalarni oshirish). 2002 yilda ushbu chegirmalar quyidagilarni tashkil qildi: bitta bola uchun doimiy chegirma – 35548 yevro (er-xotin uchun); bolaga qarash uchun doimiy chegirma – 2160 yevro (er-xotin uchun);

- «Ekologik soliq islohoti»ni o'tkazish. Bu erda energiya iste'moli uchun soliqlar kiritish ko'zda tutiladi. Avtomobil yoqilg'isi, mazut va gaz qo'shimcha soliqlar bilan soliqqa tortiladi. Qo'shimcha elektr energiya uchun soliq kiritilgan edi. Bunga zid ravishda federal hukumat pensiya sug'urtasi badalini 0,8%gacha kamaytirdi.

Bundan tashqari, 2001 yil dekabrda, Germaniya federal konstitutsion sudi talabiga binoan, moliyaviy tenglashtirish islohoti boshlandi. Moliyaviy tenglashtirish qonuniga asosan 1.01.2006 yildan boshlab, u federal yerlar o'rtasida uzoq muddatli asosda tashkil etiladi, moliyaviy tenglashtirishning yangi tizimi, kuchliroq rag'batlantiruvchi ta'siriga ega bo'ladi, ammo, bu bilan federal yerlarning hamfikir birlashmalari shubha ostiga qo'yilmaydi.

¹⁸ Зойтхаймер К. «Федеративная Республика Германия сегодня» М.:1997.

Ayni vaqtda moliyaviy «kuchli» federal yerlar bir tomondan va moliyaviy «kuchsiz» federal yerlarning ikkinchi tomondan (birdamlik ko'rsatish bo'yicha) o'zaro majburiyatlariga shunday ahamiyat beriladiki, barcha federal yerlar o'z daromadlarini oshirishga va o'z kuchlariga tayanadilar. Shunday qilib, moliyaviy «kuchsiz» yerlar, tegishli moliyalashtirishga erishish uchun, o'zlarining imkoniyatlari qanchalik yetmasa, faqat shunday darajadagina yordam oladilar. O'z navbatida moliyaviy «kuchli» yerlar daromadlarining o'rtacha darajadan oshgan qismigina byudjetga olinadi, xolos.

Tadbirkorlik faoliyatini soliqqa tortishni isloh qilish maqsadlarini quyidagicha tassavur qilish mumkin. Korxonalar va tadbirkorlik faoliyatini soliqqa tortishni isloh qilishning siyosiy belgilangan maqsadi shunday soliqni yaratishdan iborat ediki, bu soliq, tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'iy nazar, korxonaning xo'jalik faoliyati natijasini soliqqa tortsin. Bu soliq 35% dan oshmasligi kerak edi. Ushbu islohot natijasida:

- Germaniya tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradigan qulay investitsion davlatga aylanishi kerak;

- korxonalarning investitsion aktivligi oshadi;

- soliq huquqi soddalashadi;

- Yevropa va global integrasiya bilan bog'liq o'zgarishlar inobatga olinadi.

Germaniyaning moliya vaziri soliq islohoti maqsadini quyidagicha ta'riflaydi: «Islohot maqsadi bo'lib, nemis iqtisodiyotining xalqaro raqobatbardoshligini oshirishdan iborat Xalqaro taqqoslashdagi nominal yuqori soliq stavkalari pasaytirilishi lozim, soliq bazasini hisoblash dunyo standartlariga moslashtirilgan holga keltirishi kerak. Korporatsiyalar va ularning a'zolari — aksiyadorlari uchun kooperativ soliqning yagona stavkasi 25% miqdorida belgilanishi lozim. Xuddi shunday soliq stavkasini sheriklar va xususiy tadbirkorlar uchun kiritishni ko'zda tutayapmiz. Germaniyaning 86% korxonalari nokorporativ shakllarda tashkil etilgan».


Bundan tashqari, islohotlar avvalo adolatli soliq tizimini yaratishga olib kelishi kerak. Bu maqsadga eng avvalo, 2005 yilgacha bo'lgan davr ichida jismoniy shaxslar daromad solig'ini soliqqa tortish stavkalarini sezilarli tarzda pasaytirish natijasida erishiladi. 2005 yilgacha soliq stavkalarining bosqichma-bosqich pasayishi bilan, eng avvalo, Germaniya ichki bozoridagi iste'mol tovarlariga talabining oshishi ko'zda tutilmoqda. Bu bilan nemis hukumati nemis konyukturasi (ahvoliga) yangi impulslar bermoqchi. Korxonalar va tadbirkorlar faoliyatini soliqqa tortishning isloh qilishni birgalikda olib borish va jismoniy hamda yuridik shaxslar daromadga qo'shilgan talab va taklif shart sharoitlarining yaxshilanishiga olib keladi.

2000 yil 6 iyulda Germaniya Bundestagi tomonidan qabul qilingan korxonalar va tadbirkorlar faoliyatini soliqqa tortish islohoti 3 bosqichda o'tkazilishi

kerak edi: 2001 yilda, 2003 yil va 2005 yilgacha. 2005 yilgacha davr ichida aholi va korxonalarining soliq yukini taxminan 50 milliard nemis markasiga yengillashtirish ko'zda tutilgan edi. Haqiqatda esa aynan kichik va o'rta biznes korxonalarini uchun soliq yuki islohot boshida 30 milliard nemis markasiga oshdi chunki moliyalashtirish choralari (soliq bazasini kengaytirish) kuchga kirgan, soliq stavkalarini pasaytirish choralari esa kuchga kirmagan (yoki qisman kuchga kirgan).

11.3. Germaniyada jismoniy shaxslar daromadlari bo'yicha soliq stavkalarining kamayishi sabablari

Quyida jismoniy shaxslar daromadlari bo'yicha soliq stavkalarini kamaytirish islohotining muhim qadamlari tasvirlangan. Germaniyada jismoniy shaxslar uchun soliq stavkalarining pasayishi, bozor iqtisodiyotiga ega bo'lgan ko'p mamlakatlardagi kabi, murakkab progressiya bo'yicha tuzilgan.



1-rasm. 2002 yil daromad solig'i shkalasi, ming yevroda

2-jadval

2002 yil soliq stavkasi

Soliqqa tortiladigan baza	Daromad solig'iga tortiladigan zona
7,235 yevrogacha	Soliqqa tortilmaydigan minimum
7,235 yevrodan 55,007 yevrogacha	Murakkab progressiya (19,9 dan 48,49% gacha)
55,007 yevrodan boshlab	Yuqori soliq stavkasi miqdori 48,5% (9,872 yevro chegirilgan holda)

Jismoniy shaxslarning daromadini soliqqa tortish doirasida minimal va chegaraviy yuqori soliq stavkalari kamayadi, soliqqa tortilmaydigan minimum esa quyidagicha oshadi:

Germaniya soliq dinamikasi

	2001 va 2002 yillar.	2003 va 2004 yillar.	2005 yillar. boshlab
Minimal stavka	19,9%	17%	15%
Eng yuqori stavka	48,5%	47%	42%
Soliqqa tortilmaydigan minimum	7,235 yevro	7,426 yevro	7,664 yevro

11.4. Korporatsiya va uning aksiyadorlarini soliqqa tortish tizimi hamda korporativ soliqqa tortish tizimidagi o'zgarishlarning korxon va tadbirkorlik faoliyatini soliqqa tortish islohotidagi ahamiyati

Korporatsiya hamda ularning aksionerlari, ishtirokchilarini soliqqa tortish tizimidagi o'zgarishlar asosida dividendlarni soliqqa tortish bilan korporatsiyalar va ularning aksionerlari, ishtirokchilarini soliqqa tortish o'zaro mustahkam bog'langan. Nemis adabiyotlarida daromad solig'i bilan foydani taqsimlashdagi korporatsiya solig'i orasidagi bu bog'lanish korporativ soliq tizimi tushunchasi bilan belgilanadi. Korporativ soliq tizimi daromad solig'i va korporativ soliqning o'zaro ta'sir usuli va darajasi bilan aniqlanadi. 2000 yil oxiriga qadar korporatsiyalarni soliqqa tortishning ikkilangan stavkasi amal qilardi: 1 stavka taqsimlanmagan va 1 stavka taqsimlangan foydaga. Oxirgi yillarda bu stavkalar har doim pasayib bordi. 2000 yilda ular taqsimlanmagan foyda uchun 40%ni, taqsimlangan foyda uchun 30% ni tashkil qildi.

Korporatsiyalarni soliqqa tortishning bu tizimi jismoniy shaxslar, aksionerlar va ishtirokchilarning dividendlarini soliqqa tortishdagi to'liq hisobga olish tizimi deb nomlanadigan tizim bilan bog'liq edi. Bunda hisobga olinadigan summa dividendlari bilan birgalikda daromad solig'iga tortilar edi. Boshqacha qilib aytganda, aksionerlarning shaxsiy daromad solig'i bazasiga dividendlarning yalpi miqdori qo'shilar edi, ya'ni, dividendlar summasi plus korporatsiyaning daromad solig'iga tortiladigan daromadi summasi hisoblanadi. Dividendlarning yalpi miqdoriga shaxsiy daromad solig'ining eng yuqori stavkasi qo'llaniladi. Korporativ soliq summasi aksiyador-ishtirokchilarning soliq majburiyatlarini aniqlashda ham hisobga olinadi. Agar hisobga olingan korporativ soliq summasi aksiyador-ishtirokchilarning soliq majburiyatlari bo'yicha daromad solig'idan oshsa, ushbu oshgan qismi farqi byudjetdan qoplanadi. Bunday tizimni qo'llash natijasida korporatsiyalar foydasi jismoniy shaxs darajasida soliqqa tortiladi, xolos.

Ushbu tizimda soliqning rezidentlar va norezidentlari uchun teng bo'lmagan holati muammoli bo'lib qoldi: korporativ soliqni to'liq hisobga olish faqat rezidentlarning soliq majburiyatlarida qo'llaniladi. Nemis hukumati ushbu tizimni, Yevropa integratsiyasi jarayoni talablariga javob bermaydi, deb qaradi. Bundan tashqari, nemis manbalaridan olingan dividendlar va Germaniyadan tashqaridagi

manbalardan olingan dividendlar turlicha soliqqa tortilib, xorijiy korporativ soliqni hisobga olish amalga oshirilmadi.

Korxonalar va tadbirkorlik faoliyatini soliqqa tortishni isloh qilishda korporativ soliqqa tortish tizimini o'zgartirish, ya'ni, korporativ soliqning aksioner, yoki ishtirokchi daromad solig'iga birlashish tizimidan korporatsiya darajasidagi yakuniy soliqqa tortish tizimiga o'tilishi muhim rol o'ynaydi. Bu borada, bir tomondan, korporatsiya darajasida to'langan soliqni to'liq hisobga olish tizimi bekor qilingan bo'lsa, ikkinchi tomondan korporativ soliqning stavkasi o'zgardi. 2001 yildan boshlab korporatsiyalarning taqsimlangan va taqsimlanmagan foydasi yagona va yakuniy 25% miqdordagi stavka bo'yicha soliqqa tortiladi.

Aksionerlarni ishtirokchi darajasida to'liq hisobga olish tizimi dividendni imtiyozli soliqqa tortish tizimi bilan o'zgartiriladi. Jismoniy shaxslar taqsimlanadigan foydasi aksioner ishtirokchi darajasida, dividend shaklida, faqat yarmi miqdorida soliqqa tortiladi, xolos. Qolgan yarmi daromad solig'idan ozod etiladi. Lekin, korporatsiya darajasida to'langan soliqni hisobga olish amalga oshirilmaydi. Bu tizim to'lov manbai joylashgan joyidan qat'iy nazar, (Germaniya hududida yoki undan tashqarida), 1.01.2002 yildan boshlab amal qila boshladi. Bevosita dividendlarni olish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlardan faqat yarminigina olib tashlashga ruxsat etiladi. Korporatsiyalar ulushini sotishdan olingan daromadlarning ham, 2002 yildan boshlab, faqat 50% igina soliqqa tortiladi. Aksionerlar ishtirokchi yuridik shaxs bo'lganda, dividendlarni soliqqa tortish tizimidagi o'zgarishlar, yangi korporativ soliq huquqiga ko'ra, bir korporatsiyaning boshqa bir korporatsiyadan oladigan dividendlarini soliqdan ozod qilishni ko'zda tutadi. Bekor qilingan korporativ soliq huquqi yuqorida ko'rsatilgan imtiyozlarni nazarga tutadi. Bunda quyidagi shartlarga amal qilish talab qilinadi:

a) Germaniyadan tashqarida bo'lgan manbadan olingan daromad deganida ikki yonlama soliqqa tortishga yo'l qo'ymaslik shartnomasi tuzmagan mamlakatda joylashib, aktiv faoliyatni amalga oshirayotgan korporatsiya kapitalida ishtirok etish natijasida daromad tushuniladi.

b) sho'ba kompaniyasining nizom kapitalidagi ulushi 12 oy davomida uzluksiz 10 % dan kam bo'lmagan miqdorni tashkil qilishi kerak. 2001 yildan boshlab, amaldagi dividendni soliqdan ozod qilish tizimi qandaydir shartlarga bo'ysunishni talab qilmaydi. Shu sababli uni dividendning umumiy ozodligi deb atashadi. 2002 yildan boshlab ushbu tizim korporatsiya ulushini boshqa korporatsiyalarda sotish natijasida olingan foydasiga nisbatan ham qo'llanila boshlandi.

Paychilik asosida tashkil qilingan korxonalar, ularning daromadini soliqqa tortish doirasida, soliq huquqi subyektlari hisoblanmaydilar: daromad solig'iga korxonalarining ishtirokchilari (egalari) daromadigina tortiladi. Ushbu ikki xil korxonalarining ishtirokchilari (egalari) o'z korxonalarining qarzlari bo'yicha cheklanmagan (to'liq)

javobgarlikni o'z zimmalariga oladilar. Xususiyl korxonl tomonidan olingan daromadlar daromad olingan paytdan boshlab korxonl egasi daromadi hisoblanadi. Paychilikka ham shu tamoil qo'llaniladi: bunday korxonaning har bir ishtirokchisi korxonl tomonidan daromad olingan paytdan boshlab daromad olgan hisoblanadi, shaxsiyl daromad miqdori esa ishtirokchining korxonl kapitalidagi ulushiga qarab aniqlanadi. Ishtirokchi jismoniy shaxs bo'lganda u har bir ishtirokchi darajasida daromad solig'iga tortiladi.

Misol: A va V shaxslar paychilik ishtirokchilari hisoblanadi. Ularning har biri paychilik kapitalida 50% miqdor bilan ishtirok etadi. 2002 yilda paychilik (nedra solig'iga tortilgandan so'ng) 500000 yevro miqdorida foyda oladi. Ushbu foyda paychilik darajasida soliqqa tortilmaydi. Har bir ishtirokchi 250000 yevro miqdorida daromad solig'iga tortiladigan daromadga ega bo'ladi.

Daromad miqdoriga bog'liq holda qo'llaniladigan soliq stavkasi soliqqa tortiladigan bazaning 9% idan (7,235 yevro past daromadda) 48,5 % igacha miqdorini tashkil qiladi. Soliqqa tortish darajasi ishtirokchining oilaviyl ahvoliga ham bog'liq. Agar u oilali bo'lsa, soliqqa tortishning imtiyozli stavkasi qo'llaniladi. Keltirilgan misolda 2002 yilda daromad solig'i quyidagini tashkil qiladi (V oilali deb hisoblaymiz):

4-jadval

Daromad solig'ini hisoblash

	Soliqqa tortiladigan baza (yevro)	Daromad solig'i (yevro)	O'rtacha soliq stavkasi	Eng yuqori soliq savkasi
A	250 000	111378	44,55	48,5
V	250 000	101514	40,61	48,5

Germaniyadagi paychilik va korporatsiyalar daromadini teng bo'lmagan soliqqa tortish holati olimlar va tadbirkorlar, ularning ittifoq va birlashmalari tomonidan tanqidga uchramoqda. Hozirgi kunda korporatsiya foydasi 38% miqdorida soliqqa tortiladi (korporativ soliq va hamkorlikni qo'llab-quvvatlash soliq ustamasi miqdori 26,38% va nedra solig'i 16,67% miqdor atrofida), shu vaqtning o'zida paychilik ishtirokchilari daromadiga qo'llaniladigan daromad solig'ining chegaraviyl stavkasi 51,6% ni tashkil qiladi (hamkorlikni qo'llab-quvvatlash soliq ustamasi qo'shilgan holda).

Daromad solig'i yukidagi farqni qisqartirish uchun, islohotning birinchi loyihasi opsiyl modelni kiritishni ko'zda tutdi. Ushbu modelga asosan paychilarga

soliqqa tortish modelini tanlash imkoniyati, shuningdek, korporativ soliqqa tortish modeliga optasiya qilish imkoniyati berildi. Ammo ushbu model olimlar tomonidan bir necha marotaba tanqidga uchrab, hayotga tadbiriq etilmadi. Natijada boshqa konsepsiya amalga oshirildi: 2001 yildan boshlab yakka tadbirkorlar va panchilik ishtirokchilariga kompaniya darajasida to'langan nedra solig'i miqdorini daromad solig'i to'lovi majburiyati hisobiga o'tkazish imkoniyati berildi. Nedra solig'ining haqiqiy miqdoriga bog'liq holda, ushbu soliq yuki butunlay yoki qisman kamaytiriladi.

Qisqacha xulosalar

Xulosa qilib ta'kidlash mumkinki, tizim tanqidchilar bilan bir qatorda tarafdorlarga ham ega bo'ladi. Ular turli yo'nalishdagi siyosatchilar, olimlar, tadbirkorlar, ularning ittifoq va birlashmalari orasidadir. O'z-o'zidan ma'lumki, hukumat va uning tarafdorlari qo'llanilayotgan choralarni ma'qullaydilar, siyosiy oppozitsiya tarafdorlari esa qarshidirlar. Tadbirkorlar bahosi esa ushbu islohot natijasi kinga foyda bo'lishi bilan bog'liq holda farqlanadi. Barcha mutaxassislar nemis soliq tizimi islohoti bo'yicha yetilib bo'lgan choralarni hisoblab, umuman soliq stavkalari pasaytirilishi qo'llab-quvvatlamogda. Eng muhim bo'lgan soliq islohotini o'tkazish lozimligi va uning asosiy maqsadlari haqidagi munozara 10 yildan ortiq davom etdi. Ammo korxonalar va tadbirkorlarning soliq yukini pasaytirish bo'yicha qat'iy choralar talab qilinadi.

Umuman olganda qo'llanilayotgan choralarga olimlar tanqidiy yondashdilar. Tanqidning mohiyati shundan iboratki, bu choralar Germaniya federal hukumati tomonidan qo'yilgan maqsadlarga erishish imkoniyati yetarli darajada natija bermadi, ya'ni: nemis soliq tizimi va soliq huquqining soddalashuvi yuz bermadi; xalqaro taqqoslashuvda soliq yuki darajasi yuqoriligicha qoldi; tadbirkorlik faoliyati shakliga nisbatan soliqqa tortishning alohidaligiga erishilmadi. Shunday qilib, Germaniyada soliqqa tortishni isloh qilish, ma'lum ma'noda, hukumat va uning dasturi orqali aniqlanadi, o'z davomi va takomillashuvini talab qiladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Germaniyadagi soliq islohotlari qaysi yo'nalishlardan iborat?
2. Moliyaviy tenglashtirish islohoti nima?
3. Tadbirkorlik faoliyatini soliqqa tortish islohotining maqsadi nimadan iborat va qanday natijalarga erishildi?
4. Germaniyada jismoniy shaxslar uchun soliq stavkalarining kamayishi nimalarga olib keldi?
5. Korporatsiya va uning aksiyadorlarini soliqqa tortish tizimidagi o'zgarishlar hamda korporativ soliqqa tortish tizimidagi o'zgarishlarning korxonalar va

tadbirkorlik faoliyatini soliqqa tortish islohotidagi ahamiyati nimadan iborat bo'ldi?

6. Germaniyada daromad solig'i qanday undiriladi?

7. Paychilik va korporatsiyalar daromadini teng bo'lmagan soliqqa tortish holati qanday muammolarga sabab bo'lmoqda?

8. 2005 yilda soliqqa tortilmaydigan minimum danday miqdorni tashkil etgan?

9. Yerga egalik solig'i kimlardan olinadi?

10. Qurilish solig'iga qanday obyektlar tortiladi? Qanday inshootlar bundan mustasno?

Asosiy adabiyotlar

1. Зойтхаймер К. «Федеративная Республика Германия сегодня» М., 1997.

2. Колчина. В. «Финансы` предприятий»-М: изд. «Финансы и статистика», 1999.

3. В.П.Колесов и М.Н.Осмова «Мировая экономика. Экономика зарубежных стран» учебник М-Флинта 2000.

4. Ковалёва.А.М. «Финансы» – М: издат. «Финансы` и статистика», 2000.

5. Князев В.Г. «Тенденции развития налоговых систем зарубежных странах» Налоговый вестник 1998 г. № 9.

6. Тютюрюков Н.Н. Налоговые системы зарубежных стран: Европа и США: учеб.пос./-М.Дашков и К, 2002.

7. Черник.Д.Т. «Налоги Германии» М.: - Финансы. 2004.

8. Ходов Л.Г., Попов В.И. Подходное налогообложение физических лиц (зарубежный опыт, российские проблемы): Учебное пособие - М.: ТЕИС, 2004.

9. <http://www.byudget.ru> – Rossiya Federatsiyasi byudjet tizimi;

10. <http://www.edu.uz> - O'zbekiston Respublikasi

11. <http://www.google.ru> . - Rossiya Federatsiyasi qidiruv sayti.

XII BOB ITALIYA SOLIQ TIZIMI

12.1. Italiya davlat daromadlarini shakllantirishda soliq turlarining muhim manba hisoblanishi

Italiyaning hozirgi soliq tizimi 1980-yillar oxirida shakllangan. Odatdagi vazifalarni yechishdan tashqari u ma'lum milliy xususiyatlarni saqlab qolgan holda Italiya iqtisodiyotini G'arbiy Yevropa umumiy bozoriga kirishi uchun zarur moliyaviy sharoit yaratishi kerak edi.

Dunyodagi ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda bo'lgani singari Italiyada ham davlat daromadlarining muhim manbalaridan biri jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'i hisoblanadi. U progressiv xususiyatga ega bo'lib, kalendar yil davomida jismoniy shaxslar oladigan sof daromad yig'indisini hisobga oladi. Bunda fuqarolarning shaxsiy yeridan olgan daromadlari, shaxsiy kapitaldan, yollanma ishlardan, tadbirkorlik faoliyatidan va boshqa manbalardan tushgan daromadlari jamlanadi¹⁹.

O'z navbatida shaxsiy yerdan olgan daromadlari yer uchastkalaridan va qurilishdan tushgan daromadlardan tashkil topadi. Birinchisi yerga egalik qilishdan yoki agrar faoliyat yuritishdan kelib tushadi. Ikkinchisi binolar va inshootlarni bevosita egasi tomonidan ekspluatatsiya qilishi va ularni ijaraga berish natijasida olingan daromadlardan tashkil topadi.

Yer rentasi o'lchami kadastr reestri bilan tartibga solinadi. Qurilish inshootlaridan soliqlar belgilangan tarif asosida bevosita egasi tomonidan foydalanilayotgan inshootlardan o'rnatiladi. Ijaraga berilgan qurilishlardan tushadigan soliqlar o'lchami ijara shartnomasida belgilangan yillik ijara haqi bilan aniqlanadi. Umumiy sof daromadni hisoblash va soliqqa tortish maqsadida ijara haqi 10 foizga kamayadi, bino va inshootlarni ekspluatatsiya qilish ehtiyojini hisobga olib yana 15 foizga pasayishi mumkin.

Kadastrli baholash oxirgi 10 yilda bir marta qayta ko'riladi. Ammo moliya vazirligi tomonidan ular o'rtasidagi me'yoriy hujjatlarga tuzatish koeffitsientlari kiritilishi mumkin.

Yer egalik solig'ini hisoblashda faqat qishloq xo'jaligi faoliyati uchun yaroqli yerlar inobatga olinadi. Qurilish solig'ini hisoblaganda shahardagi uylar, dala hovlilar hisobga olinadi, biroq qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash inshootlari, ishlab chiqarish va savdo korxonalar uchun yordamchi qurilish inshootlari omborlar va qo'riqxonalar, hamda molxonalar bundan istisno.

Kapital daromadlariga jismoniy shaxslarning banklardagi hisob raqamlariga

¹⁹ «Налоговые системы зарубежных стран». Учебник для вузов. Под. Ред. Проф. В.Г.Нязова, проф. Д.Г.Черника 2-е издание, переработан. м. «Закон и право», ЮНИТИ, 1997.

qo'yilgan jamg'arma foizlari, dividendlar, annuitetlar, lotoreya yutuqlari va boshqalarni o'z ichiga oladi. Bunda soliq yagona stavkada bank yoki boshqa muassasalar tomonidan to'lov amalga oshirilayotgan vaqtda ushlanadi.

Yollanma mehnat daromadi ish haqidan tashqari pensiyani ham o'z ichiga oladi. Ish haqi va pensiyadan tashqari daromad manbaiga ega bo'lmaganlar soliq deklaratsiyasi berishdan ozod qilinadilar.

Tadbirkorlik faoliyatidan daromad aholini shu faoliyat bilan shug'ullanuvchilarga tegishli bo'lib, soliqlar sof foydadan hisoblanadi. Faqat kasbiy faoliyat bo'yicha, masalan, vrachlik yoki advokatlik amaliyoti va ijodiy mashg'ulotda haqiqiy xarajatlar chegirib tashlanadi. Jismoniy shaxslardan daromad solig'i stavkalari progressiv xususiyatga ega. Ularga inflyatsiya indeksini hisobga olib, har yili o'zgartirish kiritiladi.

1993 yilda 7,2 mln.lirgacha daromadga 10% stavkasida, 7,2 mln. lirdan 14,4 mln.lirgacha 22%, 14,4 mln. lirdan 30 mln. lirgacha 27% va undan yuqorilariga 50% gacha soliq solingan. 1980-yillarda daromad solig'ining mutloq stavkasi 62%ga yetgan.

Oilasida boqimandalari bor yoki 5,1 mln.lirdan kam daromad oluvchilar soliq imtiyozlaridan foydalanadilar.

Daromad solig'ini to'lovchilarning o'zlari soliq to'grisidagi deklaratsiyani to'ldirish yo'li bilan hisoblaydilar va soliq tashkilotlariga taqdim etadilar.

Yuridik shaxslardan daromad solig'i daromadliliigi bo'yicha ikkinchi bevosita soliq hisoblanadi. Bu soliq mutanosib bo'lib, byudjetga 36 foiz belgilangan stavkada to'lanadi. Daromad solig'ini aniqlashda ish haqi yalpi daromaddan chegirilib, foydaning sherigi, ya'ni kompaniya direktorining to'lovlari hisobga olinmaydi. Ilmiy tekshirish ishlariga sarflar to'la chegiriladi. Zarur bo'lganda zarar keyingi yil foydasiga qo'shib yuboriladi, bu 5 yil davomida amalga oshiriladi. Bu ikki soliq umumdavlat solig'idir. Bulardan tashqari Italiyada jismoniy va yuridik shaxslarga mahalliy daromad solig'i ham qo'llaniladi. Soliq stavkasi 16,2 foiz. Bu soliqni hisoblashda yollanma ish daromadi, kasbiy faoliyat daromadi hamda yerga egalik qilishi hisobga olinmaydi. Soliq markaziy hukumat tomonidan undirilib, keyinchalik mahalliy byudjetga to'la o'tkaziladi.

Italiyaning egri soliqlari sirasiga - qo'shilgan qiymat solig'ini ko'rsatish mumkin. Soliqqa tortish uchun qo'shimcha qiymat tovar va xizmatlar sotuvidan tushgan foyda va tovar hamda xizmatlar tannarxi o'rtasidagi farq sifatida hisoblanadi. Soliq tadbirkordan ishlab chiqarish yoki kommersiya doirasiga o'tish davrida olingan tovarlar qiymatini o'sishi miqdorida undiriladi. Odatda Italiyada qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 19 foizni tashkil etadi. Ammo 13,9 va 4 foizli chegirib tashlanadigan soliq stavkasi ham amal qiladi. Chegirmalar oziq-ovqat tovarlariga, gazeta va jurnallarga qo'llaniladi. Tovarlar eksporti, xalqaro xizmat va ular bilan bog'liq operatsiyalar uchun QQS solinmaydi.

Iste'mol uchun zarur tovarlarning ayrim turdagi egri soliqlar (aksiz solig'i) tovarlarga qo'llaniladi. Masalan, ularga o'tkir alkogol ichimliklari, pivo, gugurt, bananlar, qurilish materiallari, elektroenergiya, neft va neft mahsulotlari kiradi.

12.2. Ko'chmas mulk qiymatini oshirganligi uchun soliqni hisoblash tartibi. Reklama solig'i

Ko'chmas mulk qiymatini oshirganligi uchun soliqlar 1970-yillarning o'rtalarida joriy qilindi. U soliqlar o'sib boruvchi shkalasi bilan pog'onama-pog'ona qo'llaniladi. Soliqqa tortish obyekti sifatida Italiyada ko'chmas mulklarning (bino, inshoot, bo'sh qurilish maydonlari va boshqalar) dastlabki qiymati va pirovard bahosi o'rtasidagi farq xizmat qiladi. Soliqqa tortish mulkni mazkur soliq to'lovchining qo'lga o'tkazish vaqtidan boshlanadi.

Reklama – solig'i mahalliy soliqdir. Bunda reklama e'lonlari va boshqa turdagi reklamalar (jamoat joylardagi) soliqqa tortiladi.

Mamlakatning turli joylarida mahalliy organlarning moliyaviy ahvoriga qarab hamda reklama faoliyatining maqsadi va turlariga ko'ra soliq stavkasi turlichadir.

12.3. Avtotransport solig'i, tamg'a yig'imi, davlat komission yig'implari

Avtotransport solig'i ham davlat, ham mahalliy soliq sifatida mavjud. Bu soliqqa avtotransport egalari bo'lgan barcha yuridik va jismoniy shaxslar tortiladi. Soliq stavkasi silindr hajmi va motor quvvatiga (ot kuchiga) qarab farqlanadi. Jamoat maydonlaridan foydalanganlik uchun soliq mahalliy hokimiyatga qarashli jamoat joylarining hajmi, joylashgan yeri va foydalanish maqsadlariga qarab mahalliy hokimiyat tomonidan o'rnatiladi. Soliq stavkalarini aniqlash uchun jamoat maydonlari sinf va kategoriyalarga ajratiladi.

Tamg'a yig'imi har qanday davlat va ma'muriy dalolatnoma, hujjat va reestrlarni olishda to'lanadi. Uni olish turlicha: tamg'ali qog'oz yoki suv belgisi bor qog'ozlardan foydalanganda, tamg'ali markalarni undirishda, pochta yig'implarini to'lashda va boshqa to'lovlar. Uning stavkasi hujjat va bitim summasiga bog'liq.

Ro'yxatdan o'tkazish yoki rasmiylashtirish yig'implari reestr tashkilotlari tomonidan o'rnatiladi va rasmiylashtirish uchun, ya'ni ma'lum dalolatnomalarni davlat reestrlariga yozish uchun xizmat qiladi.

Davlat komission yig'implari ayrim ma'muriy dalolatnomalariga joriy qilinadi: passport haydovchilik guvohnomasi muzlatkichlarga egalik qilish uchun ruxsatnoma berish va boshqalar. Yig'implar hujjatlarni berishda va yangilashda amalga oshiriladi. Yig'implar uchun odatda maxsus markalar qo'llaniladi.

Mahalliy litsenziya yig'implari jamoat joylarida mavsumiy savdo qilish huquqini olish uchun joriy qilinadi.

Vorislik va hadya qilish uchun soliq ikki qismdan iborat bo'lib, bir vaqtda qo'llaniladi. Birinchi qism yangi mulk egasiga o'tish qiymatiga bog'liq. Soliqqa

tortilmaydigan minimum bu yerda 120 mln. lirni tashkil etib, keyin 3 foizli minimal va 27 foizli maksimal stavkali o'sib boruvchi shkala bo'yicha amal qiladi²⁰.

Ikkinchi qism qarindoshligiga bog'liq bo'lib, er-xotin, bolalari va ota-onalari undan ozod qilinadilar.

Maqsadli yig'imglar ham mavjud. Masalan, maktab uchun soliq yig'imi, davlat yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun yig'im va boshqalar.

12.4. Italiyada daromad soliqlarini undirish usullari. Soliq xususida qonunbuzarliklarning oldini olish choralari

Italiyada daromad soliqlarini undirish usullarini quyidagicha ifodalash mumkin:

- soliqlarni byudjetga bevosita o'tkazish;
- yig'imglarni to'lashda soliq ushlab;
- beriladigan ro'yxat-soliq reestri orqali soliqqa tortish.

Birinchi 2 ta usul aksariyat yerlarda keng amal qiladi. Italiyada soliq undirishda soliq reestri shunday hollarda foydalaniladiki, qachonki soliq to'lovchi bevosita soliqli to'lamaganda yoki yig'imglarni to'lashda undan ushlab qolganda. Bunday holatda soliq boshqarmasi maxsus reestrda ro'yxatga olib to'lovni ta'minlaydi. Reestr maxalliy soliq byurosi ishchilari tomonidan tuzilib, unda ro'yxatga olingan dalillar hudud soliq boshqarmasiga beriladi. Soliqlarni soliq reestriga kiritish bilan foizlar, qo'shimcha yig'imglar va pul jarimalari undiriladi. Agar to'lov o'z vaqtida kelmasa, unda soliq to'lovchiga ogohlantirish yuboriladi, keyin majbur qilish chora-tadbirlari amalga oshiriladi. Shunda ham to'lama sanksiya qo'llaniladi. Bunday hollarda soliq tashkilotlari soliq qonunchiligini buzgan shaxsni mol-mulkini musodara qilib, auksionda oshkora sotishi mumkin.

Bulardan tashqari, Italiya qonunchiligida soliqqa tortiluvchi daromadni yashirsa, jinoiy xususiyatga ega bo'lgan alohida huquq me'yorlari joriy qilinadi.

Soliq xususida qonunbuzarlik quyidagi holatlarda juda og'ir hisoblanadi:

- daromadi 50 mln. lirdan oshganda deklaratsiya to'ldirmasa;
- buxgalteriya yozuvlari bo'lmasa;
- soxta jarayon hisob raqamlaridan foydalansa va ko'chirma olsa;
- daromadini qastdan past ko'rsatsa.

Bunday dalillar ishni sudga oshirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Qisqacha xulosalar

Dunyodagi ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda bo'lgani singari Italiyada ham davlat daromadlarining muhim manbalaridan biri jismoniy shaxslardan

²⁰ Князев В.Г. «Тенденции развития налоговых систем зарубежных странах» Налоговый вестник 1998 г. №9.

undiriladigan daromad solig'i hisoblanadi. U progressiv xususiyatga ega bo'lib, kalendar yil davomida jismoniy shaxslar oladigan sof daromad yig'indisini hisobga oladi. Bunda fuqarolarning shaxsiy yeridan olgan daromadlari, shaxsiy kapitaldan, yollanma ishlardan, tadbirkorlik faoliyatidan va boshqa manbalardan tushgan daromadlari jamlanadi. Shunday qilib, jismoniy va yuridik shaxslardan daromad soliqlari, yer va ko'chmas mulklarni soliqqa tortish bitimlari hamda iste'mol tovarlari uchun egri soliqlar mamlakat daromadining asosiy qismini ta'minlaydi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Italiya davlat daromadlarini shakllantirishda qaysi soliq turi muhim manba hisoblanadi?

2. Italiyada egri soliqlar qaysi soliqlarga kiradi?

3. Ko'chmas mulk qiymatini oshirganligi uchun soliqni hisoblash tartibi danday?

4. Avtotransport solig'i qanday undiriladi?

5. Tamg'a yig'imi deganda nimani tushunasiz?

6. Davlat komission yig'implari to'g'risida nimalarni bilasiz?

7. Italiyada daromad soliqlarini undirish usullari qanday?

8. Soliq xususida qonunbuzarliklarni oldini olish chorolari qanday amalga oshiriladi?

9. Yerga egalik solig'i kimlardan olinadi?

10. Qurilish solig'iga qanday obyektlar tortiladi? Qanday inshootlar bundan mustasno?

Asosiy adabiyotlar

1. «Налоги и налогообложение» 3-е издание под ред. М. Романовского и О. Врублёвской. М.: 2002.

2. Колесов В.П. и Осмова М.Н. «Мировая экономика. Экономика зарубежных стран» Учебник М. Флинта 2000.

3. Ковалёва А.М. «Финансы» – М: издат. «Финансы и статистика», 2000.

4. Тютюрюков Н.Н. Налоговые системы зарубежных стран: Европа и США: учеб. пос./-М. Дашков и К, 2002.

5. Ходов Л.Г., Попов В.И. Подходящее налогообложение физических лиц (зарубежный опыт, российские проблемы): Учебное пособие - М.: ТЕИС, 2004.

6. <http://www.byudget.ru> – Rossiya Federatsiyasi byudjet tizimi;

7. <http://www.edu.uz> - O'zbekiston Respublikasi

8. <http://www.google.ru> . - Rossiya Federatsiyasi qidiruv sayti.

XIII BOB ISPANIYA SOLIQ TIZIMI

13.1. Ispaniyada soliq tizimining tuzilishi. 1994 yildagi soliq islohotlari

Ispaniya ma'muriy bo'linishi jihatidan 17 ta avtonom hududga bo'lingan bo'lib, o'z navbatida ular 56 viloyatni o'ziga birlashtiradi. Lekin avtonom hududlar o'zining mavqei darajasi bir xil emas. Mamlakatda Navarra va Baskov boshqa avtonomiyalar ichida kattaroq avtonomiya huquqiga ega bo'lib, bu hol ularga turli xil hududiy va mahalliy soliqlarni joriy qilish huquqini berdi. Shuningdek, ular o'zlari federal soliqlarni yig'ib, qonun bilan belgilangan foizini o'z vaqtida federal byudjetiga o'tkazib beradilar. Ulardan keyingi guruhga Kataloniya hududi kiritilib, ularga ham soliq stavkalarini tartibga solish huquqi berilgan. Uchinchi guruhga esa o'z hududlarida mustaqil soliq siyosatini yurgizish huquqi berilmagan. Ular Federal soliq qonunchiligiga qat'iy rioya qilib boradilar.

Ispaniya o'zining ma'muriy-hududiy bo'linish jihatidan 3 pog'onali soliq tizimiga ega. Mamlakat aholisi va korporatsiya federal, mintaqaviy va mahalliy soliqlarni to'laydilar. Federal soliqlarni nazorat qilish avtonomiyalar va viloyatlarda joylashgan Davlat soliq xizmati xodimlariga yuklatilgan.

Hududlar moliyaviy manbasini mustahkamlash maqsadida 1994 yilda Ispaniyada qisman soliq islohotlari o'tkazildi va ayrim federal soliqlarni hududlarda joriy qilish belgilandi. Shundan so'ng federal soliqlarning besh turi qoldi, xolos.

13.2. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va korporatsiya foydasidan olinadigan soliqlar

Ispaniya byudjetining asosiy daromad qismini jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i ta'minlaydi. 1995 yilda bu turdagi soliqlar Federal byudjet daromadining 38 foizini yoki 5399 mlrd. pesetni tashkil qildi.

Ko'pchilik Yevropa mamlakatlariga nisbatan Ispaniyada soliqqa tortish bazasi keng bo'lib, oylik ish haqidan olinadigan soliqdan tashqari, tadbirkorlik va kasbiy faoliyatidan olingan daromaddan, kapital sarmoyadan olinadigan dividend hamda pensiya va ihsizlik uchun olinadigan nafaqalar ham kiradi. Lekin kasallik nafaqasi, davlat stipendiyalari, lotoreya yutuqlari, ishdan bo'shayotgandagi bir martalik nafaqalar daromad solig'iga tortilmaydi.

Soliqqa tortish bazasidan oiladagi har bir bola uchun va 65 yoshdan katta bo'lgan har bir qariya uchun 20 ming pesetgacha chegirib tashlanadi. Shuningdek, bir yillik daromaddan ijtimoiy sug'urta va kasaba uyushmasi uchun to'lovlar summalari 250 ming peset yoki 5 foizdan ko'p bo'lmagan miqdorda chegirib tashlanadi. Dori-darmon uchun hujjatlashtirilgan xarajatlarning bir qismi ham chegirib tashlanadi.

Daromaddan soliq hisoblanayotganda ko'chmas mulk qiymatining 2 foizi qo'shib hisoblanadi.

Daromad solig'i yakka tartibda yoki oilaviy juft bo'lib to'lanadi. Soliqqa tortilmaydigan minimum yillik daromaddan birinchi holatda (yakka tartibda) 400 ming peset, ikkinchi holatda (er-xotin) 800 ming pesetni tashkil qiladi. Daromadning o'sib borishini hisobga olib 16 stavkali progressiv shkala joriy qilingan. Uning minimal stavkasi 20 foiz, maksimal stavkasi 56 foizni tashkil etadi. Yakka tartibda fuqaroning olgan daromadi bir yilda 9550 ming pesetdan oshganda; oilaviy juftlikning daromadi 11000 ming pesetdan oshganda eng yuqori soliq stavkasi qo'llaniladi.

Ta'kidlash joizki, 16 stavkali daromad solig'ini hisoblab chiqarish ancha noqulayliklar tug'dirmoqda. Shuni hisobga olib Ispaniyada daromad solig'i stavkalarini qisqartirish to'g'risida takliflar ishlab chiqmoqda.

Federal byudjetga tushgan daromad solig'ining 15 foizi hududiy byudjetga o'tkazib beriladi.

Korporatsiya foydasidan olinadigan soliq asosiy to'g'ri soliqlardan biri bo'lib, uning stavkasi 35 foizni tashkil qiladi. Kooperativlar uchun soliq stavkasi 26 foizgacha kamaytiriladi. Investisiya jalb qilinganda 5 foiz soliq imtiyozi qo'llaniladi. Qo'shimcha tashkil etilgan har bir ishchi o'rini uchun soliqqa tortish bazasi 15 ming pesetga kamaytiriladi. Shuningdek, madaniyat sohasiga, ayniqsa kino ishlab chiqarish, ta'lim va kadrlarni kasbga tayyorlash sohalariga sarf qilingan sarmoya uchun ham imtiyozlar belgilangan. Korporatsiya foydasidan olinadigan soliqlar federal byudjet daromadining 8,2 foizni tashkil qiladi.

13.3. Qo'shilgan qiymat solig'i, qimor o'yinidan olinadigan soliqlar

Qo'shilgan qiymat solig'i Ispaniya federal soliq tizimida asosiy o'rinni egallaydi. 1986 yildan Ispaniyaning Yevropa Iqtisodiy Ittifoqiga a'zo bo'lib kirishi bilan ushbu soliq turi joriy qilingan. Bu soliq tendensiyasining keyingi yillarda o'sishi kuzatilmoqda yoki 1993 yilda soliq stavkasi 12 foizdan 15 foizga o'zgartirilgan. 1994 yildan qo'shilgan qiymat solig'i 16 foiz qilib belgilangan. Lekin oziq-ovqat mahsulotlari, madaniy va jismoniy tarbiya (sport) tadbirlari, yotoqxon va transport xizmatlari uchun qo'shilgan qiymat solig'i 7 foiz miqdorida qo'llaniladi. Asosiy ehtiyojlar uchun zarur mahsulotlar: non, sut, tuxum, don, meva, sabzavot, dori-darmon, kitoblar, ro'znomalar, davlatga qarashli imorat uylari uchun QQS 4 foizgacha tushiriladi.

Ko'pgina mamlakatlar singari Ispaniyada ham ichki tovar oboroti mahsulotlari (eksport operatsiyalaridan tashqari) qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladi. Kasalxonalarda ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlar, moliyaviy, bank va sug'urta operatsiyalari, ta'lim sohalarida qo'shilgan qiymat solig'iga tortilmaydi. Qo'shilgan qiymat solig'i federal byudjetning daromad qismining 24,9 foiziga teng.

Ispaniya federal byudjeti bilvosita soliqlardan ikkinchi asosiy soliq bo'lib, aksiz solig'i hisoblanadi, u federal byudjet daromad qismining 13,2 foizini tashkil qiladi. Yevropa mamlaktlaridagi kabi aksiz solig'i alkogol ichimliklaridan, tamaki mahsulotlari, yoqilg'i, avtomobillar va boshqa ayrim mahsulotlardan to'lanadi.

Yuqorida qayd etilgan to'rt xil soliq Ispaniya federal byudjetining 84 foizdan ko'prog'ini tashkil qiladi. Qolganini bojxona bojlari, soliq to'lovlarini o'z vaqtida to'lamaganliklari uchun penya va soliq bo'lmagan to'lovlar tashkil qiladi.

13.4. Xususiy mulk yoki mol-mulk solig'i, meros yoki sovg'a tarzida o'tgan mol-mulk solig'i, mahalliy soliqlar

Ispaniyada xususiy soliqlar 12193 mln. pesetdan iborat bo'lib, ular byudjet daromadining 1,1 foizni tashkil qiladi. Ularning asosiysi sifatida «bingo» o'yini solig'ini aytish mumkin. Bu soliq 10043 mln. peset yoki byudjet daromadining 0,6 foizni tashkil qiladi. «Bingo» o'yini solig'i «bingo» chiptalarini sotish paytida oddiy yo'l bilan chiptalarning narxiga 32 foiz stavka qo'shish hisobiga olinadi.

Qimor o'yini soliqlari kazino, atraksion, luna-parklar, avtomat o'yinlaridan undiriladigan soliq (bingodan tashqari) — 3750 mln. pesetdan iborat yoki byudjet daromadining 0,2 foizini tashkil qiladi. Soliq stavkalari 20 foizdan 55 foizgacha o'zgarib turadi.

Suv ta'minoti tizimi va kanalizatsiya soliqlari 5400 mln. peset yoki 0,3 foizni tashkil qiladi.

Soliqlarning ikkinchi guruhi (oldingi federal byudjet soliqlari) Kataloniya byudjetining 211850 mln. pesetni yoki 12,3 foizni tashkil qiladi.

Xususiy mulk yoki mol-mulk solig'i — byudjetda 28600 mln. pesetni yoki 1,7 foizni tashkil qiladi. Soliqqa tortilmaydigan minimum 17 mln. pesetni tashkil qiladi. Bu soliq stavkasi progressiv shkalaga ega bo'lib, bir yilda stavka 0,2 foizdan 2,5 foizgacha o'sishi mumkin. Eng yuqori stavka mulk qiymatining eng yuqori narxi 1,6 mlrd. pesetdan oshganda qo'llaniladi. Tarixiy va madaniy ahamiyatga ega bo'lgan qimmatbaho narsalar soliqqa tortilmaydi.

Meros yoki sovg'a tarzda o'tgan mol-mulk soliqlari byudjetda 34200 mln. peset yoki 2 foizni tashkil qilgan. Soliq stavkasi — 7,65 foizdan 34 foizgachani tashkil qiladi. Soliq miqdorini aniqlashda eng katta imtiyozlarga to'g'ri keladigan merosxo'rlar belgilangan. Agar u 21 yoshdan katta bo'lsa, mol-mulkning umumiy narxidan 2470 ming peset ayiriladi, 21 yoshdan kichik bo'lsa, 21 yoshga yetgach har yiliga 617 ming peset qo'shimcha imtiyoz beriladi. Ammo chegirmalarning hajmi 7808 ming pesetdan oshmasligi kerak. Ikkinchi va uchinchi darajadagi merosxo'rlarga imtiyozlarning hajmi ikki barobarga, ya'ni 1235 ming pesetgacha kam hisoblanadi.

Uzoq qarindoshlik darajadagi merosxo'rlarga va aloqasi yo'q fuqarolarga chegirmalar umuman mol-mulkni o'tkazish solig'i – 110750 mln. peset yoki 6,4 foizni tashkil etadi. Soliq to'lovchi bo'lib, mulk oluvchi yoki ijaraga oluvchi yuridik shaxslar hisoblanadi. Ko'char mol-mulklarni o'tkazishda 4 foiz, ko'chmas mol-mulklarni o'tkazishda 6 foiz soliq stavkasi o'rnatilgan. Qimor o'yinlariga o'rnatilgan federal soliq – 38300 mln. peset yoki 2,2 foizni tashkil etadi.

Federal hukumat bilan kelishilgan holda viloyatlar boshqa mayda soliqlarni kiritish huquqiga ega. Masalan, hayotni sug'urtalash solig'i. Uning stavkasi bir yilga 0,2 foizni tashkil qiladi. Agar sug'urta summasi 17000 pesetdan oshib ketsa, soliq stavkasi 0,5 foizgacha oshiriladi.

Mahalliy soliqlar ichida Kataloniya viloyatlarida o'rnatilgan uchta asosiy soliqlarni ko'rsatish mumkin. Bu eng avvalo ko'chmas mulk solig'i: mintaqa hudud chegarasidagi yer joylari va imorat qurilishlarga joriy qilinadi. 1995 yil Kataloniya mahalliy byudjetida shu soliqdan 74069 mln.peset tushishi ko'zda tutilgan, bu mintaqa daromadining 14,9 foizini tashkil etadi. Mulklarni baholash ishlarini kadastr boshqarmasi amalga oshiradi. Stavkalar differensiyalashgan, munitsipalitet tomonidan tartibga solish ishlari amalga oshirib boriladi.

Undan keyin iqtisodiy faoliyat solig'i. Bu soliq turi mahalliy byudjetning 3,4 foizni yoki 16677 mln. pesetni keltiradi. Bu soliqni tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar to'laydilar. Bu soliq miqdori ko'pgina omillarga: faoliyat turiga, egallangan bino yoki imorat maydonining kattaligiga, energiyaning iste'mol miqdoriga, korxonaning joylashish yeriga mintaqa koeffitsientiga va boshqalarga bog'liq.

Avtotransport solig'i mahalliy byudjetning 20359 mln. pesetini yoki 4,1 foizini ta'minlaydi.

Mahalliy soliqlardan yer va joylarning narxi oshib borishi tufayli joriy qilinadigan soliqni aytib o'tish mumkin. Bu soliq, yer joylarining egasi o'zgarganda, kadastr narxining oshirilgan qiymati hisobidan olinadi.

Jamiyat ahamiyatidagi binolarni qurish solig'i xarajatlarni qoplash uchun joriy qilinadi. Shaxsiy xususiyatdagi xizmat xarajatlarini qoplash uchun ushbu soliqlar kiritilgan. Masalan, axlatlarni olib ketish solig'i, aholi yashaydigan uylarning atrofni asfalt qilish xarajatlari shu joyda yashovchi uy egalariiga bo'linadi.

Qo'shimcha mintaqaviy soliqlar faqat yuqori boshqaruv organlarining ruxsati bilan kiritiladi.

Qisqacha xulosalar

Tahlil natijalari yuzasidan aytish mumkinki, mintaqalarga ayrim daromad manbalari berilishiga qaramay, Ispaniyada soliqlarini «tepadan pastga» qayta taqsimlash sodir bo'lmoqda.

Ispaniya davlat soliq xizmati agentligi o'zining axborot markazi orqali soliq to'lovchilarni ro'yxatdan o'tkazish va hisobga olish masalalarini muvaffaqiyatli hal qilgan. Har bir yuridik va jismoniy shaxs o'zining identifikatsion raqamiga ega. Yuridik shaxsga bu raqam yangi kompaniya ro'yxatdan o'tgan paytda soliq xizmati tomonidan beriladi. Jismoniy shaxslarni hisobga olishda ichki ishlar vazirligi tomonidan berilgan identifikatsion raqamidan foydalaniladi. Soliq to'lovchilar haqidagi ma'lumotlar Madrid soliq xizmati agentligining kompyuter tizimiga joylashtirilgan.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Ispaniyada soliq tizimi qanday tuzilgan?
2. 1994 yildagi soliq islohotlari nimalarga olib keldi?
3. Korporatsiya foydasidan olinadigan soliq to'grisida tushuncha bering.
4. Qo'shilgan qiymat solig'i qanday undiriladi?
5. Qimor o'yinidan olinadigan soliqlar bo'yicha tushuncha bering.
6. Xususiy mulk yoki mol-mulk solig'ini undirish mexanizmi qanday?
7. Meros yoki sovg'a tarzida o'tgan mol-mulk solig'ini undirish tartibi qanday?
8. Mahalliy soliqlar haqida tushuncha bering.
9. Ispaniyada qanday daromadlar daromad solig'iga tortiladi?
10. Aksiz solig'i qanday mahsulotlardan undiriladi?

Asosiy adabiyotlar

1. Алле М. За реформу налоговой системы. Переосмысливая общепризнанные истины /Перевод с французского. Под ред. И.А. Егорова.- М.: ТЕИС, 2001.

2. Колесов В.П. и Основа М.Н. «Мировая экономика. Экономика зарубежных стран» Учебник М-Флинта 2000.

3. Ковалёва.А.М. «Финансы» — М: издат. «Финансы и статистика», 2000.

4. Тютюрюков Н.Н. Налоговые системы зарубежных стран: Европа и США: учеб.пос./-М.Дашков и К, 2002.

5. Ходов Л.Г., Попов В.И. Подоходное налогообложение физических лиц (зарубежный опыт, российские проблемы): Учебное пособие - М.: ТЕИС, 2004.

6. <http://www.edu.uz> - O'zbekiston Respublikasi

7. <http://www.google.ru> . - Rossiya Federatsiyasi qidiruv sayti;

8. <http://www.finansiy.ru> — Финансы jurnalining sayti;

9. <http://www.glossary.ru> — Iqtisodiy terminlar.

XIV BOB MISR ARAB RESPUBLIKASI SOLIQ TIZIMI

14.1. Misr Arab Respublikasi soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlari

Misr Arab Respublikasi Afrikaning shimoliy sharqida joylashgan, hududi 1,0 mln.kv.kilometrdan, aholisi 70,0 mln. kishidan iborat. Ishga yaroqli aholisi 18,5 mln. kishini va ishsizlik 9,3 foizni tashkil etadi.

Davlat byudjeti to'grisidagi kodeksi 1973 yilda qabul qilingan va hozirga qadar amal qiladi.

Davlat byudjetining 60 foizi soliqlardan va 40 foizi boshqa tushumlardan tashkil topgan. 2002 yilda soliqlardan 69,1 mlrd.funt va boshqa tushumlardan 25,0 mlrd.funt tushgan. Mamlakatda soliqlar bilan to'rtta asosiy boshqarma shug'ullanadi: Umumdavlat soliqlari, savdodan soliq, bojxona va mulkdan to'lanadigan soliqlar boshqarmalari²¹.

14.2. Yuridik va jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan foyda solig'i stavkalari

Misr Arab Respublikasida soliqlar ikki turga bo'linadi:

- jismoniy va yuridik shaxslar daromad yoki foydasiga bevosita soliqlar;
- tovarlar, xizmatlar va moliyaviy natijaga bilvosita soliqlar.

Misrda yuridik shaxslarni soliqqa tortish tartibi qo'shma korxonalar, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar, yopiq aksiyadorlik jamiyatlari, chet el korxonalari va chet el korxonalari filiallariga (agar filialning asosiy ofisi chet elda joylashgan bo'lsa) nisbatan qo'llaniladi.

Korxonalarining foydasidan olinadigan soliqning standart stavkasi 40 foizdan iborat. Ayrim faoliyat turlari bo'yicha maxsus soliq stavkalari qo'llaniladi:

- yoqilg'i kompaniyalarida – 40-55 foiz;
- eksport qiluvchi korxonalarda – 32 foiz;
- sanoat korxonalarida – 32 foiz.

Kapitalni sotishdan kelgan foyda oddiy foyda sifatida soliqqa tortiladi. Rezident korxonalarining chet el manbaalaridan olgan dividendlari 32 foiz stavka bo'yicha soliqqa tortiladi, lekin ularning chet elda to'lagan soliqlari hisobga olinadi (chegiriladi). Misr fond birjasida ro'yxatga olingan qimmatli qog'ozlardan olingan foizlar soliqdan ozod qilingan. Korxonalar zarar ko'rsa, shu ko'rgan zarari keyingi yilda olingan foydasidan cheginib qolinadi va soliqqa tortilmaydi. Misr soliq qonunchiligi bo'yicha sheriklik jamiyatlari hamda mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soliqdan ozod qilingan. Sheriklik jamiyatlarining har bir azosi alohida jamiyatning umumiy foydasidagi hissasiga qarab soliqqa tortiladi.

Bir nechta jismoniy shaxs birlashib, sheriklik korxonalari tashkil etishlari mumkin. Ushbu korxonalar yuridik shaxs emas, balki jismoniy shaxs deb qaraladi. Sheriklik korxonasining har bir a'zosi o'z olgan daromadlari to'grisida deklaratsiya topshiradi va soliq to'laydi.

Soliq qonunchiligiga asosan jismoniy shaxslar quyida keltirilgan beshta manbadan olgan daromadlari uchun har xil soliq stavkalari bo'yicha soliq to'laydilar:

- 1) Harakatdagi kapitaldan olingan daromadlar. Uning stavkasi yalpi daromaddan

²¹ «Солиқ ва бојхона хабарномаси» газетаси. 2003 йил 38-сон.

32 foiz, to'lov manbaida ushlab qolinadi. U asosan foizlarga (depozitdan olingan foizlardan tashqari), manbasi chet elda bo'lgan dividendlar (chet el soliqlari to'langanidan keyin), AJ boshqaruv tashkilotlarining gonorarlari va xizmatlar uchun gonorarlarga nisbatan qo'llaniladi.

2) Qo'zg'almas kapitaldan olingan daromadlar. U 20 foizdan 48 foizgacha stavkada undiriladi. Soliq solish obyekti yer va ko'chmas mulkdan kelgan sof daromaddir.

3) Tijorat va sanoat daromadlaridan olinadigan soliqlar. U 20 foizdan 48 foizgacha bo'lgan tabaqalashgan stavkada undiriladi. Soliq solish obyekti bo'lib korporatsiya solig'i solinmaydigan korxonalarining sof tijorat va ishlab chiqarish foynasi hisoblanadi.

4) Kasb mahorati gonorarlari. Stavkasi 20 foizdan 48 foizgacha. Soliq solish obyekti bo'lib mustaqil kasb egalarining (huquqshunoslar, muhandislar, hisobchilar (buxgalterlar) va vrachlar) sof gonorarlari hisoblanadi.

5) Mehnat haqi. Mamlakat ichida yoki mamlakat tashqarisida to'langan ish haqi soliq obyekti bo'lib hisoblanadi. Soliqqa tortiladigan ish haqiga chet ellik ekspertlarga beriladigan oilaviy chegirmalardan tashqari hamma daromadlar kiritiladi. Soliq stavkasi progressiv bo'lib, sof daromadning 50000 funtigacha 20 foiz, qolgan qismidan 32 foiz miqdorida soliq undiriladi.

14.3. Misrda mulk solig'i, tamg'a solig'i va boshqa mahalliy soliqlar

Misrda quyidagi boshqa soliqlar ham mavjud:

Real mulk solig'i. U mulkning yillik ijara haqidan 10-40 foiz oralig'ida undiriladi. Ijara haqiga juda ko'p omillar ta'sir qiladi: markazdan uzoq yoki yaqinligi, uying mebel bilan jihozlanganligi, yo'lga yaqin yoki uzoqligi.

Tamg'a yig'imi. Uning obyekti bo'lib ko'p turdagi hujjatlar, kafolat xatlari, turli bank muomalalari, ro'yxatga olinmagan qimmatli qog'ozlar harakati, lizing va boshqalar hisoblanadi. Masalan, kompaniya tashkil qilinayotganda 150-300 funt miqdorida; u tijorat ro'yxatiga olinganligi uchun esa 15 funt miqdorida tamg'a yig'imi olinadi.

Meros va hadya solig'i. Ushbu soliq meros va hadyalardan 3 foizdan 15 foizgacha bo'lgan stavkada undiriladi. 10.000 funtgacha bo'lgan meros soliqqa tortilmaydi. Ushbu soliq obyekti bo'lib chet ellik rezidentlarning ko'chmas va harakatlanuvchi mulklari bo'lishi mumkin. Norezidentlar esa faqat Misrda joylashgan ko'chmas mulklaridan soliq to'laydilar.

Yillik soliqqa tortiladigan daromadi 18000 misr funtidan oshgan jismoniy va yuridik shaxslar 2 foiz miqdorida rivojlantirish yig'imi to'laydilar.

Ishchilar va ish beruvchilar ijtimoiy sug'urta ajratmalarini to'lashlari lozim. Bu taomil yordamga muhtojlarga nisbatan qo'llanilmaydi. Ajratma stavkasiga ishchilarning oylik ish haqi asos qilib olingan va uni ish beruvchilar 26 foiz, ishchilar esa 14 foiz stavkada to'laydilar.

1991 yilda «Tijorat solig'i to'g'risida» qonun qabul qilingan. Ushbu soliq ko'p turdagi tovarlar va ayrim turdagi xizmatlarga (asosan turizm, telekommunikatsiya xizmatlari va ko'ngilochar xizmatlarga) nisbatan qo'llaniladi. Xorijdan tijorat maqsadlarida import qilingan tovarlar ham soliq solish obyekti bo'ladi. Uning stavkasi 10 foizdan (asosiy stavka) 50 foizgacha (ayrim turdagi tovarlar uchun). Soliq tovarlar va xizmatlarning bahosiga qo'shiladi va iste'molchilar tomonidan savdo joyining o'zida to'lanadi. Tijorat korxonasi esa soliqni soliq idoralariga o'tkazib beradi.

Qisqacha xulosalar

Ikkiyoqlama soliqqa tortmaslik uchun Misr Arab Respublikasi 30 ga yaqin mamlakat bilan shartnomalar tuzgan. Yana bir necha mamlakat bilan shartnoma tuzish rejasi mavjud.

Chet eldagi manbalardan daromad olgan soliq to'lovchi o'zining xorijda to'lagan soliqlari to'g'risidagi ma'lumotnomani ilova qilib, xorijda to'langan soliqlarni chegirib, Misr qonunlari bo'yicha hisoblangan soliq summasi o'rtasidagi farqni to'lashi mumkin.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Misr Arab Respublikasi soliq tizimining qanday o'ziga xos xususiyatlari mavjud?
2. Yuridik va jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan foyda solig'i stavkalari qanday?
3. Real mulk solig'i haqida tushuncha bering.
4. Korxonalarining foydasidan olinadigan soliqning stavkasi qanday?
5. Tamg'a yig'imi obyektiga nimalar kiradi?
6. Meros va hadya solig'i qanday foizlarda undiriladi?
7. Rivojlantirish yig'imi deganda nimani tushunasiz?
8. Misrda qanday soliq imtiyozlari mavjud?
9. 1991 yilda qanday soliq turi bo'yicha qonun qabul qilindi?
10. Ikkiyoqlama soliqqa tortmaslik uchun Misr Arab Respublikasida qanday choralar ko'rilgan?

Asosiy adabiyotlar

1. «Финансы» Учебник под ред. Проф. Дробозиной Л.А. —М: «Финансы», ЮНИТИ, 2003.
2. «Налоги и налогообложение» 3-е издание под ред. М.Романовского и О.Врублёвской. М.:2002.
3. Колесов В.П. и Осмова М.Н. «Мировая экономика. Экономика зарубежных стран» Учебник М-Флинта 2000.
4. Ковалёва А.М. «Финансы» — М: издат. «Финансы и статистика», 2000 г.
5. Тютюрюков Н.Н. Налоговые системы зарубежных стран: Европа и США: Учеб.пос./-М.Дашков и К, 2002.
6. Ходов Л.Г., Попов В.И. Подходное налогообложение физических лиц (зарубежный опыт, российские проблемы): Учебное пособие - М.: ТЕИС, 2004.
7. Soliq va bojxona xabarlari. Sentyabr 2004.
8. <http://www.byudget.ru> — Rossiya Federatsiyasi byudjet tizimi;
9. <http://www.edu.uz> - O'zbekiston Respublikasi
10. <http://www.government.ru> . - Rossiya Federatsiyasi qidiruv sayti.

MUSTAQIL DAVLATLAR HAMDO'STLIGI MAMLAKATLARIDAGI SOLIQ TIZIMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

15.1. MDH davlatlarida soliq munosabatlarining uyg'unlashuvi va soliq islohotlaridagi rivojlanishlarning asosiy omillari

Sobiq Sovet ittifoqining yagona xalq xo'jalik majmuasi inqiroziga uchragandan so'ng, ittifoqdosh respublikalar mustaqillikka erishdilar va sifat jihatidan yangi davlatlararo tashkilot-MDH barpo etildi. Inqirozning asosiy iqtisodiy asoratlaridan biri MDH mamlakatlari orasida tovarayirboshlashning qisqarishi bo'ldi. Bu o'z navbatida hamdo'stlik davlatlari chegaralaridagi iqtisodiy aloqalarning bo'shshishiga olib keldi. Ammo ushbu salbiy oqibatlariga qaramasdan, MDHga a'zo davlatlarining iqtisodiy darajadagi o'zaro bog'liqligi saqlab qolindi.

MDH ichidagi tashqi iqtisodiy aloqalarning kengayishi ushbu mamlakatlardagi iqtisodiy inqirozdan chiqish, iqtisodni ko'tarish va ularning samaradorligini oshirishning shartlaridan biridir. Integrallashgan hamkorlikning muhim vazifasi-o'zaro foydali savdo-iqtisodiy aloqalarni boshqarish mexanizmini yaratishdir. Soliq munosabatlarini uyg'unlashtirish muammolari ham hozirgi kundagi dolzarb masalalardan biridir.

MDH davlatlaridagi soliq munosabatlarini uyg'unlashtirish quyidagi maqsadlarga erishishni ko'zda tutadi:

- MDH ichki bozorini birlashtirish, unifikatsiyalash va integratsion jarayonni kuchaytirish;

- soliq chegaralarini yo'qotish va tovarlarning erkin ko'chishini ta'minlaydigan sharoitni yaratish;

- soliq tizimlari strukturasi ratsionalizatsiya qilish va soliq to'lovlarini hisoblash hamda undirish tartibini yaqinlashtirish.

Shuni ta'kidlash lozimki, hozirgi kunda tashqi iqtisodiy aloqalarni boshqarish doirasida bir qator hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, yagona «Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi tashqi iqtisodiy faoliyati tovar nomenklaturasi», o'zaro savdo sotiqda egri soliqlarni undirish tamoyillari haqida bitim; daromad va mol-mulki ikki marta soliqqa tortishga yo'l qo'ymaslik maqsadida MDHga a'zo davlatlar o'rtasidagi ikkiyoqlama bitimi; soliq qonunchiligiga rioya qilish masalalari bo'yicha hamkorlik va o'zaro yordam; xo'jalik yuritishda cheklashlarni bekor qilish va boshqalar. Milliy qonunchilikdagi mavjud farqlar yagona bozor kengligini yaratishga to'sqinlik qilmoqda. Shuning uchun MDHga a'zo davlatlarning yagona soliq kodeksini ishlab chiqishda ushbu mamlakatlarda soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlarini bilish alohida ahamiyat kasb etadi. Soliq tushumlari MDH davlatlari byudjeti umumiy daromadining 75 - 87 foizga yaqini tashkil qiladi. Shu bilan birga MDHga a'zo davlatlarida undiriladigan soliqlarning asosiy turlari

jahon amaliyotida keng tarqalgan soliq to'lovlariga mos keladi. Xususan, ushbu davlatlar soliq tizimida foyda (daromad) solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, ko'chmas mulk solig'i, yer solig'i kabilar ma'lum ko'rinishlarda mavjuddir va u har bir mamlakatning soliq tizimi, iqtisodiy ahvoli, milliy udumlaridan kelib chiqqan holda, o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Soliq manbalarining parallel ravishda qisqarishi va korxonaga qo'yilgan katta soliq yuki oqibatida soliq to'lashdan ommaviy bosh tortish barcha MDHga a'zo bo'lgan davlatlardagi davlat byudjetining daromad qismini shakllantirishdagi jiddiy muammolardir. Aytib o'tilgan omillar bozor munosabatlariga o'tish davridagi byudjet defitsitining asosiy sabablaridandir. Defitsitni yo'qotish maqsadida barcha mamlakatlarda turli darajadagi samaradorlik bilan soliq tizimlari islohotlari olib borilmoqda²².

15.2. Hamdo'stlik davlatlarining soliq tizimidagi o'xshashlik va bir-biridan farqlar

MDHga a'zo ko'pchilik mamlakatlarning byudjet daromadidagi katta ulush aynan egri soliqlarga to'g'ri keladi. Shu sababli egri soliqlarni undirishda soliq qonunchiliklarining uyg'unlashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Asosiy egri soliqlardan biri bu qo'shilgan qiymat solig'i. QQS hisoblashning umumiy tartibi G'arbiy Yevropa mamlakatlarining tajribasidan o'zlashtirilgan, ammo MDHning har bir mamlakatida uni to'lovchilari ro'yxatini, soliq bazasini, soliq chegirmalari berish qoidalarini va to'lov muddatlarini aniqlashda ayrim o'ziga xos xususiyatlar mavjud. MDH doirasida QQS stavkalarini unifikatsiyalashga (bixillashtirish) erishilgan edi. Asosiy stavka 20 foizni tashkil qiladi. Shu bilan birga 10 foiz stavka va nolinch stavka bo'yicha soliqqa tortiladigan tovarlar ro'yxatida farq mavjud.

Ma'lumki, tashqi savdo sotiq jarayonlarida QQS bo'yicha soliqqa tortishning ikki tamoyili mavjud:

- ishlab chiqarilgan joyi asosida, ya'ni «tovarning kelib chiqish mamlakati» tamoyili;
- iste'mol qilish joyi asosida, yoki «tovar belgilangan mamlakatlar uchun» tamoyili.

MDH doirasida xo'jalik yurituvchi subyektlar savdo-sotig'ini amalga oshirish uchun, Rossiya va Belorussiya ittifoqi davlatlar doirasidagi savdo-sotiqdan tashqari, 2001 yil iyul oyidan boshlab, QQS «tovar belgilangan mamlakatlar

²² Данилин А.М. «Анализ тенденций развития торгово-экономического сотрудничества с государствами СНГ» Внешнеэкономический бюллетень 1999 г.№11.

uchun» tamoyili asosida undiriladi. Bu import tovarlar soliqlar tortilishini, eksport tovarlar esa soliqlar tortilmasligini bildiradi. Aksizlar—egri soliqlarning turli ko‘rinishidir. MDH mamlakatlarida aksiz osti tovarlarining stavka ro‘yxatida sezilarli farqlar bor. Masalan, Qozog‘istonda nafaqat tovarlar, balki qimor biznesi ham aksiz solig‘iga tortiladi. Har bir alohida olingan mamlakatlarda ko‘pchilik tovarlarga o‘ziga xos aksiz stavkalari milliy valyutada o‘rnatilgan. Shuning uchun bu stavkalarni tenglashtirish alohida qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Foyda solig‘i yoki yuridik shaxslardan olinadigan daromad solig‘i—har qanday mamlakat soliq tizimining asosiy qismidir. Qirg‘izistondan tashqari, Bojxona Ittifoqiga kiruvchi barcha mamlakatlarda soliq to‘lovchilar bo‘lib, barcha yuridik shaxslar va shu bilan birga chet el korxonalari hisoblanadilar. Qirgizistonda faqat yuridik shaxslar—rezidentlar soliq to‘laydilar; Belorussiyada ular bilan bir qatorda qo‘shma faoliyat shartnomasi a‘zolari ham soliq to‘laydi. Rossiyada qo‘shma faoliyatdan olingan foyda sotilmagan tovarlar har bir shartnoma a‘zosi uchun inobatga olinadi va umumiy stavka bo‘yicha soliqlar tortiladi. MDH mamlakatlarida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning haqiqiy foydasini yashirin holdan chiqib qonuniylashtirilishi maqsadida tashkilot foydasidan olinadigan soliq stavkasini pasaytirish tendensiyasi kuzatilmoqda. Masalan, 2002 yil yanvardan boshlab Qirg‘izistonda 10 foiz, Rossiyada 24 foiz, Qozog‘iston, Tojikiston, Belorussiyada yuridik shaxslar foydasi 30%, O‘zbekistonda 2006 yildan boshlab 12 foiz stavka bo‘yicha soliqlar tortiladi. Shunday qilib, soliq stavkalarida ham sezilarli farqlar saqlanadi. Shuni inobatga olish kerakki, ayrim faoliyat turlari bo‘yicha olingan daromaddan, soliq asosiy stavkadan farq qiladigan stavka bo‘yicha olinadi. Masalan, Tojikistonda doimiy muassasasi bo‘lmagan norezident-yuridik shaxslar quyidagi stavkalar bo‘yicha soliq to‘laydilar: royaltidan—20 foiz, foiz va dividend ko‘rinishidagi daromatlardan—12 foiz, fraxtadan (kemada yuk tashish haqi, kira puli)—6 foiz, xalqaro aloqalar va yuk tashishni amalga oshirishda ko‘rsatilgan aloqa va transport xizmati sug‘urta to‘lovi daromadidan—4 foiz.

Stavkalar miqdori soliq to‘lovchilar turkumiga ham bog‘liq bo‘lishi mumkin. Masalan, Belorussiyada quyidagilar uchun asosiy stavka o‘rniga pasaytirilgan stavkalar ko‘zda tutilgan:

- yillik balans foydasi 5000 minimal ish haqidan oshmaydigan, ishchilarning o‘rtacha yillik soni ishlab chiqarishda 200 kishigacha, fanda 100 kishigacha qurilish va boshqa ishlab chiqarish sohasi tarmoqlarida 50 kishigacha, ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lmagan sohalarida 25 kishigacha bo‘lgan korxonalar uchun (chakana savdo bilan shug‘ullanadiganlardan tashqari)—15 foiz;

- agrosanoat ishlab chiqarish komplekslarini ishlab chiqarish-texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha olingan foydasidan -10 foiz;

- agrosanoat ishlab chiqarish komplekslari obyektlarini qurish va ta'mirlashdan olingan foydasi -7 foiz.

Mahalliy hukumat organlari mayda chakana savdo korxonalarini uchun tovar ayirboshlashga, tovar assortimenti va savdo nuqtasi turiga ko'ra foyda solig'ining belgilangan summasini o'rnatadilar²³.

Foyda solig'ining o'ziga xos xususiyatlar bilan belgilanadigan elementi soliqqa tortish obyektidir. Belorusiyada soliqqa tortish objekti—balans foydasi, Qozog'iston va Qirg'izistonda—umumiy soliqqa tortiladigan daromad, ya'ni umumiy yillik daromad va undan olingan chegirmalar farqi; Tojikistonda—yalp daromad va chegirmalar farqidan foyda solig'i olinadi. Ushbu soliq bo'yicha soliqqa tortish manbasini aniqlash tartibidagi o'xshashlik bilan bir qatorda Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikistonda chegirib tashlash lozim bo'lgan xarajatlar tarkibida ayrim farqlar bor. Bundan tashqari, Tojikistonda doimiy muassasa bilan bog'liq bo'lmagan norezidentlar korxonalarini foydasini soliqqa tortish objekti bo'lib, to'lov manbasidagi chegirmasiz barcha daromadlar hisoblanadi.

Bojxona ittifoqi doirasidagi ancha unifikatsiyalashgan soliq, yuridik shaxslarning mol-mulk solig'idir. U Qirgizistondan tashqari barcha MDH mamlakatlarida undiriladi. Soliq to'lovchilar bo'lib barcha korxonalar va tashkilotlar hisoblanadi. Soliq stavkasi ancha past bo'lib, Qozog'istonda-1 foizni, Tojikistonda-0,5 foizni, Belorusiyada-1 foizni, Rossiyada-2 foizni tashkil qiladi. Mahalliy hukumat tashkilotlari shu stavka atrofida aniq stavka miqdorini belgilaydilar. Soliq manbasini aniqlashda, imtiyozlar va to'lov muddatlarini aniqlash tartibida ham ayrim farqlar bor.

Qisqacha xulosalar

Yagona soliq Kodeksining qabul qilinishi MDH mamlakatlaridagi soliq munosabatlarini uyg'unlashtirish yo'lidagi yana bir jiddiy qadam hisoblanadi. Maxsus soliq tartiblarini (rejimlarini) qo'llash mumkinligi ko'zda tutilmoqda.

Ushbu kodeksda:

- hamdo'stlik davlatlari soliq tizimi tuzilishi va ish yuritishini, umumdavlat soliqlarining kiritilish tartibi, ularni o'zgartirish va bekor qilishni mahalliy (hududiy va munitsipal) soliqlarni o'rnatish tamoyillarini qat'iy belgilashi;

- soliq to'lovchilarning, soliq yig'adigan va boshqa soliq nazoratini amalga

²³ «Налоги и налогообложение» 3-е издание под ред. М.Романовского и О.Врублёвской. -М.: 2002.

oshiradigan tashkilotlarning soliq vakillari va soliqqa oid qonun munosabatlari ishtirokchilarining huquqiy ahvolini aniqlashi;

- soliqqa tortish obyektlarini aniqlashi, soliq majburiyatlarini bajarish, soliq qonunbuzarliklari uchun javobgarlikka tortish va soliq hamda boshqa nazorat tashkilotlari mansabdor shaxslari faoliyatlaridan (faoliyatsizligidan) shikoyatlari bo'yicha asosiy qoidalarini o'rnatish mo'ljallanmoqda.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. MDH davlatlarida soliq munosabatlarining uyg'unlashuvi qanday maqsadlarni ko'zda tutadi?

2. Tashqi iqtisodiy aloqalarni boshqarish doirasida qanday hujjatlar qabul qilingan?

3. MDHga azo bo'lgan davlatlardagi davlat byudjetining daromad qismini shakllantirishdagi jiddiy muammolar nimalardan iborat?

4. Tashqi savdo sotiq jarayonlarida QQS bo'yicha soliqqa tortishning nechta tamoyili mavjud?

5. Soliq islohotlaridagi rivojlanishlarning asosiy omillari nimalardan iborat?

6. Hamdo'stlik davlatlari soliq tizimidagi o'xshashlik va bir-biridan farqlar qanday?

7. Yagona soliq kodeksining qabul qilinishi qanday ahamiyatga ega?

8. MDH davlatlarida foyda solig'ini undirishdagi farqlar nimada?

9. Mol-mulk solig'i qaysi davlatda undirilmaydi?

Asosiy adabiyotlar

1. Юткина.Т.Ф.«Налоги и налогообложение».Учебник-М:ИНФРА-М,2003

2. «Финансы» Учебник под ред. Проф. Дробозиной Л.А. —М: «Финансы», ЮНИТИ, 2003.

3. Завалишина. И.А. «Практика налогообложения в Узбекистане» Ташкент- 2002 г. Издателский Центр Национальной Ассоциации бухгалтеров и аудиторов Узбекистана.

4. «Налоги и налогообложение» 3-е издание под ред. М.Романовского и О.Врублёвской. М. 2002.

5. Тютюрюков Н.Н. Налоговые системы зарубежных стран: Европа и США: учеб.пос./-М.Дашков и К, 2002.

6. Ходов Л.Г., Попов В.И. Подходное налогообложение физических лиц (зарубежный опыт, российские проблемы): Учебное пособие - М.: ТЕИС, 2004.

7. «Soliq va bojxona xabarlari». Sentyabr 2004 y.

8. <http://www.byudjet.ru> -- Rossiya Federatsiyasi byudjet tizimi;

9. <http://www.edu.uz> - O'zbekiston Respublikasi

10. <http://www.google.ru> . - Rossiya Federatsiyasi qidiruv sayti;

XVI BOB ROSSIYA FEDERATSIYASINING SOLIQ TIZIMI

16.1. Rossiya soliq tizimi tuzilishi tamoyillari

Rossiya Federatsiyasining 1991 yil 27 dekabrda 2118-1 sonli «Rossiya Federatsiyasining asosiy soliq tizimi to'g'risida»gi qonunida soliq to'g'risida quyidagi tushuncha beriladi: «Soliq, pul yig'imi, boj va boshqa to'lovlar bo'yicha muvofiq darajada byudjetga yoki byudjetdan tashqari fondlarga soliq to'lovchilar tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartib va shartlarda amalga oshiriladigan majburiy badallarga tushuniladi». Shu qonunda soliq tizimining ham tushunchasi beriladi: «Belgilangan tartibda undiriladigan soliqlar, pul yig'imi, boj va boshqa to'lovlarning yig'indisi soliq tizimini tashkil qiladi». Qonun shuningdek, soliq to'lovchilar doirasini aniqlaydi: «Soliq to'lovchilar bu qonun hujjatlariga asosan soliq to'lash majburiyatlari yuklangan yuridik shaxslar, boshqa toifadagi soliq to'lovchilar va jismoniy shaxslardir».

Bularga qo'shimcha tarzda, soliqqa tortish obyektlarini, qonunga muvofiq soliqlar bo'yicha imtiyozlarni alohida ko'rsatish zarur. «Qonuniy hujjatlar bilan belgilangan daromad (foyda), ba'zi mollarning narxlari, soliq to'lovchilarning ba'zi faoliyat turlari, qimmatbaho qog'ozlar bilan operatsiyalar, tabiiy zahiralardan foydalanish, huquqiy va jismoniy shaxslarning mulklari, mulklarni boshqa shaxsga berish, mahsulot va xizmatlarning va boshqa obyektlarning qiymatiga qo'shimcha soliq soliqqa tortish obyektlaridir».

Qonuniy hujjatlar bilan belgilangan tartib va shartlarda soliqlar bo'yicha quyidagi imtiyozlar belgilanishi mumkin:

- soliqqa tortilmaydigan soliq obyektining minimumi;
- soliq obyektining alohida elementlari soliqqa tortilishdan olinishi;
- ayrim shaxslar yoki ayrim toifadagi soliq to'lovchilar soliq to'lovlaridan ozod etilishi;
- soliq stavkalarining kamaytirilishi;
- soliq, soliq to'lovining maoshidan (hisob davri uchun) chiqarilishi;
- maqsadli soliq imtiyozlari, shu jumladan soliq kreditlari (soliqqa tortish muddatlarining surilishi);
- boshqa soliq imtiyozlari.

Rossiyada soliq tizimi idoraviy tegishliligi, mulkchilik turlari va korxonaning tashkiliy-xo'jalik turidan qat'iy nazar barcha tadbirkorlar va korxonalar uchun yagona tamoyillar asosida tashkil topadi. Asosiy tamoyillar quyidagilardir:

- soliqqa tortishning bir maromda keskinligi;
- soliqqa tortishning bir martaligi, ikki marta soliqqa tortishga yo'l qo'yilmasligi;
- barqarorlik, egiluvchanlik (o'zgaruvchanlik), soddalilik, qulaylilik (tushunarlilik), aniqlik;

-oldindan stavkalarni, soliq miqdorini, hisoblash va to'lash tartibini belgilash.

Soliq tizimini Rossiya davlat boshqaruvi markaziy tashkilotlariga kiruvchi, Rossiya Federatsiyasi Prezidenti va hukumatiga bo'ysinuvchi va vazir darajasidagi rahbar tomonidan boshqariluvchi Rossiya davlat soliq xizmati boshqaradi. Rossiya davlat soliq xizmatining bosh vazifalaridan biri soliq to'g'risidagi qonuniyatlarga rioya qilinish, ularning to'g'ri hisoblanishi, tegishli byudjetlarga qonuniyat bilan belgilangan davlat soliqlari va boshqa to'lovlarning to'la va o'z vaqtida to'lanishi ustidan nazorat qilishdir.

1992 yildan bu mamlakatda yangi soliq tizimi amal qilmoqda. Uning tuzilishining asosiy tashkilotlarini 28.12.91 y. «RF dagi soliq tizimi asoslari to'g'riida»gi qonun belgiladi (01.01.92 y. dan joriy qilingan). U byudjet tizimiga keluvchi soliqlar, pul yig'implari, bojlar va boshqa to'lovlar ro'yxatini belgiladi, shuningdek soliq to'lovchilar, ularning huquqlari va majburiyatlari hamda soliq idoralari, ularning huquqlari va majburiyatlarini aniqlaydi. Soliqlar, pul yig'implari, bojlar va boshqa to'lovlar, shuningdek soliq to'lovchilarga imtiyozlarni belgilash yoki bekor qilish hukumatning yuqori huquqiy tashkilotlari tomonidan va yuqorida ko'rsatilgan qonunga muvofiq amalga oshiriladi.

16.2. Rossiya Federatsiyasi iqtisodidagi soliqlarning guruhlanishi. Soliq turlari

Rossiya Federatsiyasidagi soliq tizimida soliqlar quyidagi 3 turga bo'linadi:

- federal soliqlar;
- respublika soliqlari va RF tarkibiga kiruvchi respublikalardan, milliy-davlat va ma'muriy tashkilotlardan, bu respublikalar qonunlari va bu tashkilotlar davlat tashkilotining qarorlari tomonidan belgilanuvchi pul yig'implari;
- hukumatning mahalliy tashkilotlari tomonidan RF va RF tarkibiga kiruvchi respublikalarning qonuniyatlariga muvofiq belgilanuvchi mahalliy soliqlar va pul yig'implari.

Federal soliqlarga quyidagilar kiradi:

- 1) qo'shimcha qiymat solig'i;
- 2) tovarlarning alohida guruhlari va turlariga aksiz soligi;
- 3) banklarning daromad soligi;
- 4) sug'urta faoliyatidan tushgan daromatlardan olinadigan soliq;
- 5) banklar va ularning shoxobchalarini ro'yxatga olish uchun pul yig'imi;
- 6) qimmatbaho qog'ozlar jarayonlaridan olinadigan soliq;
- 7) bojxona bojlarlari;
- 8) xom ashyo-material manbaini tiklash uchun RF byudjetdan tashqari maxsus fondga kiritiluvchi to'lovlar;
- 9) tabiiy zahiralardan foydalanish uchun to'lovlar;

- 10) jismoniy shaxslarning daromad solig'ı;
- 11) korxonalarining daromad solig'ı;
- 12) yo'l fondlarini tashkil etuvchi manba bo'lib xizmat qiluvchi soliqlar;
- 13) tamg'a pul yig'imi;
- 14) davlat boji;
- 15) vorislik va hadya tartibida boshqa shaxslarga o'tish mulkiga soliq;
- 16) «Rossiya», «Rossiya Federatsiyasi» nomlari va shu asosda tashkil topuvchi so'zlar va so'z birikmalarini ishlatish uchun pul yig'imi;
- 17) korxonalariga transport solig'ı.

Federal soliqlar (shu jumladan, stavkalarining miqdorlari), soliqqa tortilish obyektlari, soliq to'lovchilar va soliqlarning byudjetga yoki byudjetdan tashqari fondlarga kiritish tartibi RF qonun hujjatlari bo'yicha belgilanadi va Federatsiyaning butun hududida olinadi. Barcha respublika soliqlari umum majburiydir.

RF tarkibidagi respublikalar, o'lkalar va viloyatlar, avtonom viloyat, avtonom okruglarning soliqlariga quyidagi soliqlar kiradi:

1) korxonalarining mulkiga soliq bo'yicha to'lov summaları baravar hissalarda RF tarkibidagi respublikalar, o'lkalar va viloyatlarining respublika, o'lka, viloyat byudjetiga, avtonom viloyatning viloyat byudjetiga, avtonom okruglarning okrug byudjetiga va soliq to'lovchilarning turadigan joylaridagi tumanlarning tuman byudjetiga, shaharlarning shahar byudjetiga o'tkaziladigan soliqlari;

2) o'rmon solig'ı;

3) korxonalardan suv xo'jaligi tomonidan olinadigan suv uchun to'lov;

4) tabiiy zahiralari uchun respublika to'lovlari.

Soliqlar RF qonuniyat hujjatlari bilan belgilanadi va uning barcha hududlarida olinadi. Bunda aniq stavkalar agar RF qonuniyat hujjatlari bilan boshqacha belgilanmagan bo'lsa, RF tarkibidagi respublikalar qonunlari yoki o'lkalar, avtonom viloyatlar, avtonom okruglarning davlat tashkilotlarining qarorlari bilan belgilanadi.

16.3. Mahalliy soliqlar va yig'imler

Mahalliy soliqlarga quyidagilar kiradi:

1) jismoniy shaxslardan mulk solig'ı. Soliqlar bo'yicha to'lovlar summasi soliq obyektining turar (ro'yxatga olingan) joyida mahalliy byudjetga kiritiladi;

2) yer solig'ı. Bu soliq bo'yicha tushumlarni tegishli byudjetga kiritish yer to'g'risidagi qonuniyat bo'yicha belgilanadi;

3) tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslardan ro'yxatga olish to'lovlari, yig'im summasi ularning ro'yxatga olinish joylaridagi byudjetga kiritiladi;

- 4) kurort joylarida ishlab chiqarishga mo'ljallangan obyektlarning qurilishiga soliq;
- 5) kurort uchun pul yig'implari;
- 6) savdo huquqi uchun pul yig'implari: pul yig'implari hokimiyatning tuman, shahar, jamoat, qishloq ijroiya tashkilotlari tomonidan belgilanadi. Pul yig'implari bir martalik talon yoki vaqtinchalik patent olish yo'li bilan to'lanadi va tegishli byudjetga butunlay to'lanadi;
- 7) fuqarolardan va tashkiliy-huquqiy shakllaridan qat'iy nazar korxonalar, muassasalar, tashkilotlardan militsiyani saqlab turish, hududlarni obodonlashtirish va boshqa maqsadlarda olinuvchi maqsadli pul yig'implari. Stavkalar davlat hokimiyatlarining tegishli tashkilotlari tomonidan belgilanadi. Bunda jismoniy va yuridik shaxslardan olinuvchi pul yig'implarining yillik stavkalari aniq chegaralanishga ega bo'ladi;
- 8) reklamaga soliq: o'z mahsulotlarini reklama xizmatlari narxining 5 foizidan oshmaydigan stavka bo'yicha reklama qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar to'laydi;
- 9) avtomobil, hisoblash mashinalari va shaxsiy kompyuterlarni olib sotish solig'i;
- 10) it egalari pul yig'ini. Shaharlarda iti bor (xizmat itlaridan tashqari) jismoniy shaxslardan qonuniyat bilan belgilangan eng kam oylik maoshning 1/7 hissasidan ko'p bo'lmagan miqdorda pul yig'iladi;
- 11) vino-aroz mahsulotlari bilan savdo qilish uchun litsenziya pul yig'imi. Aholiga vino-aroz mahsulotlarini sotuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan mablag'lar yig'iladi;
- 12) mahalliy auksion va lotoreya o'yinlari o'tkazish huquqi uchun litsenziya pul yig'imi. Bularning tashkilotchilaridan auksionga qo'yilgan tovarning narxi yoki chiqarilgan lotoreya biletlarining summasining 10 foizidan oshmaydigan miqdorda pul yig'iladi;
- 13) kvartiraga order berish uchun pul yig'implari. Pul yig'implari jismoniy shaxslar alohida kvartira olgan vaqtda turar joyning umumiy maydoni va sifatidan kelib chiqqan holda qonuniyat bilan belgilangan eng kam oylik maoshning 3/4 hissasidan ko'p bo'lmagan miqdorda pul yig'iladi;
- 14) avtotransportni maxsus joyga qo'yish uchun pul yig'implari. Pul yig'implarini jismoniy va yuridik shaxslar avtomashinalarni maxsus jihozlangan joylarga qo'yish uchun mahalliy hokimiyatlar tomonidan belgilangan miqdorlarda to'laydilar;
- 15) mahalliy timsollardan foydalanish huquqi uchun pul yig'implari. Mahsulotlarida mahalliy timsollar (tarn'ga, shahar ko'rinishlari va boshqalar) qo'llanuvchi ishlab chiqaruvchilar sotiluvchi mahsulotlar narxining 0,5 foizidan oshmaydigan miqdorda pul to'laydilar;

16) otchoparlarda ishtirok etish uchun pul yig'implari. O'z otlarini tijorat maqsadlarida o'tkaziladigan musobaqalarda qatnashtiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar, mahalliy hokimiyatlar tomonidan belgilangan miqdorlarda pul yig'implarini to'laydilar;

17) poygada yutuq uchun pul yig'implari. Pul yig'implarini otchopar poyga o'yinida yutuq olgan shaxslar, yutuq summasining 5 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda to'laydilar;

18) otchoparda poyga o'yinida ishtirok etuvchilardan pul yig'imi. Pul yig'implari o'yinida ishtirok etish uchun belgilangan to'lovga foizli ustama ko'rinishida to'lov summasining 5 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda to'lanadi;

19) birjalarda amalga oshiriladigan oldi-sotdi uchun pul yig'implari, qiymatbaho qog'ozlar bilan jarayonlar to'g'risidagi hujjatlarda ko'zda tutilgan oldi-sotdilar bundan istisno. Pul yig'implarini, oldi-sotdi summasining 0,1foizi miqdorida,oldi-sotdi ishtirokchilari kiritadilar;

20) kino va telesuratga tushirish uchun pul yig'implari. Pul yig'implarini mahalliy boshqaruv organlaridan tashkiliy tadbirlarni talab etiluvchi suratga tushiruvchi tijorat kino va teletashkilotlar mahalliy hokimiyatlar tomonidan belgilangan miqdorlarda to'laydilar;

21) aholi joylashgan hududlarni tozalash uchun pul yig'implari. Pul yig'implarini mahalliy hokimiyatlar belgilagan miqdorlarda yuridik va jismoniy shaxslar to'laydilar;

22) turar joy fondi va ijtimoiy-madaniy sohadagi obyektlarni saqlash solig'i.

Mahalliy soliqlarning ko'pchiligi RF qonun hujjatlari bilan belgilanadi va uning barcha hududlarida olinadi. Soliqlarning aniq stavkalari respublikalarning qonun hujjatlari yoki o'lkalar, viloyatlar va tumanlarning davlat hukumat tashkilotlarining qarorlari bilan belgilanadi. Mahalliy soliqlarning ayrimlari hududiy va shahar hokimiyati tashkilotlari tomonidan belgilanishi mumkin va mahalliy byudjetlarga kiritiladi²⁴.

16.4. Rossiyadagi soliqqa tortish mexanizmining o'ziga xos xususiyatlari

Soliqlarning to'g'ri hisoblanishi va to'lanishi uchun javobgarlik soliq to'lovchining zimmasida bo'ladi. Birinchi navbatda barcha mulkiy soliqlar va bojlar to'lanadi, ularning summasi soliqqa tortiladigan daromad yoki soliqqa tortiluvchi foyda hisobidan to'lanadi. Undan keyin mahalliy daromad soliqlari to'lanib, undan qolgan summadan barcha qolgan soliqlar hisoblab chiqariladi va to'lanadi.

Shaxsiy daromad solig'i soliq to'lovchi-jismoniy shaxsning daromadidan (odatda yillik) olinadi. Bu to'g'ridan-to'g'ri olinadigan soliqlarning asosiy

²⁴ «Налоги и налогообложение» 3-е издание под ред. М.Романовского и О.Врублёвской. М.:2002.

turlaridan biridir. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish bo'yicha mavjud tartib Rossiya Federatsiyasining 1991 yil 7 dekabr «Jismoniy shaxslardan daromad solig'i olish to'g'risida»gi qonuni bilan belgilanadi. Daromad solig'ini to'lovchilar Rossiya Federatsiyasida doimiy turar joyi bor yoki bo'lmagan jismoniy shaxslardir, shu jumladan xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslardir. Jismoniy shaxslardan soliq olish obyekti joriy yil davomida olgan daromadining yig'indisidir.

Soliqqa tortilmaydigan daromadlarning ro'yxati qonunda ko'rsatilgan. Masalan, ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy ta'minlash bo'yicha davlat nafaqalari (vaqtincha mehnatga layoqatsizlik bo'yicha nafaqalardan tashqari) soliqqa tortilmaydi. Rossiya Federatsiyasi pensiya qonuniyati bilan belgilangan tartibda tayinlangan barcha turdagi pensiyalar soliqqa tortilmaydi. Shuningdek jismoniy shaxslardan olingan qonun bilan belgilangan eng kam oylik ish haqining yigirma hissasi miqdoridan oshmaydigan summadagi pul va natural ko'rinishda vorislik hamda hadya tartibida, yil davomida korxonalaridan buyum va xizmat ko'rinishida olingan sovg'alar daromad yig'indisiga kiritilmaydi.

Turli toifadagi shaxslar uchun oylik eng kam ish haqining turli xil darajadiligini hisobga olgan holda soliqqa tortiluvchi daromadning kamaytirilishi ko'zda tutiladi. Shuningdek jismoniy shaxslar tomonidan soliqqa tortish davrida olingan daromad yig'indisi uning yoshi hisobga olingan holda har bir oy uchun qonun bilan belgilangan eng kam ish haqi miqdorida bolalar va qaramog'idagi shaxslarni boqish uchun xarajatlar summasiga kamayadi.

Jismoniy shaxslar olgan va ular o'tkazgan xayriya maqsadidagi summalar soliqqa tortilmaydi.

Ishlaydigan fuqarolar daromad solig'idan tashqari yana ish haqining 1 foizini pensiya fondiga to'laydilar. Yillik daromad yig'indisini aniqlash jismoniy shaxs tomonidan mustaqil to'ldiriluvchi va hisobot yilidan keyin 1 apreldan kechiktirilmagan holda turar joyidagi soliq tashkilotlariga taqdim etiluvchi deklaratsiya orqali aniqlanadi.

Keyingi ikki o'n yillikda daromad solig'ini kamaytirish tendensiyasi sezilmoqda. Ko'pgina iqtisodchilar «adolatli» soliq tizimi uchun daromad solig'ining yorqin ifodalangan progressiyali stavkalari kerak, ya'ni boylar kambag'allarga nisbatan ko'proq soliq to'lashi lozim deb bilishmoqdalar.

Yuridik shaxslar solig'ining asosiy turi-bu foyda solig'idir. Soliq to'lovchilar-kimga qarashliligi, xususiylik shakli va tashkiliy-huquqiy shakllaridan qat'iy nazar yuridik shaxs ko'rinishidagi korxonalar va tashkilotlar, shu jumladan byudjet korxonalari, ularning shoxobchalari, shuningdek Rossiya hududida xorijiy investitsiyalari bilan xorij davlatlari qonuniyatiga muvofiq tashkil qilingan va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar, xalqaro birlashmalar, kompaniyalar, firmalar, har qanday tashkilotlardir.

Soliqqa tortiluvchi obyekt-bu balans foydasidir. Bu munosabatda mahsulotning (ishlar, xizmatlar) tannarxiga qo'shiluvchi xarajatlarning to'g'ri aniqlanishi muhim shartlardan biridir. Soliqqa tortiluvchi foyda qonuniyatda ko'zda tutilgan imtiyozlar (agar foyda mablag' ajratish, tabiatni muhofaza qilish, ijtimoiy maqsadlardagi obyektlarni saqlash, xayriya maqsadlariga pul ajratishga qaratilgan bo'lsa) hisobga olingan holda kamayadi.

Umumiy imtiyozlardan tashqari, kichik korxonalar uchun alohida imtiyozlar belgilangan: asosiy ishlab chiqarish fondlarini qurish, qayta qurish va yangilash, yangi texnika va texnologiyalarni o'zlashtirishga qaratilgan foyda soliqqa tortilish bazasidan chiqariladi; qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash, xalq iste'mol tovarlari va boshqalarni ishlab chiqarish korxonalarining daromadlari birinchi ikki yilga soliqdan ozod etiladi.

Soliqqa tortishning muhim sharti shundan iboratki, davlat korxonalari va tarkibiy bo'linmalarining mulklarini ijaraga olish asosida tashkil qilinsa, korxonalarining foydasidan olinadigan soliq summasi belgilangan tartibda ijara to'lovlari summasiga kamaytiriladi.

Xorijiy yuridik shaxslarning daromadini aniqlash xususiyatlari qonun bilan belgilangan. Xorijiy yuridik shaxs daromadining faqat RF hududida amalga oshirgan faoliyati orqali olingan qismigina soliqqa tortiladi.

Korxonalar, tashkilotlar va xorijiy yuridik shaxslar daromad (foйда) solig'ini 24 foiz miqdorida to'laydilar. Tovarlar va xizmatlar solig'i-dastavval bojxona bojlari, aksizlar va qo'shimcha qiymat solig'idir.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish narxlarning shakllanishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan yangi soliqlarning yuzaga kelish zaruriyatiga sabab bo'ladi. Bunday soliqlarga qo'shilgan qiymat solig'i kiradi. Qo'shilgan qiymat asosan ish haqi hamda foydani ham o'z ichiga oladi, umuman tayyor mahsulotlar va ularni tayyorlashda ishlatiluvchi xom ashyo, materiallar, yarim tayyor mahsulotlar narxi o'rtasidagi farq tariqasida hisoblab chiqiladi. Bundan tashqari, qo'shilgan qiymatga amortizatsiya va ayrim boshqa elementlar kiritiladi. Shunday qilib, barcha ishlab chiqarish bosqichlarida yaratiluvchi qo'shilgan qiymat solig'i sotilgan tovarlar, ishlab chiqarish va ishlar, xizmatlar hamda chiqimlarga kiritilgan material xarajatlarning narxlari o'rtasidagi farq tariqasida aniqlanadi.

QQS to'lovchilari-bu mulkchilik formalari va qaysi tashkilotga tegishliligidan qat'iy nazar, yuridik shaxs statusiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlardir. Shuningdek, qo'shimcha qiymat solig'ini to'lovchilar - bu tovar (ishlar, xizmatlar) sotilishidan tushgan yillik pul miqdori 500 ming rubldan ortiq bo'lgan shartlarda yuridik shaxs bo'lmagan tadbirkorlik faoliyatida band bo'lgan shaxslar hamdir.

Mavjud mehnat predmetlari ustida olib borilayotgan ishlar jarayonida qo'shilgan qiymatga qo'shilgan narx bilan soliq olinadi. Lekin, har bir soliq

to'lovchi bu summaga iste'molchi olayotgan o'z molining narxini qo'shadi. Shunday qilib, bu soliqning butun o'g'irligi oxirgi iste'molchiga tushadi.

Soliq solish obyektlariga shuningdek Rossiya hududiga beminnat yordam istisno qilingan holda bojxona tomonidan belgilangan tartiblarga muvofiq olib kiriluvchi tovarlar ham kiradi.

Soliqdan ozod etiluvchi tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro'yxati qonun bilan belgilangan. Bu ro'yxat Rossiya Federatsiyasi hududida yagona hisoblanadi. Ta'lim jarayoni bilan bog'liq bo'lgan xalq ta'limi sohasidagi ishlab chiqarish va xizmatlar; kasallar va yoshi o'tgan keksalarni parvarish qilish, dafn byurolarining xizmatlari, madaniyat va san'at mussasalari, diniy birlashmalar, teatr-tomosha, sport va boshqa ko'ngil ochish tadbirlari shuningdek, davlat hisobidan bajariluvchi ilmiy-tadqiqot va tajriba-loyiha ishlari hamda xalq ta'limi muassasalari tomonidan bajariluvchi xo'jalik shartnomasi bo'yicha ishlar QQSni to'lashdan ozod etiladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ining stavkasi hozirda 18 foiz qilib belgilangan.

Aksiz egri soliq bo'lib, sotib oluvchi oladigan tovar narxiga qo'shiladi. Aksiz solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i kabi oborot va sotish soliqlari bekor qilingach, 1992 yil 1 yanvardan joriy qilingan.

Aksizlarni to'lovchilar-bu mulkchilik formalari va qaysi tashkilotga tegishliligidan qat'iy nazar, qonunda ko'rsatilgan tovarlarni sotuvchi RF hududidagi barcha korxonalar va tashkilotlardir.

Soliqqa tortiluvchi obyektlar-bu aksiz osti tovarlarni o'zi ishlab chiqargan va aksiz hisobiga kiritilgan sotilish narxlariga bo'yicha sotiladigan tovarlarning narxidir. Bunday aksiz to'lanishi lozim bo'lgan tovarlar hisobiga vino-aroz mahsulotlari, etil spirti, pivo, tamaki mahsulotlari, yengil avtomashinalar, 25 tonnagacha hajmli yuk avtomashinalari, zargarlik mahsulotlari, gavhar, qandil mahsulotlari, gilamlar va gilam mahsulotlari, mo'yna mahsulotlari, shuningdek, asl teridan ishlangan kiyimlar kiradi. Aksiz summasi qo'shimcha qiymat solig'i manbaida hisobga olinadi. Aksiz solig'i tovar turiga qarab summada yoki foiz hisobida undiriladi.

Ayrim tovarlar aksizga tortilmaydi. Aksizlar stavkalari Rossiya Federatsiyasi hukumati tomonidan tasdiqlanadi va Rossiya Federatsiyasi hududida yagona hisoblanadi.

Soliq tizimining rivojlanishida korxonalarining mulkiga solinadigan soliq muhim o'rin tutadi. Mazkur soliq respublika va RF o'lka soliqlariga kiradi.

Bu soliqni to'lovchilar-yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar, muassasalar (banklar va kredit muassasalari shu hisobda) va tashkilotlar, shu jumladan xorijiy investitsiyalarga ega korxonalar; ularning alohida balans va hisob raqamiga ega shoxobchalari, shuningdek tadbirkorlik bilan shu g'ullanuvchi RF hududidagi xalqaro birlashmalar va tashkilotlar, xorijiy firmalar, banklar va tashkilotlarning doimiy vakolatxonalari va ularning balansida bo'lgan boshqa

alohida bo'linmalaridir. Soliqqa tortiluvchi obyekt - bu korxonaning balansida bo'lgan mulki. Soliqqa tortish maqsadlari uchun korxonada mulkning yillik o'rtacha bahosi belgilanadi.

Byudjet, advokatlar muassasalari va tashkilotlari, qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va saqlash, turar joy-kommunal va boshqa shahar xo'jaliklari korxonalarida korxonada mulkiy soliqqa tortilmaydi.

Korxonada mulk solig'i stavkalari ularning faoliyatiga qarab belgilanadi. Ammo, korxonaning mulkiga soliq stavkasining oxirgi (yuqori) miqdorlari soliqqa tortiluvchi manbaining 2 foizidan oshmasligi lozim. Alohida korxonalar uchun soliq stavkasini belgilash mumkin emas. Hisoblanadigan summa korxonada faoliyatining moliyaviy natijalariga kiritish bilan (respublika, o'lka, viloyat) byudjetga birinchi navbatda to'lash majburiydir.

Jismoniy shaxslarning mulkiga soliqni to'lovchilarga Rossiya fuqarolari, RF hududida soliqqa tortilishi lozim bo'lgan aniq mulkka ega bo'lgan xorijiy fuqarolar va fuqarosiz shaxslar kiradi.

Vorislik yoki hadya qilish tartibida o'tuvchi mulkka soliqni to'lovchilar qonun bo'yicha ularning mulkchiligiga (ixtiyoriga) vorislik yoki hadya qilish tartibida o'tayotgan mulkni qabul qiluvchi shaxslardir. Soliqqa tortish obyektlariga turar joylar, kvartiralar, dala hovlilar, transport vositalari, qadimiy noyob va qimmatbaho buyumlar, zargarlik buyumlari kiradi. Bu soliqlarning miqdorlari boylikning qayta taqsimlanish vazifasi bilan aniqlanadi. Ba'zi mamlakatlarda mulk, hadya va vorislik soliqlari oldi-sotdi amalga oshirilish vaqtlarida olinadigan aksiz yig'imga qo'shiladi.

Ijtimoiy badallari (ijtimoiy soliqlar) korxonalarining ijtimoiy ta'minlash badallari va ish haqi hamda ish kuchi soliqlarini o'z ichiga oladi. Ular qisman xodimlarning o'zlari tomonidan va qisman ish beruvchi tomonidan amalga oshiriluvchi to'lovlardan iboratdir.

Qisqacha xulosalar

Hozir Rossiyada turli xil soliq va bojlarni hisobga olganda, deyarli o'ttiztaga yaqin soliqlar va pul yig'imga mavjud. Ularning hammasi ham vaqt sinoviga bardosh bermaydi, ammo umuman olganda, hozirgi soliq tizimi mamlakatlar orasida sezilarli farq mavjudligi hisobga olinganda va g'arbda qabul qilingan tizimga juda yaqindir.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Rossiya soliq tizimi qanday tuzilgan?
2. Rossiya Federatsiyasidagi soliq tizimida soliqlar qanday turlarga bo'linadi?
3. Rossiya iqtisodidagi soliqlarning guruhlanishi qanday?
4. Federal soliqlarga qanday soliqlar kiradi?
5. Mahalliy soliqlar va yig'imga qanday soliqlar kiradi?

6. Rossiyadagi soliqqa tortishning ayrim o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida nimalarni bilasiz?

7. RF da kichik korxonalar qanday imtiyozlar berilgan?

8. RF da QQS stavkasi necha afoiz qilib belgilangan?

9. RF va O'zbekiston Respublikasi soliq tizimidagi farqlar va o'xshashliklar nimadan iborat?

10. RF da aksiz solig'iga tortiladigan tovarlarni sanab bering.

Asosiy adabiyotlar

1. Юткина.Т.Ф.«Налоги и налогообложение».Учебник-М:ИНФРА-М,2003

2. «Финансы» Учебник под .ред. Проф. Дробозиной Л.А. –М: «Финансы», ЮНИТИ, 2003.

3. Завалишина. И.А. «Практика налогообложения в Узбекистане» Ташкент-2003 г. Издателский Центр Национальной Ассоциации бухгалтеров и аудиторов Узбекистана.

4. Тютюрюков Н.Н. Налоговые системы зарубежных стран: Европа и США: учеб.пос./-М.Дашков и К, 2002.

5. Ходов Л.Г., Попов В.И. Подходное налогообложение физических лиц (зарубежный опыт, российские проблемы): Учебное пособие - М.: ТЕИС, 2004.

6. «Soliq va bojxona xabarlari». Sentyabr 2004.

7. <http://www.byudjet.ru> – Rossiya Federatsiyasi byudjet tizimi;

8. <http://www.edu.uz> - O'zbekiston Respublikasi

9. <http://www.google.ru> . - Rossiya Federatsiyasi qidiruv sayti.

XVII BOB BELORUS RESPUBLIKASI SOLIQ TIZIMI

17.1. Belarus soliq tizimi huquqiy asoslari, respublikadagi soliqlar va boshqa to'lovlar tuzilmasining tarkibiy tuzilishi

Belorus Respublikasi soliq tizimi asoslari 1991 yil 20 dekabrda №21323-XII—sonli «Belorus respublikasi byudjetiga undiriladigan soliqlar va yig'implar haqida»gi (qo'shimchalar va o'zgartirishlar bilan) qonun bilan aniqlangan. Ushbu qonunda ko'zda tutilgan soliq va yig'implardan tashqari respublika byudjetiga qonunchilik tomonidan o'rnatilgan soliqlardan tashqari ham to'lovlar kelib tushadi. Soliqlar va yig'implarni mahalliy byudjetlar hisobiga yozish «Belorus Respublikasida mahalliy va o'z-o'zini boshqarish haqida»gi qonun bilan tartibga solinadi. Umumdavlat soliqlaridan mahalliy byudjetlar hisobiga o'tkazish miqdorlari har yili byudjet tasdiqlanganda Belorusiya Respublikasi qonuni bilan o'rnatiladi. Soliqa tortish obyektlari, to'lov tartibi; stavkalari hamda, imtiyozlar har bir soliq va yig'im turi bo'yicha respublika soliq qonunchiligining maxsus aktlari bilan ko'zda tutiladi²⁵.

17.2. Belorussiyada asosiy soliq turlari. Korxonalarining foyda solig'ini to'lash tartibi

Belorus Respublikasi soliq tizimi 26 ta soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, ayrim soliqlar bir nechta mustaqil to'lovlar turidan tashkil topgan. Masalan, yo'l jamg'armasiga to'lovlar 7 xil turli soliqlarni, yig'implar va chegirmalarni o'z ichiga oladi hamda ularning har biri o'z soliq manbai bo'yicha hisob-kitob uslubiga ega. Belorusiya Respublikasi soliq tizimidagi muhim soliq turlaridan biri QQS hisoblanadi. Yevropa Ittifoqi Hamdo'stligi mamlakatlarida byudjetga tushadigan tushumlarning jami miqdorining o'rtacha 10–20 foizi QQS ulushiga to'g'ri kelsa, Belorussiyada bu miqdor 25 foizdan ortiqroqni tashkil qiladi. QQSni hisoblash tartibi Belorussiyada ham xuddi Rossiyadagi kabidir. Asosiy stavka — 20 foiz, shu bilan birga 10 foiz va nolinch foizli stavkalar ham qo'llaniladi. 10 foizli stavka bo'yicha Respublika hududida chorvachilik mahsulotlarni o'simlikshunoslik, baliqchilik, oziq-ovqat mahsulotlari, bolalar uchun mahsulotlari sotilganda; sartaroshxona, ximchistka xizmatlari, kiyim kechak, oyoq-kiyim, soatlar, murakkab uy-ro'zg'or texnikasi va yana boshqa ayrim tovar va xizmatlar soliqqa tortiladi. Nol foizli stavka eksport qilinadigan mahsulotlarga (Rossiyaga eksport qilishdan tashqari), qurilish ishlariga, transport xizmatlariga qo'llaniladi.

Aksizlar bo'yicha soliqqa tortiladigan obyektlarning soliq manbai, aksiz osti

²⁵ «Налоги и налогообложение» 3-е издание под ред. М.Романовского и О.Врублёвской. М.:2002.

tovarlar ro'yxati Belarusiya va Rossiyada qariyb bir-biriga mos keladi. Belarusiyadagi aksizlarni hisoblash xususiyatlari shundaki, unda Rossiyadagi kabi nafaqat maxsus stavkalar balki umumlashtirilgan stavkalar ham qo'llaniladi. Buning ustiga ma'lum tovarlar turiga maxsus stavkalar milliy valyutadagina emas, balki evroda ham o'rnatilgan. Masalan, quyidagi aksiz stavkalari mavjud: ko'piklanadigan va shampan vinosiga 1 litrga 60 Belarus rubli, mikroavtobuslar va yengil avtomobillarga—10 foiz, neft-1 tonnasiga 16,5 evro, dizel yoqilgisini—1 tonnasiga 50 belorus rubli va hokazo.

Korxonalar foydasidan olinadigan soliq 30 foizli stavka bo'yicha undiriladi. Dividendlar va yuridik shaxslarning unga tenglashgan daromadi 15 foiz stavka bo'yicha soliqla tortiladi, bunda soliq daromad to'laydigan manbada saqlanib qoladi. Foyda solig'i bo'yicha ko'plab imtiyozlar belgilangan. Xususan, nogironlar va nafaqaxo'rlar mehnatidan foydalanadigan tashkilot foydasi soliqqa tortilmaydi (ammo savdo-sotiq, va vositachilik faoliyati bundan mustasno).

Qishloq xo'jalik korxonalarining yetishtirgan o'simlik, chorvachilik, baliqchilik, asal-arichilik mahsulotlarini sotishdan olgan foydasidan soliq olinmaydi. Bundan tashqari, ilmiy tadqiqot, tajriba-konstruktorlik ishlari, yong'inga qarshi va tabiatni muhofaza qilish tadbirlari uchun ishlatilgan bo'lsa soliqqa tortiladigan foyda, foyda solig'i summasiga kamayadi.

17.3. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining o'ziga xos xususiyatlari

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'lovchilari Belarusiyada va undan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlar bo'yicha—soliq rezidentlari va Belarusiyadagi manbalaridan olingan soliq rezidentlari bo'lmagan shaxslar hisoblanadilar. Soliqqa tortish obyekti bo'lib, jismoniy shaxslarning pul va natura shaklidagi jami daromadi hisoblanadi. Soliqqa tortilmaydigan daromadlar ro'yxati, va soliq chegirmalari qonunchilikda ko'zda tutilgan. Soliq chegirmalari quyidagi miqdordlarda ko'zda tutilgan:

- ish haqining eng kam miqdori;
- bir eng kam ish haqi miqdorida ishchining o'ziga;
- ish haqining eng kam miqdorining 2 barobarida har bir bola va boqimondaga;
- ish haqining eng kam miqdorining 10 barobarida jismoniy shaxslarning alohida toifalari uchun.

Soliq bo'yicha progressiv soliq stavkasi ko'zda tutilgan, u daromadlarning 5 ta aylanmasiga va ularga mos stavkalariga (9,15,20,25,30%) ega. 15 foiz miqdordagi soliq stavkasi quyidagi daromad turlari uchun o'rnatilgan: aksiyalar bo'yicha dividendlar, yuridik shaxslarni tugatish va qayta tashkil qilish natijasidagi korxonalar faoliyatiga o'z hissasi bilan qatnashishidan olgan daromad. Chet el fuqarolari

va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar soliq imtiyozini va soliq chegirmalarisiz, 20 foiz stavka bo'yicha soliqqa tortiladi.

Alohida faoliyat turi daromadlaridan olinadigan soliq, ya'ni banklar daromadidan, sug'urta va qayta sug'urta qiluvchi tashkilotlar va boshqa moliya-kredit tashkilotlaridan 30 foiz stavka bo'yicha soliq undiriladi; boshqa yuridik shaxslarning qimmatli qog'ozlar operatsiyasidan olgan daromadlaridan olinadigan soliq stavkasi-40 foiz.

Respublikada alohida toifadagi soliq to'lovchilar uchun maxsus soliq tartiblari ko'zda tutilgan. Soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimini qo'llaydigan tashkilotlar va yakka tadbirkorlar, yalpi tushumdan 10 foiz miqdorida soliq to'laydilar. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtiruvchilar yalpi tushumdan 5 foiz miqdoridagi yagona soliq to'loviga o'tish huquqiga egalar.

Mamlakat qonunchiligi tomonidan ko'plab mahalliy soliqlar o'rnatilgan:

-alohida ruxsatnomalar uchun yig'im; avtotransportlar vositalarining to'xtash joylaridan olinadigan yig'im; baliqchilik va ovchilik yig'implari, mahalliy ramzlardan foydalanish huquqi uchun yig'im, savdo-sotiq bilan shug'ullanish huquqi yig'imi, it egalaridan yig'iladigan yig'im, auksionlar o'tkazish huquqi uchun yig'im, kurort yig'imi, kurort joylarida qurilish qilish uchun yig'im;

-reklama solig'i;

-maqsadli yig'implar: transport yig'imi, shahar (tuman) infratuzilmasini taminlash va rivojlantirish yig'implari;

-yovvoyi o'simliklardan, qo'ziqorinlar shifobaxsh o'simliklarni tayyorlash uchun yig'im;

-chakana savdo tarmog'ida tovarlarni sotishdan olinadigan soliq;

-mehmonxonalar, restoranlar, barlar, qahvaxonalar, xizmatlari uchun yig'im.

17.4. Mahalliy hokimiyatning mahalliy soliqlarni joriy qilishdagi vakolatlarining amalga oshirilishi

Mahalliy tashkilotlarning soliqqa tortish sohasidagi vakolatlari Belorusiyada va Rossiyada farq qiladi. Masalan, Belorusiyada hukumatning mahalliy tashkilotlari stavkalarni nafaqat pasaytirish balki oshirish, ularning byudjeti hisobiga o'tkaziladigan alohida soliqlar bo'yicha yakka tartibda imtiyozlar berish huquqiga egalar. «2001 yil uchun Belorusiya respublikasi byudjeti haqida»gi qonuni bo'yicha mahalliy deputatlar kengashiga stavkalarni oshirish va pasaytirish, yakka imtiyozlar berish, yer solig'i va tabiiy qazilmalardan olinadigan soliqlarni to'lash muddatini o'zgartirish hamda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, davlat boji, ko'chmas mulk solig'i uchun yakka imtiyozlar berish huquqi berilgan.

Respublika uchun soliqlar tuzilishini ratsionalizatsiya qilish, soliq manbaini optimallashtirish, soliqlarni hisoblash va undirish mexanizmini

soddalashtirish hozirgi kundagi o'ta dolzarb muammolardan hisoblanadi. Masalan, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tuzilishini qayta ko'rib chiqish, ularning o'xshash soliq manbaiga ega bo'lganlarini birlashtirish orqali yagona majburiy to'lov undirish masalasi keng muhokama qilinmoqda. Xususan, qishloq xo'jalik mahsulotlari va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash Respublika jamg'armasiga ajratmalar, muassasaga qarashli uy-joy fondini ta'minlash xarajatlari uchun chegirmalar va yo'l fondiga to'lovlarni yagona maqsadli byudjet fondiga birlashtirish hamda korxonalar tomonidan tushadigan tushumdan olinadigan chegirmalarning umumiy me'yorini belgilash taklif qilinmoqda. Ko'rsatib o'tilgan fondlar mablag'lari moliya vazirligining yagona xazina hisobiga to'planishi so'ngra maqsadli yo'nalishlarda taqsimlanishi mumkin. Bu bilan ham hisob-kitob uslubi, ham aytilgan to'lovlarni undirilish mexanizmi soddalashadi. Shu tamoyilga asosan Chernobil AESdagi fojia oqibatlarini tugatish uchun favqulodda olinadigan soliq, ish bilan taminlashga ko'maklashish davlat fondiga chegirmalar, ijtimoiy muhofaza fondiga chegirmalar, maktabgacha bolalar tashkilotini ta'minlash uchun chegirmalarni yagona ijtimoiy soliqqa birlashtirish mumkin. Ko'rib chiqilayotgan majburiy to'lovlar turlari yaqqol ifodalangan ijtimoiy yo'nalishga va asosan yagona soliq manbaiga ega.

Qisqacha xulosalar

Muhokama qilinayotgan o'zgartirishlarni amalga oshirish soliq va to'lovlar miqdorini qisqartirishga, soliqqa tortish uslubining ancha soddalashishiga va korxonalarining hamda soliqchilarning ishini osonlashtiradi. Muhim tomoni shundaki, taklif qilinayotgan o'zgarishlar QQS, foyda solig'i, aksiz yig'implari, mol-mulk va resursli soliqlar hamda yig'implar kabi soliqqa tortishning maxsus qonun aktlarida ko'zda tutilgan to'lovlarga ta'sir qilmaydi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Belarus soliq tizimi huquqiy asoslari, respublikadagi soliqlar va boshqa to'lovlar tuzilmasining tarkibiy tuzilishi qanday?
2. Belorussiyada asosiy soliq turlariga qaysilar kiradi?
3. Korxonalarining foyda solig'ini to'lash tartibi qanday?
4. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining qanday o'ziga xos xususiyatlari mavjud?
5. Qanday mahalliy soliqlar mavjud?
6. Mahalliy hokimiyatning mahalliy soliqlarni joriy qilishdagi vakolatlari qanday amalga oshiriladi?
7. Belorussiyada mahalliy tashkilotlarning soliqqa tortish sohasidagi vakolatlari Rossiya federatsiyasidagi tartibdan nimasi bilan farq qiladi?

8. QQSni hisoblash tartibi Belorusiyada qanday?
9. Jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'i stavkalari qanday?
10. Qanday daromad turlariga 15% miqdorida soliq stavkasi belgilangan?

Asosiy adabiyotlar

1. «Налоги и налогообложение» 3-е издание под ред. М.Романовского и О.Врублёвской. М. 2003.
2. «Финансы» Учебник под .ред. Проф. Дробозиной Л.А. --М: «Финансы», ЮНИТИ, 2003.
3. Тютюрюков Н.Н. Налоговые системы зарубежных стран: Европа и США: учеб.пос./-М.Дашков и К, 2002.
4. Ходов Л.Г., Попов В.И. Подоходное налогообложение физических лиц (зарубежный опыт, российские проблемы): Учебное пособие - М.: ТЕИС, 2004.
5. // «Soliq va bojxona xabarlari».
6. <http://www.byudjet.ru> – Rossiya Federatsiyasi byudjet tizimi;
7. <http://www.edu.uz> - O'zbekiston Respublikasi
8. <http://www.google.ru> . - Rossiya Federatsiyasi qidiruv sayti.

XVIII BOB UKRAINA RESPUBLIKASI SOLIQ TIZIMI

18.1. Ukraina soliq tizimining tuzilishi. Qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblash tartibidagi o‘ziga xosligi

Ukraina qonunlari o‘rnatgan tartibda byudjetlar va maqsadli davlat fondlariga undiriladigan soliqlar va yig‘imlar majmui mamlakatning soliq tizimini tashkil qiladi. Ukrainada 17 ta umumdavlat, 16 ta mahalliy soliqlar va yig‘imlar undiriladi. QQS 1992 yilda kiritilgan bo‘lib, uning ulushi barcha soliq tushumlarining 60 foizini tashkil qiladi. Ko‘pchilik mamlakatlardan farqli, QQS unifikatsiya qilingan stavka bo‘yicha undiriladi, shuning uchun bu soliq bo‘yicha ko‘plab imtiyozlar ko‘zda tutilgan. Eksportga yuklangan mahsulotning qiymati soliqqa tortish obyekti bo‘lib hisoblanadi. Bunda QQSni to‘langan miqdori, korxonaga hisobiga kelib tushgan tushumdan keyin qoplanadi²⁶.

Jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq bo‘yicha to‘lovchilar doirasi, hisob-kitob uslubi xuddi Rossiyadagi kabidir. Qabul qilingan tartibga asosan, tamg‘a solig‘i ham umumdavlat soliqlariga kiradi. Uning to‘lovchilari xususiy mulk formasidan qat‘iy nazar soliqqa tortish obyekti bo‘lib aniqlangan hujjatlarni va markalashni amalga oshiradigan barcha xo‘jalik faoliyatini yuritadigan subyektlar hisoblanadilar. Ijro etuvchi hokimiyat tashkilotlari tomonidan beriladigan hujjatlardan tashqari barcha xo‘jalik shartnomalari, veksellar markalashtirilishi lozim. Tamg‘a yig‘imi stavkasi nizom jamg‘armasi miqdoriga, shartnoma va veksellar bo‘yicha to‘lov miqdorlari summasiga bog‘liq holda belgilanadi. Tamg‘a yig‘imi markalari jamg‘arma banklarining boshqarmalari va uning hududiy boshqarma va bo‘limlari orqali sotiladi.

18.2. Resurs to‘lovlari, ijara to‘lovi, yer joylari solig‘i, suv resurslaridan foydalanganligi uchun olinadigan to‘lovlar

Yer soligini to‘lovchilari bo‘lib, yer egalari va yerdan foydalanuvchilar hisoblanadilar. Soliqqa tortish obyekti bo‘lib, xususiy mulk bo‘lgan yoki foydalanishga hamda ijaraga berilgan yer joylari hisoblanadi. Yer uchun to‘lov shakli-yer solig‘i va ijara to‘lovi. Yer solig‘ini mulkka egalik huquqi davlat dalolatnomasiga ega bo‘lgan yer egalari va yerdan foydalanish huquqiga ega bo‘lgan yerdan foydalanuvchilar to‘laydilar. Yer solig‘i miqdori yer joyi kattaligiga, uning qiymatiga qarab stavka bo‘yicha aniqlanadi. Yer joyining qiymati Ukrainaning yer resurslari bo‘yicha Davlat qo‘mitasi tomonidan belgilanadi. Ijara haqi yer joylaridan foydalanganligi uchun ijarachi tomonidan to‘lanadigan to‘lovdir.

²⁶ «Налоги и налогообложение» 3-е издание под ред. М.Романовского и О.Врублёвской. М.:2002.

Yerni ijaraga beruvchilar mahalliy hukumat tashkilotlari va yer egalari hisoblanadilar. Yuridik shaxslardan yer uchun ijara haqini undirish sharti, miqdori, vaqti ijara beruvchi va ijaraga oluvchi orasidagi shartnomaga asosan belgilanadi. Ijaraga oluvchi yuridik shaxslar yer uchun ijara haqini yer egasi hisobiga o'tkazadilar. Bunda yer egalari tegishli byudjetga yer solig'i to'laydilar. Agar qishloq, ovul, shahar, tuman kengashlari ijara beruvchilar bo'lishsa, ijaraga oluvchilar ijara haqini mustaqil ravishda byudjetga to'laydilar.

Qiymati aniqlangan yer joylari solig'i stavkalari, ularning foydalanish yo'nalishi bo'yicha darajalangan foizlarda belgilanadi. Yer joylarining quyidagi turlari farqlanadi: haydalgan yerlar; pichanzorlar; yaylovlar; ko'p yillik ko'chatlar; bahosi aniqlangan aholi yashaydigan hududlarning yerlari; ishlab chiqarish korxonalarining yerlari; transport va aloqa vositalari korxonalarining yer joylari; temir yo'l transporti yerlari; yer osti suv fondi ixtiyoridagi yer joylari, va boshqalar. Qiymati aniqlanmagan aholi yashash hududidagi yer joylari uchun soliq stavkasi aholi soni, shaharlar toifalariga bog'liq holda yerning har bir kvadrat metriga qat'iy summada belgilanadi. Bundan tashqari hududning tarixiy madaniy belgilanishidan kelib chiqqan holda yer solig'ini oshiruvchi koeffitsientlar mavjud. Yer uchastkasini belgilangan me'yoridan ortiq ajratilganligi uchun soliq 5 baravar ko'paytirib olinadi.

Qishloq xo'jalik tovarlari va baliq mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar yer solig'ini teng ulushlarda 15 avgust va 15 noyabrgacha, qolgan to'lovchilar—hisobot oyidan keyingi oyning 15—kuniga qadar to'laydilar.

Suv uchun to'lov suv resurslaridan maxsus ishlar uchun foydalanganligi va suvdan energetika ehtiyojlari uchun foydalanganligi uchun va suvni xususiy ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun ishlatayotgan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan barcha subyektlar tomonidan to'lanadi. To'lov me'yori Im.kub uchun absolyut miqdorda aniq daryolar basseynlari bo'yicha darajalangan holda Ukraina Vazirlar Mahkamasi qarorlari bo'yicha tasdiqlanadi. Belgilangan me'yorlarga quyidagi koeffitsientlar qo'llaniladi: uy-joy va kommunal xo'jalik korxonalari, xovuzli va ko'lli xo'jaliklar uchun-0,1; qishloq xo'jalik ishlab chiqaruvchilari uchun-0,2; issiqlik va atom elektr stansiyalari uchun-0,5; guruch yetishtiruvchilari uchun-0,8.

Barcha daryolar suv resurslaridan maxsus foydalanganlik uchun gidroelektrostansiyalarning me'yoriy to'lovi, turbinadan o'tgan har 100 m.kub suv uchun hisoblanadi. Limitdan yuqori darajada suvdan foydalanganlik uchun 5 marotiba ortiq to'lov undiriladi. To'lovning haqiqiy summasi har chorakda foydalanilgan suvning haqiqiy hajmi me'yorlar imtiyozlardan kelib chiqqan holda aniqlanadi. To'lov byudjetga hisobot choragidan keyingi oyning 20—kuniga qadar to'lanadi. Mahalliy soliqlar va yig'imlar tizimi o'z ichiga 2 ta soliq va 14 ta yig'imni oladi. Kommunal soliq va quyidagi yig'imlar majburiy bo'lib

hisoblanadi: savdo-sotiq va xizmatlar doirasi obyektlarini ko'chirishga ruxsat berishdan, bozor, kvartiraga order berishdan, it egalaridan olinadigan yig'imlar. Qolgan soliqlar mahalliy tashkilotlar ixtiyoriga bog'liq holda ma'lum hududlarda joriy qilinadi.

18.3. Chet elga chiqish uchun chegara oldi viloyat hududlaridan avtotransportda o'tganligi uchun yig'im. Bozor yig'imi, mehmonxona yig'imlarini undirish tartibi

Avtotransportda chet elga chiqmoqchi bo'lgan yuridik shaxslardan chegaraoldi hududidan chet elga chiqish uchun avtotransportda o'tganligi sababli yig'im olinadi. Ukrainada yuridik shaxslar va fuqarolar uchun soliq stavkasining chegaraviy miqdori fuqarolar daromadlari soliqqa tortilmaydigan eng kam miqdorining yarmini tashkil qiladi, boshqa davlatlarning yuridik shaxslari va fuqarolari uchun esa 5\$ dan 50\$ gacha yig'im undiriladi. Aniq stavkalar avtomashina markasi va ot kuchi quvvatiga bog'liqdir.

Bozor yig'imini bozorlarda ochiq peshtaxtalarda, avtomashinalarda, mototsikllarda, qo'l aravachalarda vaqtinchalik do'konlarda tovar savdo-sotig'i bilan shug'ullanadigan yuridik va jismoniy shaxslar to'laydilar. Bu yig'im alohida binoga ega bo'lgan savdo-sotiq stasionar punktlaridan, umumiy ovqatlanish korxonalaridan olinmaydi. Soliq stavkasi mahalliy hukumat tashkilotlari tomonidan quyidagi chegaralarda o'rnatiladi: yuridik shaxslar uchun 3 minimal ish haqidan ortiq bo'lmagan; fuqarolar uchun minimal ish haqidan 20 foizdan ortiq bo'lmagan. Mehmonxonada yashovchilar mehmonxona yig'imini to'lovchilar hisoblanadilar. Soliqqa tortish obyekti—qo'shimcha xizmatlarsiz ijaraga olingan xonaning bir kunlik qiymati hisoblanadi. Stavka ijaraga olingan xonaning bir kunlik qiymatining 20 foizdan ortiq bo'lmagan miqdorda belgilanadi.

Ukraina qonunchiligi Ukraina davlat byudjetiga kiritiladigan maqsadli fondlariga chegirmalarni ham ko'zda tutadi (pensiya fondi va ijtimoiy sug'urta fondidan tashqari).

Jamoatchilik foydalanadigan avtomobil yo'llarini qurish, qayta qurish, ta'mirlash va ta'minlash uchun chegirma hamda yig'imlar 1991 yil 18 sentyabrda qabul qilingan «Yo'l xo'jaligini moliyalashtirish haqida»gi Ukraina qonunida ko'zda tutilgan majburiy to'lovlar hisoblanadi. Mablag'lar tegishli byudjetlarning alohida schyotlariga o'tkaziladi va qat'iy maqsadlarda foydalaniladi. Bu to'lovlar quyidagilarni o'z ichiga oladi :

- korxonalar va tashkilot mablag'lari chegirmalari;
- yonilg'i-moylash materiallarini sotishdan olinadigan yig'im;
- avtomashinalardan foydalangandan olingan daromadlardan chegirmalar;
- Ukraina avtomobil yo'llaridan o'tganlik uchun yig'im;

- transport va boshqa o'ziyurar mashina va mexanizmlar egalaridan olinadigan soliq.

Soliqqa tortish obyekti, korxonalar va tashkilotlar mablag'lari bo'yicha ajratmalar stavkalari xo'jalik faoliyati turiga bog'liq bo'ladi. Masalan, sanoat, qurilish, transport korxonalari ishlab chiqargan mahsulot, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar hajmidan 0,4 dan 1,2 foizgacha stavka bo'yicha; tayyorlash, ta'minot-mol sotish tashkilotlari tovar aylanmasining 0,03 dan 0,06 foizgacha stavkada chegirmalar ajratadilar. Bunda soliqqa tortiladigan manbaga QQS va aksiz yig'imi summalari kiritilmaydi. Stavkalarining aniq miqdori hukumat tashkilotlari, viloyat va Qrim avtonom Respublikasi boshqarmalari tomonidan aniqlanadi. Yonilg'i-moylash materiallarini sotishdan olinadigan yig'imni korxonalar va aholi avtomashinalarga yonilg'i quygani uchun tadbirkorlar va korxonalar to'laydilar. Soliqqa tortish obyekti bo'lib, QQS hisobga olinmasdan sotilgan yonilg'i-moylash materiallarining qiymati hisoblanadi. Yig'im 7 foiz stavka bo'yicha undiriladi va sotish narxiga kiritiladi.

Avtomashinalardan foydalanib, olgan daromadlardan soliq to'lovchilar bo'lib, mulkka egalik shaklidan qat'iy nazar, yuk tashishni amalga oshiradigan avtotransport tashkilotlari hamda to'lov tarifi bo'yicha yuk tashishni amalga oshiradigan har qanday boshqa tashkilotlar hisoblanadilar. Avtotransportdan shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalanadigan tashkilotlarga ajratmalarni amalga oshirmaydilar. Soliqqa tortish obyekti bo'lib, QQSsiz, avtomashinadan foydalanib olingan daromad hisoblanadi. Stavka 2 foiz miqdorida belgilangan. Yig'im, tashish tarifiga kiritiladi.

Ukraina avtomobil yo'llaridan o'tganligi uchun yig'im, chet el davlatlari transport vositalari egalaridan Ukraina bojxona chegaralaridan o'tayotganda, Ukraina milliy banki tomonidan belgilanadigan valyutada undiriladi. Shuni takidlash kerakki, shartnomaning yetkazib berish bazisli shartiga ko'ra, ushbu yig'im Ukraina korxonasi tomonidan ham to'lanishi mumkin. Yig'im stavkasi transport vositasi turi, uning quvvati va yuk ko'tarish qobiliyatiga ko'ra belgilangan. Bundan tashqari, ko'rib chiqilayotgan yig'imni transport vositasining og'irligi va kattaligi, o'rnatilgan me'yorlaridan oshadigan Ukraina rezidentlari ham to'laydilar.

Transport va boshqa o'ziyurar mashina va mexanizm egalaridan olinadigan soliqni barcha yuridik shaxslar bilan birga, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan, ammo Ukrainada ro'yxatga olingan shaxsiy transport vositalari bo'lgan shaxslar to'laydilar. Soliq stavkasi dvigatel silindrining 100 sm.kub. hajmiga, elektr dvigateli transport vositalari bo'yicha 10 kv.t.ga, yaxta, qayiq va katerlarning 1 sm.ga evroda belgilangan. Soliq stavkasi soliq to'lovi amalga oshirilayotgan chorakning 1-kunidagi milliy bankning rasmiy kursi bo'yicha Ukrainaning milliy valyutasiga qayta hisoblanib o'tkaziladi. Bu soliq ishlab chiqarish va muomala xarajatlariga kiradi.

18.4. Nogironlarni ijtimoiy muhofaza qilish jamg'armasiga ajratmalar va davlat innovatsion jamg'armasiga yig'inlar

Barcha tashkilotlar, mulkka egalik qilish shaklidan qat'iy nazar Ukraina qonunchiligiga asosan, nogironlarni ish bilan ta'minlash uchun ish joylari yaratishlari kerak. Mahalliy hukumat tashkilotlari bunday ishchi o'rinlarining umumiy ishchilar sonining 4 foizdan kam bo'lmagan miqdorida me'yorlarni belgilaydilar. Agar tashkilotlar belgilangan me'yorlar bo'yicha ishchi o'rinlarini yaratmasalar, ular kasbiy va ijtimoiy rehabilitatsiya qilish tadbirlarini amalga oshirish uchun aytib o'tilgan fondlarga mablag'lar o'tkazishga majburlar. Ajratmalar miqdori nogironlarni ish bilan ta'minlash uchun yaratilmagan har bir ishchi o'rni uchun 1 ta ishchining o'rtaacha yillik ish haqi miqdorida belgilangan. Ajratmalar summasi to'lovchining yalpi xarajatlari tarkibiga kirmaydi, ya'ni korxonaning foydasi hisobidan to'lanadi.

Davlat innovatsion fondi yig'imi to'lovchilari bo'lib, shaxsiy mulk shakliga bog'liq bo'lmagan holda, barcha tadbirkorlik faoliyati subyektlari hisoblanadilar. Ushbu yig'im QQS va aksiz yig'imi chegirilgan holda sotilgan mahsulot, (amalga oshirilgan ish, xizmat) qiymatining 1 foizi miqdorida to'lanadi. O'tkazilgan yig'im summasi korxonaning yalpi xarajatlariga kiradi.

Qisqacha xulosalar

Ukrainada ko'pchilik davlat va mahalliy soliqlarning tuzilishi, hisob-kitob va undirish tartibiga ko'ra O'zbekiston soliq tizimiga o'xshashi bilan birga, o'ziga xos soliqlar ham mavjud. Kommunal soliq bunga misol bo'la oladi. Kommunal soliq to'lovchilari bo'lib, byudjet tashkilotlari, qishloq xo'jalik va rejali dotatsiyali korxonalardan tashqari barcha yuridik shaxslar hisoblanadilar. Soliqning chegaraviy miqdori yillik ish haqi fondining 10 % miqdorida belgilangan.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Ukraina soliq tizimi qanday tuzilgan?
2. Qo'shilgan qiymat solig'idagi o'ziga xoslik nimadan iborat?
3. Tamg'a yig'imi va resurs to'lovlari deganda nimani tushunasiz?
4. Ijara to'lovi va yer joylari solig'ini to'lash tartibi qanday?
5. Suv resurslaridan foydalanganligi uchun olinadigan to'lovlar qanday amalga oshiriladi?
6. Chet elga chiqish uchun chegara oldi viloyat hududlaridan avtotransportda o'tganligi uchun yig'im qanday amalga oshiriladi?
7. Bozor yig'imi qanday yig'im?
8. Mehmonxona yig'imlarini yig'ish qanday amalga oshiriladi?
9. Nogironlarni ijtimoiy muhofaza qilish jamg'armasiga ajratmalar va davlat innovatsion jamg'armasiga yig'inlar to'g'risida tushuncha bering.

10. Ukraina va Ozbekiston soliq tizimidagi farqlar va o'xshashliklar nimalardan iborat?

Asosiy adabiyotlar

1. «Налоги и налогообложение» 3-е издание под ред. М.Романовского и О.Врублёвской. М.:2002.

2. «Финансы» Учебник под .ред. Проф. Дробозиной Л.А. –М: «Финансы», ЮНИТИ, 2003.

3. Тютюрюков Н.Н. Налоговые системы зарубежных стран: Европа и США: Учеб.пос./-М.Дашков и К, 2002.

4. Ходов Л.Г., Попов В.И. Подходное налогообложение физических лиц (зарубежный опыт, российские проблемы): Учебное пособие - М.: ТЕИС, 2004.

5. <http://www.byudjet.ru> – Rossiya Federatsiyasi byudjet tizimi;

XIX BOB

QOZOG'ISTON RESPUBLIKASI SOLIQLAR TIZIMI

19.1. Qozog'iston umumdavlat soliqlari. Qozog'iston soliq tizimining asosini tashkil etuvchi soliq turlari

Qozog'istonda davlat byudjetini tartibga soluvchi manbaalar hisoblangan umumdavlat soliqlari va mahalliy byudjetlarning daromad manbai bo'lgan mahalliy soliqlar mavjud.

Qozog'iston Respublikasi soliq tizimining asosiy soliqlaridan biri QQS hisoblanadi. QQSning hisob-kitob qilishning umumiy tartibi ilg'or G'arbiy Yevropa mamlakatlarining tajribasidan o'zlashtirilgan. Soliqqa tortish va soliq manbai Rossiyadagi kabi aniqlanadi. QQSni to'lovchilar barcha yuridik shaxslar va doimiy tashkilotlar orqali faoliyat yuritadigan Qozog'iston Respublikasi norezidentlari; yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradigan jismoniy shaxslar hisoblanadilar. Yuridik shaxs bo'linmalari Qozog'iston Respublikasi davlat daromadlari vazirligining ruxsatiga asosan QQSni mustaqil to'lashlari mumkin. Soliq to'lovchilar uchun soliq to'lash tartibi katta ahamiyatga ega. Qozog'istonda sotib olingan moddiy boyliklar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha QQS xaridorlar tomonidan to'lanadigan to'lovga bog'liq bo'lmagan holda chegiriladi. Soliq manbaini aniqlashdagi xususiyatlarni ham aytib o'tish lozim, jumladan, aksiz osti tovarlar bo'yicha aksiz summasi soliq manbaasiga kiritilmaydi. Bundan tashqari import qilinadigan tovarlar soliq manbasi bo'lib, faqat tovarlar va transport vositalarining bojxona qiymati kiradi. Bu esa bir marta soliqqa tortish tamoyiliga mos keladi²⁷.

QQSning asosiy stavkasi soliqqa tortiladigan aylanmadan 20 foiz miqdorida belgilangan, 10 foiz miqdoridagi pasaytirilgan stavka esa, asosiy oziq-ovqat mahsulotlar, tirik og'irlikdagi chorva va qushlar, bolalar va diabetli oziqlanish mahsulotlari, maxsus ro'yxat bo'yicha omuxta yem uchun qo'llaniladi. Bundan tashqari, eksport qilinadigan tovarlar, yo'lovchilar, tovarlar, uy hayvonlari, bagaj va pochmani xalqaro tashish nolinch stavka bo'yicha soliqqa tortiladi. Respublika hududdida rezidentlar tomonidan to'qimachilik, tikuv, teri-poyafzal sanoati sohalari bo'yicha xususiy ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotishda ham nolinch stavka qo'llaniladi. Bu esa ichki ishlab chiqaruvchilarni qo'llab quvvatlash choralaridan biridir. Nolinch stavkani qo'llanilishi ikki yoqlama imtiyoz hisoblanadi: bir tomondan sotiladigan tovarlar soliqdan ozod bo'ladi; ikkinchi tomondan bunday tovarlarni ishlab chiqarishda foydalanilgan moddiy resurslar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i summasi chegiriladi.

²⁷ «Налоги и налогообложение» 3-е издание под ред. М.Романовского и О.Врублёвской. М.:2002.

19.2. Yuridik va jismoniy shaxslar daromad soliqlari va soliq imtiyozlari

Yuridik va jismoniy shaxslar daromad solig'i to'lovchilari Qozog'iston Respublikasi Milliy bankidan tashqari barcha yuridik shaxslar, jismoniy shaxslar, shu bilan birga yuridik shaxslar- norezidentlar, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar hisoblanadilar. Soliqqa tortish obyekti bo'lib, umumiy yillik daromad va tegishli chegirmalar orasida bo'lgan farq soliqqa tortiladigan daromad hisoblanadi. Soliq to'lovchi- rezidentning umumiy daromadi Qozog'istonda va undan tashqarida olingan daromadlardan tashkil topadi, norezidentlarning umumiy daromadiga esa faqat Qozog'iston hududida olingan daromadlar kiradi.

Umumiy daromadga quyidagi faoliyatdan olingan daromadlar kiradi:

- tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar;
- ish haqi va pensiya to'lovlari ko'rinishida olinadigan daromadlar;
- jismoniy shaxslarning mol-mulkdan olgan daromadi.

Tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromadlarga quyidagilar kiradi:

- mahsulot, ish, xizmatlarni sotishdan olingan daromadlar, shu jumladan yuklab jo'natilgan mahsulot uchun, bajarilgan ishlar ko'rsatilgan xizmatlar uchun barcha pul va boshqa mablag'lar, barcha boshqa operatsiyalar uchun olingan yoki olinadigan daromadlar, shu jumladan o'zaro hisob-kitoblar tartibida uchinchi shaxslarga yo'naltirilgan yoki to'g'ri va egri xarajatlarni qoplash uchun;

- binolar va qurilmalarni sotishdan olingan qo'shimcha daromadlar hamda inflyatsiyaga qarab, amortizatsiya qilinmaydigan aktivlarni sotishdan olingan daromadlar;

- sotuvdan tashqari olingan daromadlar-dividendlar, foizlar bo'yicha daromadlar, qaytarmaslik sharti bilan olingan pul mablag'lari va mol-mulk, yuridik shaxslarga berilgan subsidiyalari (davlat byudjetidan berilgan subsidiyalardan mustasno), mol-mulknii ijaraga berishdan olingan daromadlar, tadbirkorlik faoliyatini cheklab qo'yish yoki tugatish uchun berilgan rozilikdan olingan daromadlar, qarzlarni kechishdan olingan daromadlar, qoplanadigan chegirmalar va ayrim boshqa daromadlar.

Ish haqi ko'rinishidagi olinadigan daromadlarga jismoniy shaxsning yollanib ishlagandagi barcha daromadlari; korxonada ishchilariga sotiladigan xizmatlar yoki tovarlar qiymatining, ushbu tovar yoki xizmatning haqiqiy bahosi yoki tannarxi orasidagi manfiy musbatdan paydo bo'lgan farq yoki daromad; ish beruvchi tomonidan ishchi foydasiga qarzlarni kechishdan olingan daromad; ish beruvchi tomonidan o'z ishchisini sug'urta qilinishi; ish beruvchi tomonidan o'z ishchisini xarajatlari qoplanishi, qaysiki ishchi uchun bu to'g'ri yoki egri daromad hisoblangan taqdirda.

Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadiga quyidagi aktivlar turlarini sotishdan olingan qo'shimcha daromadlar (inflyatsiyani hisobga olgan holda) kiradi: soliq to'lovchining yashash joyi bo'lmagan ko'chmas mulki; qimmatli qog'ozlar va boshqa nomoddiy aktivlar; xorijiy davlatlar valyutalari; zargarlik buyumlari, san'at asarlari va antikvariatlar. Soliqqa tortish maqsadida umumiy yillik daromad turlari

bo'yicha, asosiy stavkadan farqli o'laroq, tuzatish kiritilib, soliqla tortiladi. Xususan, qimmatli qog'ozlarni sotishdan olingan qo'shimcha qiymat va yuridik shaxs-rezidentning faoliyatiga ishtirok etishdan olingan daromadlar, inflyatsiyani hisobga olgan holda, jismoniy shaxslar tomonidan olingan ushbu daromadlar 15 foiz stavka bilan soliqla tortiladi. Bundan tashqari, tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan kurslar farqining ijobiy summasi chegiriladi.

Yuridik va jismoniy shaxslarning umumiy yillik daromadidan uni olish bilan bog'liq bo'lgan barcha ish haqi xarajatlari, shu bilan birga ish haqini to'lash bo'yicha xarajatlar, hamda Davlat ijtimoiy sug'urta jamg'armasi, bandlikka ko'maklashishi davlat jamg'armasi, majburiy tibbiy sug'urta jamg'armasi, pensiyalarni to'lash davlat markazi, yo'l fondiga ajratmalar olib tashlanadi. Jarimalar, penyalar, xo'jalik shartnomalarini buzganlik uchun jarimalar, tadbirkorlik faoliyatida uch yildan ortiq foydalanilayotgan bino (imoratlarini) sotishdan olingan zararlari; yuridik shaxs tomonidan xarajatlarning belgilangan me'yorlariga muvofiq ijtimoiy tarmoq obyektlarini saqlash uchun qilingan xarajatlari ham umumiy yillik daromaddan chegiriladi. Tadbirkorlik faoliyatidan ko'rilgan zararlari keyingi davrga o'tkazilib, umumiy yillik daromadlar hisobidan 5 yilgacha bo'lgan muddatda qoplanadi. Bundan tashqari jismoniy shaxslarga uning qaramog'ida bo'lgan oila a'zolari va o'zi uchun umumiy daromaddan bir minimal oylik ish haqi miqdorida har bir oy uchun chegirib tashlash huquqi beriladi. Bunda soliq chegirmasidan oila a'zolaridan faqat bir kishi foydalanishi mumkin.

Daromad solig'i bo'yicha ijtimoiy xususiyatga ega bo'lgan bir qator imtiyozlar ko'zda tutilgan. Jumladan quyidagi yuridik shaxslarning daromadi soliqla tortishdan ozod etiladi:

- Qozog'iston Respublikasi nogironlar jamiyati;
- Qozog'iston Respublikasi ko'rlar jamiyati;
- aqliy va jismoniy zaif bolalarni reabilitatsiya qilish ijtimoiy markazi;
- DOSAAF markaziy qumitasi;
- hamda yuqorida ko'rsatilgan tashkilotlarning mulki bo'lgan ishlab chiqarish korxonalarini;
- Afg'onistondagi urush veteranlari qozoq tashkiloti.

Umumiy ishchilar sonining 30 foizdan kam bo'lmagan miqdorini nogironlar tashkil qilgan ishlab chiqarish korxonalarining umumiy yillik daromadi, soliqla tortish maqsadida ikki barobarga kamayadi.

Jismoniy shaxslarning quyidagi daromadlari daromad solig'iga tortilmaydi: davlat pensiyalari, stipendiya va nafaqalar, kasallik varaqasi bo'yicha to'lovlar, bolalar va boqimondalarga alimentlar, bir jismoniy shaxsdan ikkinchi jismoniy shaxsга sovg'a yoki meros hamda gumanitar yordam sifatida olingan mulk qiymati, byudjetdan berilgan moddiy yordam.

Yuridik shaxsning soliqla tortiladigan daromadi 30 foiz stavka bilan soliqla tortiladi. Yer asosiy ishlab chiqarish vositasi bo'lgan yuridik shaxslar bundan

mustasnodir. Ular bevosita yerdan foydalangan holda topgan daromadlaridan 10 foiz stavka bo'yicha soliq to'laydilar. Yuridik va jismoniy shaxslarga to'lanadigan foizlar, dividendlar, to'lov manbaining o'zida 15 foiz stavka bo'yicha soliqqa tortiladi va qaytib soliqqa tortilmaydi. Doimiy tashkilotlar bilan bog'liq bo'lmagan norezidentlarning Qozog'istondagi manbalardan olingan daromadi, to'lov manbaida quyidagi stavkalar bo'yicha soliqqa tortiladi;

- dividendlar va foizlar-15 foiz;
- sug'urta shartnomalari bo'yicha to'lanadigan sug'urta to'lovlari;
- Qozog'iston va boshqa davlat orasidagi xalqaro aloqa yoki yuk tashishning telekommunikatsion va transport xizmatlari – 5 foiz;
- royalti, boshqaruv xizmatlar ko'rsatishdan olingan daromadlar, maslahat xizmatlari, ijaradan olinadigan daromadlar va boshqa daromadlar-20 foiz.

Jismoniy shaxslarning umumiy soliqqa tortiladigan daromadi maxsus jadval bo'yicha daromad miqdoriga bog'liq holda tabaqalashtirilgan stavkalar bo'yicha soliqqa tortiladi.

19.3. Ishlab chiqariladigan va import qilinadigan tovarlariga aksiz solig'ini qo'llash tartibi

Aksiz solig'iga nafaqat Qozog'iston Respublikasi hududida ishlab chiqarilgan tovarlar balki, import tovarlar va qimor o'yinlari ham tortiladi. Aksiz osti tovarlar ro'yxati ichki ishlab chiqarish uchun ham, import tovarlar uchun ham bir xil ammo Rossiyadan farqli ancha tovarlar doirasini o'z ichiga oladi. Aniq stavkalar Respublika hukumati tomonidan belgilanadi. Bunda qatiy va foizli stavkalar bir-biridan farq qiladi.

Soliqqa tortish obyekti bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

-mahsulotlar bo'yicha- aksizlarni hisobga olmagan holda tovarning narxiga asosan aniqlanadigan mahsulotning qiymati;

- tovar ishlab chiqaruvchi tomonidan aksiz osti tovarlarni natura sifatida berishi hamda qaytarmaslik va tovarayirboshlash jarayonlarida-aksiz solig'isiz yoki natura ko'rinishidagi mahsulot hajmi bo'yicha o'zi ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati;

- import qilinadigan aksiz osti tovarlar bo'yicha-bojxona qonunchiligiga asosan aniqlanadigan tovarlarning bojxona qiymati yoki natural ko'rinishidagi mahsulot hajmi.

- qimor o'yini bo'yicha-qimor o'yinlaridan tushgan tushum.

Agar aksiz osti mahsulot, Qozog'iston hududida aksiz solig'iga tortilgan xom-ashyodan ishlab chiqarilsa, sotiladigan mahsulotga belgilangan aksiz solig'i miqdori xom-ashyodan olingan aksiz summasiga kamayadi. To'lov muddatlari aksiz osti tovarlar turiga bog'liq. Bunda soliq to'lovchi hisoblash uslubi yoki xazina uslubi bo'yicha sotish vaqtini mustaqil aniqlaydi. Etil spirti, aroq, spirtli ichimliklar, sharbat va balzamlar, vino, konyak, shampon vinosi, pivo uchun aksiz solig'i ushbu tovarlar sotilgan kundan keyingi uch kun orasida byudjetga to'lanishi shart. Tamaki mahsulotlari, baliq ikralari, zargarlik buyumlari, mo'yna terilar, tabiiy mo'ynadan qilingan buyumlar, tabiiy teridan tikilgan kiyimlar, xrustal buyumlar,

benzin, yengil avtomobillar, o'q otadigan va gazli qurollar hamda qimor uyinlaridan tushgan tushumlardan aksizlar quyidagi muddatlarda byudjetga o'tkaziladi:

- oyning birinchi o'n kunligi ichida sotilgan tovarlar bo'yicha hisobot oyining o'n uchinchi kunigacha;
- oyning ikkinchi o'n kunligi ichida sotilgan tovarlar bo'yicha hisobot oyining yigirma uchinchi kunigacha;
- oyning qolgan kunlarida sotilgan tovarlar bo'yicha hisobot oyidan keyingi oyning uchinchi kunigacha.

Bu soliq bo'yicha qator imtiyozlar ko'zda tutilgan. Jumladan, quyidagi tovarlar aksiz solig'iga tortilmaydi: musodara qilingan aksiz osti import tovarlari, davlat ixtiyoriga o'tgan egasiz mulklar, muhtojlarga yordam berish maqsadida gumanitar yordam sifatidagi tovarlar. Eksport qilinishi lozim bo'lgan aksiz osti tovarlar haqiqatda eksport qilinganligi sharti tasdiqlangach, aksiz solig'idan ozod qilinadi. Shuni inobatga olish kerakki, xalqaro shartnomalarga asosan, narxlarda aksizlar mavjudligini inobatga olgan holda tovarlarni yetkazish uchun o'zaro hisob-kitoblar amalga oshirilishi mumkin.

19.4. Tabiiy boyliklardan foydalanuvchilarni soliqqa tortishning tartibi

Yer osti boyliklardan foydalanuvchilarni uchun soliqqa tortish shartnomalarning asosiy turlaridan kelib chiqqan holda ikki turga bo'linadi. Birinchi tur yer osti boyliklardan foydalanuvchilarning Qozog'iston qonunchiligi hujjatlarida belgilangan barcha turdagi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashi ko'zda tutadi. Ikkinchi tur yer osti boyliklardan foydalanuvchilarning mahsulot taqsimlanishi bo'yicha Qozog'iston Respublikasi ulushini hamda quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashni ko'zda tutadi: yuridik shaxslarning daromad solig'i, chet el yuridik shaxsi hisoblangan doimiy muassasining daromadi, QQS, royalti, yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun yig'im, alohida faoliyat turi bilan shu g'ullanishi uchun beriladigan huquqlari uchun yig'im va boshqa majburiy to'lovlar.

Yer osti boyliklaridan foydalanuvchilarning maxsus to'lov va soliqlariga quyidagilar kiradi: royalti, qo'shimcha foydadan olinadigan soliq. Royaltining barcha turlari daromad solig'i va qo'shimcha foydadan olinadigan soliq uchun soliqqa tortiladigan daromadni aniqlashda chegirmalar bo'lib hisoblanadi.

Qisqacha xulosalar

Soliq qonunchiligining takomillashuvi—Qozog'iston iqtisodini isloh qilishning dolzarb yo'nalishlaridan biridir. Fiskal tashkilotlar faoliyatini takomillashtirish dasturiga asosan Qozog'iston Respublikasi davlat daromadlari vazirligining 2001-2005 yillarida soliq va bojxona boshqaruv sifatini oshirish, soliq solish sohasi bo'yicha quyidagi vazifalarni amalga oshirishi belgilangan:

- soliq kodeksini amalga joriy etish;
- byudjetga daromadlar tushumi hisobi va istiqbolni belgilash uslubiyotini rivojlantirish;

- kichik biznes va qishloq xo'jalik ishlab chiqaruvchilarini rivoji uchun qulay sharoit yaratib berish maqsadida maxsus soliq rejimlari uslubiyotini takomillashtirish;
- soliq auditi samaradorligini oshirish;
- soliq boshqaruvi jarayonlarini avtomatlashtirish.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Qozog'istondagi umumdavlat soliqlari qaysi soliq turlaridan iborat?
2. Qaysi soliq turi Qozog'iston soliq tizimining asosini tashkil etadi?
3. Yuridik va jismoniy shaxslardan daromad solig'i qanday undiriladi?,
4. Qozog'istonda qanday soliq imtiyozlari mavjud?
5. Eksport va import tovarlariga aksiz solig'ini qo'llash tartibi qanday?
6. Jami soliqqa tortiladigan daromadni aniqlash qanday hisoblanadi?
7. Tabiiy boyliklardan foydalanuvchilarni soliqqa tortishning tartibi qanday?
8. Soliq qonunchiligini takomillash uchun Qozog'istonda qanday chora –tartiblar ko'rilmogda?
9. Yer osti boyliklaridan foydalanuvchilarning maxsus to'lov va soliqlariga nimalar kiradi?
10. Qanday tovarlar aksiz solig'iga toprtiladi?

Asosiy adabiyotlar

1. «Налоги и налогообложение» 3-е издание под ред. М.Романовского и О.Врублёвской. М. 2002.
2. «Финансы» Учебник под .ред. Проф. Дробозиной Л.А. –М: «Финансы», ЮНИТИ, 2003.
3. Тютюрюков Н.Н. Налоговые системы зарубежных стран: Европа и США: Учеб.пос./-М.: Дашков и К, 2002.
4. Ходов Л.Г., Попов В.И. Подходное налогообложение физических лиц (зарубежный опыт, российские проблемы): Учебное пособие - М.: ТЕИС, 2004.
5. М.Юткина «Налоги и налогообложение» Москва изд. «Финансы и статистика» 2003.
6. <http://www.google.ru> . - Rossiya Federatsiyasi qidiruv sayti.

XX BOB OZARBAYJON RESPUBLIKASI SOLIQ TIZIMI

20.1. Ozarbayjon Respublikasi soliq kodeksining qabul qilinishi

1995 yilda Ozarbayjon Respublikasi hukumati iqtisodiy islohotlar dasturini qabul qildi. Unga asosan 2-3 yil ichida byudjet difisitini keskin qisqarishini ko'zda tutgan chegaralangan monetar siyosatni amalga oshirish, soliqqa tortishning yuqori stavkalari, davlat xarajatlarining qisqartirish, pul emissiyasini qisqartirish, qarzar bo'yicha foiz stavkalarining ko'payishi rejalashtirilgan edi. Ushbu choralarning amalga oshishi inflyatsiya darajasini pasayishiga olib keldi. Iqtisodiy o'zgarishlar doirasida soliq tizimiga alohida e'tibor qaratildi. 2001 yil 1 yanvardan boshlab, Ozarbayjon respublikasi soliq kodeksi kuchga kirdi. U respublikada soliq tizimini qaror toptirish bilan, soliqqa tortishning umumiy tamoyillarini, soliqlarning to'lash tartibini, soliq to'lovchilar, davlat soliq xizmati idoralarining hamda soliq munosabatlarining boshqa a'zolarining huquq va burchlarini, soliq nazoratining shakli va uslublarini, soliq qonunchiligini buzganda javobgarlikni, davlat soliq xizmati idoralari va mansabdor shaxs ustidan shikoyat qilish tartibini belgilaydi. Shu bilan birga Naxichivan avtonom respublikasi va mahalliy hokimiyatlardagi soliqqa tortishning umumiy tamoyillari va soliq turlari ham aniqlanadi²⁸.

20.2. Respublikada o'rnatilgan va to'lanadigan soliq turlari: davlat soliqlari, avtonom respublika soliqlari, mahalliy soliqlar

Ozarbayjon respublikasi soliq kodeksiga asosan quyidagilar belgilanadi va to'lanadi: davlat soliqlari; avtonom respublika soliqlari; mahalliy soliqlar. Davlat soliqlariga soliq kodeksi tomonidan belgilangan va Ozarbayjon respublikasining barcha hududlarida to'lanishi majburiy bo'lgan soliqlar kiradi. Avtonom respublika soliqlariga esa Ozarbayjon respublikasi soliq kodeksi, Naxichivan avtonom respublikasi qonunlariga asosan belgilangan va faqat Naxichivan avtonom respublikasida to'lanadigan soliqlar kiradi. Mahalliy soliqlar soliq kodeksiga asosan va mahalliy hokimiyat qarorlari bo'yicha belgilanadigan mahalliy hokimiyatlar hududlarida to'lanadigan soliqlardir.

Davlat soliqlariga quyidagilar kiradi:

- jismoniy shaxslar daromad solig'i;
- yuridik shaxslar foyda solig'i (mahalliy hokimiyatlar mulki bo'lgan korxonalar, tashkilotlardan tashqari);
- qo'shilgan qiymat solig'i (QQS);
- aksizlar;
- yuridik shaxslar mol-mulkidan olinadigan soliq;
- yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i;
- yo'l solig'i;
- yer osti boyliklari daromadidan olinadigan soliq.

²⁸ «Налоги и налогообложение» 3-е издание под ред. М.Романовского и О.Врублёвской. М.:2002.

Avtonom respublika soliqlariga yo'l solig'idan tashqari yuqorida sanab o'tilgan barcha soliqlar kiradi. Mahalliy soliqlarga quyidagilar kiradi:

- jismoniy shaxslar yer solig'i;
- jismoniy shaxslar mol mulk solig'i;
- mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan qurilish materiallari boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq;
- mahalliy mulkka ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarning foyda solig'i;
- soddalashtirilgan tizim bo'yicha undiriladigan soliq.

20.3. Foyda solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, aksizlar to'g'risida tushunchalar

Byudjetning daromad bazasining shakllanilishida foyda solig'i, QQS, aksizlar, jismoniy shaxslar daromad solig'i va boshqa soliqlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Ozərbayjon Respublikasında foyda solig'ini to'lovchilar- rezidentlar va nerezident-korxonalar hisoblanadilar. Rezident – korxonalar uchun soliqqa tortish obyekti bo'lib uning foydasi hisoblanadi. O'zining doimiy vakilligi orqali Ozərbayjon Respublikasında o'z faoliyatini amalga oshirayotgan nerezident-korxonalar, Ozərbayjon Respublikasi hududidagi manbalar o'layotgan yalpi daromadi summasiga teng bo'lgan foydasidan soliq to'laydi. Bunda daromad olish uchun qilingan xarajatlar olib tashlanadi. Foyda solig'idan (tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromaddan tashqari) quyidagilar ozod etiladi:

- xayriya tashkilotlari;
- beg'araz pul o'tkazish;
- notijorat tashkilotlari tomonidan olinadigan a'zolik badallari va xayr-ehsonlar;
- xalqaro, davlatlararo tashkilotlar daromadlari ;
- davlat hokimiyati va byudjet tashkilotlari hamda mahalliy o'z-o'zini boshqarish tashkilotlari daromadlari ;
- Ozərbayjon Respublikasi Milliy banki va uning tizimlari daromadlari ;
- olingan sug'urta to'lovlari .

Agar ishlab chiqarish korxonalari jamoat tashkilotlariga tegishli bo'lsa va jami ishchilarining 50 foizini nogironlar tashkil qilsa, undan olinadigan foyda solig'ining stavkasi 50 foizga kamayadi.

Yuridik shaxslar va xususiy tadbirkorlar chorak tugagandan so'ng 15 kun ichida byudjetga joriy to'lovlarni to'lashlari shart. Mahalliy hokimiyatlar ixtiyorida bo'lgan korxonalar va tashkilotlar daromad solig'ini mahalliy byudjet hisobiga o'tkazadilar. 1997 yilgacha amaldagi foyda solig'ini stavkasi 35 foiz miqdorida edi. 1997 yildan boshlab, foyda solig'i xaqidagi yangi qonun qabul qilingach, 32 foiz miqdorda yangi stavka belgilandi. 1999 yilda bu stavka 30 foizga qadar pasaytirildi. 2000 yilda esa 27 foiz miqdorida stavka qabul qilindi.

QQS Ozərbayjon Respublikasi hududida ishlab chiqarish jarayonida, tovar aylanmasida, bajarilgan ishlar yoki xizmat ko'rsatishda qo'shilgan qiymatning o'sish qismining byudjetda saqlab qolish shakli, hamda Ozərbayjon Respublikasi hududiga kiritilgan barcha soliqqa tortiladigan tovarlar qiymatining bir qismidir. QQS to'lovchisi ro'yxatdan o'tgan yoki ushbu soliqni to'lovchisi sifatida ro'yxatdan o'tishi lozim bo'lgan shaxs hisoblanadi. Ro'yxatga olish kuchga kirgan paytdan boshlab, ro'yxatga olingan shaxs soliq to'lovchiga aylanadi. Bundan tashqari Ozərbayjon Respublikasi soliqqa tortiladigan importni amalga

oshiradigan barcha shaxslar, ushbu tovarlar importi bo'yicha QQS to'lovchilari hisoblanadilar.

Soliqqa tortish obyekti bo'lib, soliqla tortish jarayonlarining va soliqla tortiladigan importning qo'shilgan qiymati hisoblanadi. Tovarlarini etkazib berish, Ozarbayjon Respublikasi hududida soliq kodeksiga asosan amalga oshirilayotgan, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan mustaqil yoki qo'shma tadbirkorlik faoliyati orqali ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish soliqla tortiladigan jarayonlar ham soliq obyekti hisoblanadi (soliqdan ozod bo'lgan faoliyatlardan tashqari). Ozarbayjon respublikasidan tashqarida bajarilgan faoliyatlar soliqla tortiladigan jarayonlar hisoblanmaydi.

Tovarlarini yetkazib berish, ish va xizmatlarning quyidagi turlari QQS dan ozod etiladi:

- davlat korxonalarini mulkini xususiy lashtirib sotib olish bahosi hamda byudjet hisobiga olinishi lozim bo'lgan davlat korxonalarini ijarasi uchun to'lanadigan ijara haqining bir qismi;

- moliyaviy xizmatlar ko'rsatish (moliyaviy lizingni qo'shib hisoblaganda);

- milliy yoki chet el valyutasini hamda qimmatli qog'ozlarni yetkazib berish yoki qabul qilish;

- Ozarbayjon respublikasi Milliy banki aktivlarida joylashtirish uchun mo'ljallangan oltin importi hamda valyuta qimmatliklari, Ozarbayjon respublikasi qog'oz pullari, yubiley tangalari va boshqa shunga o'xshash chet elda tayyorlangan qimmatliklarni olib kirish;

- korxonaning nizom jamg'armasi (kapital)ga kiritilgan ixtiyoriy mablag'lar;

- davlat hokimiyati, mahalliy o'z-o'zini boshqarish va vakolatli tashkilotlar tomonidan chegirib qolingan bojlar, viza uchun to'lovlar, yig'imlar; shunga o'xshagan chegirmalarni amalga oshirish uchun ko'rsatilgan xizmatlar;

- davlatlararo va hukumatlararo bitimlarga asosan xalqaro tashkilotlar, xorijiy davlatlar hukumatlari va chet el yuridik hamda jismoniy shaxslar tomonidan ajratiladigan qarz va ssuda hisobidan sotib olingan tovarlar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar;

- ommaviy axborot vositalari mahsulotlarini turli xil oldi-sotdi jarayonlari (nashriyot va poligrafiya faoliyati, byudjet tomonidan moliyalashtiriladigan o'rta maktab darsliklari, bolalar adabiyoti va davlat ahamiyatidagi nashr bilan bogliq nashriyot, poligrafiya faoliyati);

- qabriston va dafn byurosi xizmatlari; moliyaviy lizing shartnomasi obyekti bo'lgan mol-mulk importi; qonunchilik tomonidan ko'zda tutilgan Ozarbayjon respublikasi Milliy banki majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan tovarlar importi, bajarilgan ishlar va xizmatlar ko'rsatish.

Quyidagi hollarda QQS nol stavka bo'yicha undiriladi:

- chet el diplomatik va boshqa shunga o'xshash vakillarining rasmiy hamda diplomatik ma'muriy va texnik xodimlarning (ular bilan yashaydigan oila a'zolarini hisobga olgan holda) shaxsiy foydalanish uchun tovar va xizmatlarning sotilishi;

- chet eldan olingan beg'araz moliyaviy yordam (grantlar) hisobidan sotib olingan tovarlar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar va ularning importi;

- tovarlarni eksport qilishda; xalqaro yuk va passajir tashish bilan bog'liq transport yoki boshqa xizmatlar hamda ishlarni bajarish, yoqilg'i moylash materiallari va boshqa texnik qismlarni yetkazish bilan bog'liq ishlar;

- Ozarbayjon respublikasi Milliy bankiga oltin va boshqa qimmatbaho narsalar yetkazish.

QQSning birlamchi stavkasi 28 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 1997 yilda u 20 foizga qadar kamaytirildi, 2001 yil boshidan esa 18 foiz deb belgilandi.

Aksiz osti tovarlariga oziq ovqat spirti, xamirturush, pivo va barcha spirtli ichimliklar, tamaki mahsulotlari va neft mahsulotlari kiradi. Aksiz stavkalari Ozarbayjon respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Ozarbayjon respublikasida aksiz osti tovarlarni ishlab chiquvchi yoki importni amalga oshiruvchi barcha korxonalar va jismoniy shaxslar hamda bevosita yoki pudratchilar orqali Ozarbayjon respublikasidan tashqarida aksiz osti tovarlarini ishlab chiqaruvchi va ishlab chiqarish joyida soliq to'lovchi sifatida hisobda bo'lmagan Ozarbayjon Respublikasi rezidentlari aksiz solig'i to'lovchilari hisoblanadilar. Ozarbayjon Respublikasi hududida buyurtma beruvchi tomonidan berilgan xom ashyodan tovarlar ishlab chiqilsa, tovar ishlab chiqaruvchilar aksiz to'lovchi hisoblanadi. Bunda tovar ishlab chiqaruvchilar buyurtmachidan aksiz summasini talab qilishi kerak. Quyidagi jarayonlar soliqqa tortish obyekti hisoblanadi: Ozarbayjon respublikasi hududida ishlab chiqariladigan aksiz osti tovarlarini ishlab chiqarish korxonalari omborxonalaridan tashqariga chiqarish; tovarlar importi-Ozarbayjon respublikasi Bojxona kodeksiga asosan aksiz osti tovarlar hisoblangan tovarlarning bojxona xizmati nazorati ostidan chiqarish. Aksiz osti tovarlar eksporti nolinch stavka bo'yicha soliqqa tortiladi. Shaxsiy iste'mol uchun jismoniy shaxs tomonidan 3 litr alkogolli ichimlik va 3 blok sigaret olib kirish hamda Ozarbayjon respublikasiga avtomobilga kirayotgan shaxslarnig texpasportida ko'zda tutilgan miqdorda yoqilg'i bakidagi yoqilg'i; Ozarbayjon respublikasi hududidan tranzit orqali tashiladigan tovarlar; Ozarbayjon respublikasi hududiga tovarlarning vaqtinchalik importi (qayta import qilinishi lozim bo'lgan tovarlardan tashqari); Ozarbayjon respublikasi hududidan tranzit orqali o'tadigan tovarlar bo'yicha jarayonlar aksiz solig'i to'lovidan ozod etiladi.

20.4. Jismoniy shaxslar daromad solig'i, mol-mulk solig'ini hisoblash mexanizmi

Jismoniy shaxslar daromad solig'ini to'lovchilar: rezident va norezident jismoniy shaxslardir. Rezidentlarning daromadi bo'yicha soliqqa tortiladigan obyekt soliq yilidagi jami daromadlar bilan ushbu davrdagi soliq kodeksida belgilangan chegirmalar o'rtasidagi farq bilan aniqlanadi. O'zining doimiy vakilligi orqali Ozarbayjon respublikasida faoliyat yuritayotgan norezident-soliq to'lovchi, doimiy vakilligi bilan bo'lgan soliqqa tortiladigan daromadlardan daromad solig'i to'lovchilari hisoblanadilar. Soliqqa tortiladigan daromad, malum bir ish davomida doimiy vakillik bilan bog'liq ravishda Ozarbayjon respublikasi hududidagi manbalardan olingan jami daromad bilan ushbu davr ichidagi xarajatlar farqi tushuniladi. O'z faoliyati, mahsulot sotishi, mulkini ijaraga berish natijasida daromad oladigan norezident- jismoniy shaxs joriy yil davomida Ozarbayjon respublikasi hududidagi manbalardan olingan va soliq kodeksida ko'zda tutilgan chegirmalar summasiga kamaytirilgan daromad solig'i to'lovchisi hisoblanadi.

Jismoniy shaxslarning oylik daromad solig'i stavkalari

Soliqqa tortiladigan oylik daromad	Soliq summasi
100000 manatgacha	Soliqqa tortilmaydi
100001 dan 600000 manatgacha	12%, 100000 manatdan oshgan qismidan
600001 dan 1400000 manatgacha	60000manat + 20%, 600000 manatdan oshgan qismidan
1400001 dan 3000000 manatgacha	220000manat + 25%, 1400000 manatdan oshgan qismidan
3000001 manatdan 5000000 manatgacha	620000manat + 30%, 3000000 manatdan oshagan qismidan
5000000 manatdan yuqori	1220000manat + 35%, 500000 manatdan oshgan qismidan

Yillik daromadlar soliq stavkalari

Soliqqa tortiladigan yillik daromad	Soliq summasi
1200000 manatgacha	Soliqqa tortilmaydi
1200001 manatdan 7200000 manatgacha	12%, 1200000 manatdan oshgan qismidan
7200001 dan 16800000 manatgacha	720000manat + 20%, 7200000 manatdan oshgan qismidan
16800001 dan 36000000 manatgacha	2640000manat + 25%, 16800000 manatdan oshgan qismidan
36000001 manatdan 60000000 manatgacha	7440000manat + 30%, 36000000 manatdan oshgan qismidan
60000000 manatdan yuqori	14640000manat + 35%, 60000000 manatdan oshgan qismidan

Mol-mulk solig'ini to'lovchilari quyidagilar: joriy yilning birinchi yanvarida soliqqa tortiladigan obyekt bo'lgan jismoniy shaxslar, rezidentlar va norezidentlar, hamda korxonalar, rezidentlar, Ozarbayjon respublikasi hududida o'zining doimiy vakilligi orqali tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradigan norezident korxonalar. Soliqqa tortish obyektiga quyidagilar kiradi: Ozarbayjon respublikasi hududida joylashgan va jismoniy shaxslarning xususiy mulki hisoblangan binolar, hamda jismoniy shaxslarga tegishli avtomobillar, qayerda joylashganligi va undan foydalaniladimi, yo'qmi, bundan qat'iy nazar suv va havo transporti qiymati, korxonalar balansida bo'lgan avtotransport vositalari qiymati.

Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'ini belgilangan stavkalar bo'yicha quyidagi tartibda to'laydilar: ularning xususiy mulki bo'lgan binolarning inventarizatsiya qiymatidan-bu qiymat oylik daromadning soliqqa tortilmaydigan qismidan 300 barobardagi miqdoridan oshmasa, soliqdan ozod etiladi, aks holda 0,1 foiz miqdordagi stavka bo'yicha soliqqa tortiladi; havo va suv vositalari transporti uchun: suv va havo transporti dvigateli hajmining har bir sm.kub. uchun-soliqqa tortilmaydigan oylik daromadning 0,2 foiz miqdorida; dvigateli bo'lmagan suv va havo transporti uchun-ularning bozor qiymatining 1 foiz miqdorida. Korxonalar mol-mulk solig'ini asosiy vositalar qiymatidan 1 foiz stavka bo'yicha to'laydilar.

3-jadval

Jismoniy shaxslar va korxonalarning avtotransport vositalari dvigatellari hajmiga bog'liq holda (har bir sm.kub.uchun) yillik mol-mulk solig'i stavkalari

Soliqqa tortilmaydigan obyekt nomi	Soliqqa tortilmaydigan oylik daromad summasiga nisbatan soliq summasi,%
Yengil avtomobillar	0,01
Yuk tashuvchi avtotransport vositalari va avtobuslar	0,02

Ko'rsatilgan soliq stavkalari mol-mulkning o'rtacha yillik qoldiq qiymatiga qo'llaniladi. Mol-mulk solig'idan davlat hukumati tashkilotlari, byudjet va mahalliy o'z-o'zini boshqarish tashkilotlari, Ozarbayjon respublikasi Milliy banki va uning tuzilmalari, davlat fondlari va nogironlarning jamoat tashkilotlari ozod etiladi. Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan holda misgarlik, kulolchilik kabi qator boshqa xunarmandchilik faoliyati bilan shug'ullanadigan jismoniy shaxslarning ustaxonalari joylashgan ijodiy xonalari yoki bino qismlari ham soliqqa tortilmaydi. Soliqqa tortish maqsadida hisoblangan korxonalar mulki qiymati, ekologiya xizmati, yong'in xavfsizligi yoki fuqarolar mudofaasi maqsadlarida foydalaniladigan obyektlar qiymati summasiga kamayadi. Shaharlarda yo'lovchi tashish uchun mo'ljalangan trolleybus va tramvaylar mol-mulk solig'idan ozod etiladi.

Binolarga solinadigan soliq Ozarbayjon respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda aniqlanadigan ularning inventar qiymati bo'yicha ma'lumotlarga asosan har yili 1 yanvar holati bo'yicha hisoblanadi. Joriy yil uchun soliq summasiga teng ulushlarda 15 avgustda va 15 noyabrda to'lanadi.

20.5. Yer solig'i, yo'l solig'i, qazilma boyliklaridan foydalanganlik uchun soliqlarni hisoblash va to'lash tartibi

Yer solig'i, yer egalari va foydalanuvchilarning xo'jalik faoliyati natijasidan qat'iy nazar, yer joylarining kattaligi uchun doimiy har yili to'lanadigan to'lov sifatida qaraladi. Rezident va norezident jismoniy shaxslar hamda korxonalar yer joylariga egalik huquqiga ega bo'lgan, mahalliy hokimiyatlarning jismoniy shaxslari bir oy ichida soliq tashkilotlaridan ro'yxatdan o'tishi shart.

Ozərbayjon Respublikasi hududida yer joylariga ega bo'lgan yoki foydalanadigan quyidagi rezident va norezident shaxslar yer solig'i to'lovchilari hisoblanadilar; rezident va norezident jismoniy shaxslar; rezident – korxonalar; sho'ba korxonalar va bo'linmalari; Ozarbayjon Respublikasi hududida o'zining doimiy vakilligi orqali tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradigan norezident korxonalar.

Soliqqa tortiladigan obyekt bo'lib, Ozarbayjon Respublikasi hududida jismoniy shaxslar va korxonalariga egalik qilish yoki foydalanish uchun berilgan yer joylari hisoblanadi. Yer solig'i stavkasi qishloq xo'jaligi yerlari bo'yicha birinchi shartli bal uchun soliqaqqa tortilmaydigan oylik daromadning 0,3 foizi miqdorini tashkil qiladi. Shartli ballar tegishli hokimiyat tashkilotlari tomonidan aniqlanadi. Quyidagi yerlar yer solig'iga tortilmaydi: aholi yashash joylarining jamoat foydalanadigan yerlari; davlat byudjet tashkilotlari; byudjet tashkilotlari va mahalliy o'z-o'zini boshqarish tashkilotlari, Ozarbayjon respublikasi Milliy banki va uning tuzilmalari ixtiyorida yoki foydalanishi uchun ajratilgan yerlar; Ozarbayjon respublikasiga tegishli bo'lgan, Kaspiy dengizi ostida joylashgan yerlar, ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan davlat o'rmon va suv fondi yerlari; davlat chegara hududlari va mudofaa uchun mo'ljallangan yerlar.

Yer solig'i yerga egalik qilish va foydalanish huquqini tasdiqlaydigan hujjatlar asosida belgilanadi. Korxonalar har yili, yer joylari kattaligi va soliq stavkasidan kelib chiqqan holda yer solig'ini hisoblaydilar va 15 mayga qadar bu hisobotlarni soliq tashkilotlariga taqdim etadi. Jismoniy shaxslar yer solig'ini hisoblash tegishli tashkilotlar tomonidan har yili 1 iyulga qadar hisob-kitob qilinib, soliq to'lovchilarga bu haqda xabarnoma birinchi avgustga qadar taqdim etiladi. Yer solig'i teng ulushlarda byudjetga 15 avgust va 15 noyabrga qadar to'lanadi.

Ozərbayjon respublikasi avtomobil yo'llaridan foydalanganligi uchun yo'l soligi to'lovchilar respublika hududiga kiradigan avtotransport vositalari egalari bo'lgan norezident korxonalar yoki jismoniy shaxslar hisoblanadilar. Ozarbayjon respublikasi hududiga kiradigan chet el davlatlarining avtomashinalari ham soliqaqqa tortish obyekti bo'ladi. Soliq ushbu avtomashinalarning turiga, o'rindiqlik soniga, yuk ko'tarish qobiliyati, yuk bilan birgalikdagi avtomashina o'g'irligiga, respublika hududida bosib o'tgan masofasiga bog'liq holda hisoblanadi. Bundan tashqari, xavfli yuklarni tashish bo'yicha, quyidagi stavkalar belgilangan:

- yengil avtomobillar uchun – 15 AQSh dollar;
- avtomobillar uchun o'rindiqlik soniga bog'liq holda bir kun uchun o'rindiqlik soni 1 tadan 12 tagacha – 30 AQSh dollar;
- 13 tadan 30 tagacha – 60 AQSh dollari;

- 31 tadan yuqori -100 AQSh dollari.
- Yuk avtomobillari, prisepli avtomashina vositalari uchun yuk ko'tarish qobiliyati bog'liq holda 1 kun uchun:
 - yuk ko'tarish qobiliyati 1 tonnadan 10 tonnagacha-100 \$;
 - 11 dan 24 tonnagacha -120 \$;
 - 24 dan yuqori -180 \$.

Xorijiy davlatlar avtomashinalari Ozarbayjon respublikasi bojxona hududiga kirganda bojxona yo'li solig'ini ushlab qoladi va bir ish kuni ichida byudjetga o'tkazadi.

Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq Ozarbayjon respublikasi hududida va Ozarbayjon respublikasiga tegishli hududning Kaspiy dengizi ostida joylashgan foydali qazilmalarni qazib olgan uchun undiriladi. Ushbu soliqni foydali qazilmalarni qazib oladigan quyidagi shaxslar to'laydilar: rezident va norezident jismoniy shaxslar; rezident-korxonalar; ko'rsatilgan korxonalarining mustaqil balans va hisob raqamiga ega bo'lgan filiallari; Ozarbayjon respublikasi hududida doimiy vakilligi orqali tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan norezident korxonalar. Soliqqa tortish obyekti Ozarbayjon respublikasi hududidagi yerlardan qazib olinadigan foydali qazilmalar hisoblanadi.

4-jadval

Yer ostidan qazib olinadigan foydali qazilmalar turiga bog'liq holda, soliq stavkasi quyidagi miqdolarida belgilangan

Yer osti boyliklaridan foydalanganlik solig'iga tortiladigan qazib olinadigan foydali qazilmalarning nomi	Soliq stavkasi, %
Neft xom-ashyosi	26
Tabiiy gaz	20
Ruda qazilma boyliklari:	
Qora metall	3
Rangli metallar	4
Qimmatbaho metallar (oltin, kumush)	8
Noyob metallar (simob)	4
Noruda qazilma boyliklari:	
Tekis toshlar	10
Yuzi silliq toshlar (marmar, gabra)	8
Seolit	4
Barit	4
Keramzit, agloporit	4
G'isht va cherepisa uchun qumlar	4
Vulqon kukuni, pemza	3
Kvarsli qumlar	4
Qurilish uchun qumlar	4

Sement uchun xom ashyo	4
Tosh tuzi	5
Graviya	6
Qimmatbaho toshlar	5
Yodli bromli suvlar	5
Mineral suvlar	8

Nedra solig'i yuqorida sanab o'tilgan soliq stavkalarini yer ostidan qazib olingan alohida turdagi foydali qazilmalarning ulgurji bahosiga qo'llagan holda hisoblanadi. Soliq summasi foydali qazilmalar qazib olingan oydan keyingi oyning 20-kunigacha to'lanadi. Nedra solig'i respublika byudjetiga undiriladi. Qurilish materiallar bo'yicha nedra solig'i esa mahalliy byudjetga to'lanadi. Respublika soliq kodeksiga asosan, QQS to'lovchi sifatida ro'yxatdan o'tmagan korxonalar (aksiz osti tovarlar ishlab chiqargan korxonalar, kredit va sug'urta tashkilotlari, investision jamg'armalar va qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilardan tashqari) soliq solishning soddalashgan tizimi asosida soliq to'lovchisi hisoblanadi. Soliqqa tortish obyekti bo'lib, hisobot davrida soliq to'lovchi tomonidan tovarlar va mol-mulkarni yetkazib berish hamda sotish bilan bog'liq bo'lmagan jarayonlardan olingan umumiy daromad hajmi hisoblanadi. Yagona soliq to'lovchilar QQS, daromad solig'i, yer solig'i va mol-mulk solig'i to'lamaydilar. Yagona soliq stavkasi jami tushum hajmidan ikki foizni tashkil etadi. Hisobot davrida hisoblangan soliq har chorakda byudjetga o'tkaziladi.

Davlat bojlari quyidagi hollarda undiriladi: sudga da'vo arizasi berilgan, notarial jarayonlar o'tkazilganda, fuqarolik holati bo'yicha ro'yxatdan o'tishda, chet elga chiqishni rasmiylashtirishda hamda taklifnomalar, shaxsni tasdiqlovchi guvohnomalar olishda, fuqarolikni qabul qilish va undan chiqishda, patentlar berilganda, ov qilishga ruxsat berilganda, yuridik shaxslarni ro'yxatdan o'tkazganda va qayta ro'yxatdan o'tkazganda, yakka tartibda mehnat faoliyati bilan shug'ullanish uchun lisenziya berilganda hamda qimmatli qog'ozlar emissiyasi prospektini ro'yxatdan o'tkazishda. Boj stavkalari Ozarbayjon respublikasi hukumatining maxsus qarorlari bilan aniqlanadi. Alohida boj turlari uchun ayrim imtiyozlar ko'rsatilgan. Jumladan, ish haqi va ishga joylashish bo'yicha da'vo arizalari berilganda, moddiy zararni qoplashda va boshqa holatlarda. Ko'rsatilgan bojlardan tashqari respublika hududida qishloq xo'jalik mahsulotlari hamda boshqa mahsulotlarni bozorlar, yarmarkalar va boshqa joylarda sotuvini amalga oshiradigan jismoniy shaxslardan bir martalik boj to'lovlari undiriladi. Bir martalik bojar soliq to'lovchiga tegishli patta berilganda naqd pulda undiriladi. Barcha bojar miqdori daromad solig'iga tortilmaydigan minimal oylik ish haqi hajmidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Ozarbayjonda davlat pensiya jamg'armasi faoliyat ko'rsatib, uning mablag'lari pensiya va boshqa davlat nafaqalarini to'lash uchun yo'naltirilgan. Bundan tashqari pensiya fondidan aholining alohida guruhlari uchun turli nafaqalar va kompensasiyalar to'lanadi. Fond mablag'lari ijtimoiy sug'urta solig'i va davlat byudjeti

mablag'lari hisobidan tashkil topadi. 1993 yilgacha ijtimoiy sug'urta solig'i stavkasi ish haqi fondining—40 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 1993 yildan boshlab—35 foiz, 2000 yilda — 33 foiz, 2001 yildan boshlab esa— 30 foizni tashkil qiladi.

Qisqacha xulosalar

Davlat soliqlarining qat'iy stavkalarini Ozarbayjon respublikasi soliq kodeksi belgilaydi. Har bir alohida yilda qo'llaniladigan davlat soliqlari stavkalari, «Ozarbayjon respublikasi davlat byudjeti haqida»gi qonun qabul qilinganda qayta ko'rib chiqilishi mumkin, ammo soliq kodeksi belgilagan chegaraga amal qiladi.

Ozarbayjon Respublikasida alohida soliq tartiblari qo'llanilishi mavjud bo'lib, bu ma'noda maxsus soliqlarni hisoblanishi va to'lanishi tushuniladi, bunda soliq kodeksida ko'rsatilmagan soliqlarning belgilanilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Ozarbayjon respublikasi soliq kodeksi qachon qabul qilingan?
2. Davlat soliqlariga qaysi soliq turlari kiradi?
3. Avtonom respublika soliqlariga qaysi soliq turlari kiradi?
4. Mahalliy soliqlarga qaysi soliq turlari kiradi?
5. Foyda solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, aksizlar to'g'risida tushuncha bering.
6. Jismoniy shaxslar daromad solig'i, mol-mulk solig'ini hisoblanishi qanday?
7. Yer solig'i, yo'l solig'i, qazilma boyliklaridan foydalanganlik uchun soliqlarining hisoblash va to'lanishi qanday amalga oshiriladi?
8. Soddalashtirilgan soliq tizimi qanday tashkil qilingan?
9. Foyda solig'i qanday daromadlardan undirilmaydi?
10. QQS dan qanday faoliyat turlari ozod etilgan?

Asosiy adabiyotlar

1. «Налоги и налогообложение» 3-е издание под ред. М.Романовского и О.Врублёвской. М.: 2002.
2. «Финансы» Учебник под .ред. Проф. Дробозиной Л.А. —М: « Финансы», ЮНИТИ, 2003.
3. Тютюрюков Н.Н. Налоговые системы зарубежных стран: Европа и США: Учеб.пос./-М.Дашков и К., 2002.
4. Ходов Л.Г., Попов В.И. Подходное налогообложение физических лиц (зарубежный опыт, российские проблемы): Учебное пособие - М.: ТЕИС, 2004.
5. Ходов П.Г. Налоги и налогообложение экономики: Учебное пособие. - М.: ТЕИС, 2003.
6. <http://www.byudget.ru> — Rossiya Federatsiyasi byudjet tizimi;
7. <http://www.Google.ru>.-Rossiya Federatsiyasi qidiruv sayti.

**O'QITISH JARAYONIDA ILG'OR PEDAGOGIK VA AXBOROT
TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH BO'YICHA USLUBIY
KO'RSATMA**

Ma'ruza darsida olib boriladigan ta'lim texnologiyasi

<p>Fakultet: "Buxgalteriya hisobi va audit" Kafedra: "Moliya va soliqlar" Ta'lim bosqichi bakalavr-7-8 semestr</p>	<p style="text-align: center;">Fan: "Xorijiy davlatlar soliq tizimi"</p>	<p>Mavzu tartibi -7 , Mavzu: « Amerika Qo'shma Shtatlari soliq tizimi» <i>Soat hajmi: 4s</i></p>
<p>Talabalar soni : 25 tagacha</p>	<p>Ta'lim texnologiyasi muallifi: Azizov O.M.</p>	<p>O'qituvchi: Azizov O.M.</p>
<p>O'quv mashg'uloti shakli</p>	<p>Tematik ma'ruza</p>	
<p>Ma'ruza rejasi</p>	<p>1. AQSh soliq tizimi tarkibi va tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari. 2. AQShda jismoniy shaxslardan olinadigan soliqning stavkalari va uning to'lovchilari. 3. Shtatlar solig'i va mahalliy soliqlar. Daromad solig'i va korporatsiya foyda solig'i.</p>	
<p style="text-align: center;">Mashg'ulot maqsadi: Amerika Qo'shma Shtatlari soliq tizimi haqida ma'lumot berish</p>		
<p>Pedagogik vazifalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> • AQSh soliq tizimi tarkibi va tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot berish. • AQShda jismoniy shaxslardan olinadigan soliqning stavkalari va uning to'lovchilari haqida ma'lumot berish. • Shtatlar solig'i va mahalliy soliqlar, daromad solig'i va uning stavkalari, korporatsiya foyda solig'i to'g'risida tushuncha berish. 	<p style="text-align: center;">O'quv faoliyati natijalari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • shtatlar solig'i va mahalliy soliqlar, daromad solig'i, korporatsiya foyda solig'i haqida ma'lumot oladilar; • AQShda jismoniy shaxslardan olinadigan soliq, aksizlar, bojxona boji, meros va hadya solig'i, aholidan olinadigan daromad solig'i, mol-mulkdan olinadigan soliqning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadilar; • AQShda jismoniy shaxslardan olinadigan soliqning stavkalari va uning to'lovchilari haqida ma'lumotga ega bo'ladilar. 	

Ta'lim vositalari	Ma'ruza matni, plakat, slayd, kodoskop.
Ta'lim shakli va uslublari	Ma'ruza, «Блиц опрос» uslubi, klaster
Ta'lim berish sharoitiga	Texnik jihozlangan xona

**«Amerika Qo'shma Shtatlari soliq tizimi» ma'ruzasining texnologik kartasi
(1-mashg'ulot)**

Dars bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talabalar
1 bosqich Kirish (10 daqiqa)	1.1.Mavzuni va mashg'ulotning asosiy maqsadi hamda vazifalarini e'lon qiladi; 1.2 AQSh soliq tizimi tuzilishini o'rganish qanday ahamiyatga ega ekanligini tushuntiradi	Tinglaydilar Mavzuni yozadilar
2 bosqich Asosiy bosqich (50 daqiqa)	2.1. AQSh soliq tizimi tarkibi va tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot beradi; 2.2.Federal soliqlar, shtatlar solig'i va mahalliy soliqlarning tarkibi va tuzilishini jadval yordamida tushuntiradi.(kodoskopdan foydalaniladi) 1- ilova. 2.3.AQShda jismoniy shaxslardan olinadigan soliqning stavkalari va uning to'lovchilari haqida ma'lumot beradi. 2.4.Jismoniy shaxslar daromad solig'i stavkalarini jadval asosida tushuntiradi.(2-ilova)	Tinglaydilar Konspektlarini to'ldirib boradilar


	2.5. Talabalarni ikki guruhga bo'ladi. Guruhlarga: AQSh soliq tizimi tuzilishini klaster usulidan foydalamb sxematik ifodalashni taklif etadi (3-ilova)	Guruhlar a'zolari plakatlarda AQSh soliq tizimi tuzilishini klaster usulida sxematik ifodalaydilar.
3 –bosqich Yakuniy bosqich (20 daqiqa)	3.1. Talabalarining AQSh soliq tizimi haqida qanday tasavvurga ega bo'lganliklarini bilish maqsadida «Блиц опрос»	Guruh a'zolaridan ikki talaba plakatlarga izoh beradilar; Savollarga javob beradilar

AQSh soliq tizimining tarkibi va tuzilishi

№	Federal soliqlar	Shtatlar solig'i	Mahalliy soliqlar
1	Daromad solig'i	Daromad solig'i	Daromad solig'i
2	Korporatsiya foydasidan olinadigan soliq	Korporatsiya foydasidan olinadigan soliq	Korporatsiya foydasidan olinadigan soliq
3	Ijtimoiy su g'urta solig'i		
4	Aksizlar	Aksizlar	Aksizlar
5	Bojxona boji		
6	Meros va hadya solig'i	Meros va hadya solig'i	Meros va hadya solig'i
7		Sotuvdan olinadigan soliq	Sotuvdan olinadigan soliq
8		Mol-mulk solig'i	Mol-mulk solig'i
9		Avtotransport egalaridan olinadigan soliq	
10			Ekologiya solig'i

AQShda yillik daromad solig'i stavkalari

Soliqqa tortiladigan daromad (ming \$)	Soliq summasi (ming \$)
1. Yakka soliq to'lovchilar	
0-22,1 22,1-53,5 53,5-115 115-250 250 dan ortiq	Daromadning 15% 3,315+28%>22,1 12,107+31%>53,5 31,172+36%>115 79,772+39,6%>250
2. Qo'shma deklaratsiyani to'ldiradigan oilaviy soliq to'lovchilar	
0-36,9 36,9-89,15 89,15-140 140-250 250 dan ortiq	Daromadning 15% 5,535+28%>36,9 20,16+31%>89,15 5,9+36%>140 75,5+39,6%>250
3. Oila boshliqlari	
